O‘quv dasturi mazmunida aks etgan grammatik mavzularni yoritishda o‘quv rejada keltirilgan “Hayot xavfsizligi asoslari”, “Tejamkorlik saboqlari” va “Iqtisodiy bilim asoslari” kurslarining mazmuni singdirilishi kerak.

Me‘yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

#### **I. TK-tayanch kompetensiya**

1. TK1-kommunikativ kompetensiya
2. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. TK3-o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya

6. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

## **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

1. FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish)
2. FK2- lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid):

### **5-SINF**

**(204 soat, A2+: 238 soat)**

**(haftasiga 6 soat, A2+:7 soat)**

## **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

– darslik materiallari va undan tashqari manbalar (televizor, radio)dan ma'lumotlarni topa olish.

#### **A2+**

– mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi :**

#### **A2**

– mustaqil o'qib-o'rganish, bilimini, ko'nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish.

#### **A2+**

– o'z xatti-harakatini baholay olish

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A2**

– adabiy til va nutq me'yorlariga amal qilish, badiiy asarlarni tushunish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

#### **A2+**

– madaniy me'yorlarga amal qilish, san'at asarlarini tushunish

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

– dars va mashg'ulot jarayonlarida faol ishtirok etish, turli vaziyatlarda o'zini tuta olish.

#### **A2+**

– har bir voqea-hodisalarga munosabat bildira olish; ularda faol ishtirok eta olish.

## **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A2**

– shaxsiy rejalarni tuza olish, turli jadvalli ma'lumotlarni o'qiy olish, hisob-kitob bilan ish yuritish.

#### **A2+**

– kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq rejalarni tuza olish.

## **1-BO‘LIM. KIRISH. FONETIKA, IMLO HAMDA LEKSIKA BO‘YICHA TAKRORLASH**

**(7 soat, A2+: 2 soat)**

**1-mavzu.** Tilning ijtimoiy ahamiyati. **(1 soat )**.

**2-mavzu.** O‘zbek tili - davlat tili. **(1 soat (A2+: 2 soat))**.

**Takrorlash.**

Ayrim unilarning yozilishi. Ayrim undoshlarning yozilishi. Bir tovush bilan farq qiladigan so‘zlar imlosi va talaffuzi **(3 soat)**

Shakldosh so‘zlar. Ma‘nodosh so‘zlar. Zid ma‘noli so‘zlar **(2 soat, A2+3 soat)**.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

## **2-BO‘LIM. MORFOLOGIYA**

**(17 soat, A2+:2 soat)**

**3-4-mavzular.** So‘z turkumlari, so‘zlarni turkumlarga ajratishning muhim belgilari. Mustaqil so‘z turkumlari. **(2 soat)**

**5-6-mavzular.** Fe‘l so‘z turkumi. Fe‘l zamonlari. **(2 soat)**

**7-8-mavzular.** Ot so‘z turkumi. Egalik va kelishik qo‘shimchalari **(2 soat)**

**9-10-mavzular** Sifat, son so‘z turkumi va ularning imlosi. Olmosh so‘z turkumi. **(2 soat)**

**11-12-mavzular.** Yordamchi so‘zlar. Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama. **(3 soat)**

**13-14-mavzular.** Undov va taqlid so‘zlar. Qo‘shma so‘zlarning tuzilishi. Qo‘shma so‘zlar imlosi. **(2 soat, A2+ 4 soat)**

**15-16-mavzular.** Juft so‘zlar va ularning imlosi. Takroriy so‘zlar va ularning imlosi. **(2 soat)**

**Mustahkamlash.** Mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, undov va taqlid so‘zlar. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlari yuzasidan tahlil, matn va lug‘atlar bilan ishlash. **(2 soat)**

**Nazorat ishi va tahlil. (3 soat)**

## **3-BO‘LIM. SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA. MATN**

**(20 soat, A2+: 3 soat)**

**17-18-mavzular.** Gap. Gapda so‘zlarning bog‘lanishi. **(2 soat)**

**19-20-mavzular.** So‘z birikmasi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. **(2 soat)**

**21-22-mavzular.** Gap bo‘laklari. Kesim. **(2 soat)**

**23-24-mavzular.** Ega. Hol. To‘ldiruvchi bo‘laklari. **(2 soat)**

**25-26-mavzular.** Aniqlovchi. Undalma va unda tinish belgisining ishlatilishi. **(2 soat)**

**27-mavzu.** Kirish soʻz va unda tinish belgisining ishlatilishi (1 soat)

**Mustahkamlash.** Gapda soʻzlarning bogʻlanishi, gap boʻlaklari, undalma, kirish soʻz va unda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil, matn va lugʻatlar bilan ishlash (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)**

**28-29-mavzular.** Sodda va qoʻshma gaplar. Koʻchirma gaplar. Koʻchirma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. (2 soat)

**30-mavzu.** Dialog va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. (1 soat)

**31-32-mavzular.** Matn. Matn mazmunini qayta hikoya qilish (1 soat, A2+:3 soat)

Matnga sarlavha qoʻyish (1 soat)

**Mustahkamlash.** Matn va unga sarlavha qoʻyish yuzasidan tahlil. (2 soat, A2+:3 soat)

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, oʻqish, soʻzlash, yozish):**

**A2**

– tinglangan matn, mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnini tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda oʻqiy oladi;

– fikrini toʻgʻri bayon qila oladi, urgʻuni toʻgʻri qoʻya oladi;

– oʻrganilgan mavzular doirasida lugʻat, saylanma, taʼkidiy diktantlarni hamda 85-95 ta soʻzdan iborat boʻlgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**A2+**

– tinglangan matn, mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni maʼnosini tushunib, orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda oʻqiy oladi;

– fikrini toʻgʻri bayon qila oladi, urgʻuni toʻgʻri qoʻya oladi;

– oʻrganilgan mavzular doirasida lugʻat, saylanma, taʼkidiy diktantlarni hamda 96-120 ta soʻzdan iborat boʻlgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**Lingvistik kompetensiya (fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):**

**A2**

– yangi soʻz va iboralarni oʻzlashtiradi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi, soʻz birikmasi, gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari, gap boʻlaklari, undalma, kirish



soʻz, sodda va qoʻshma gaplar, koʻchirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– soʻzlarni morfologik tahlil qila oladi. Oʻrganilgan ifoda vositalarini ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

**A2+**

– yangi soʻz va iboralarni oʻzlashtiradi. Gapda soʻzlarning bogʻlanishi, soʻz birikmasi, gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari, gap boʻlaklari, undalma, kirish soʻz, sodda va qoʻshma gaplar, koʻchirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– soʻzlarni morfologik tahlil qila oladi. Oʻrganilgan ifoda vositalarini ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

**Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)**

#### **4-BOʻLIM. FONETIKA VA IMLO**

**(33 soat, A2+: 4 soat)**

**33- 34-mavzular.** Ogʻzaki va yozma nutq tushunchalari. **(2 soat)**

**35-36-mavzular.** Talaffuz va imlo meʼyorlari (*yozilishi, fonetik asos, morfologik asos va tarixiy asosga ega boʻlgan soʻzlar*). **(3 soat)**

**37-38-mavzular.** Nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasi. Ayrim unlilar talaffuzi va imlosi. **U** va **I** unlilarining talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

**39-40-mavzular.** **A** va **O**, **Oʻ** unlilarining talaffuzi va imlosi. Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

**Mustahkamlash.** Talaffuz va imlo meʼyorlari, nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasi yuzasidan tahlil. Matn va lugʻat bilan ishlash. **(2 soat, A2+: 4 soat)**

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**41-42-mavzular.** Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. **Gg-Kk** undoshlari talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

**43-44-mavzular.** **Qq** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshimchalarning qoʻshilishi va ularning imlosi. **Gʻ** undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshimchalarning qoʻshilishi va ularning imlosi. **(2 soat)**

**45-46-mavzular.** **B, m** undoshlaridan oldin kelgan **n** undoshining talaffuzi va imlosi. **Jj (dj)** undoshining talaffuzi va imlosi. **X x** va **H h** undoshlarining talaffuzi va imlosi. **(3 soat)**

**47-48-mavzular.** **Dd** va **Tt** undoshining talaffuzi va imlosi. **F f** undoshining talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

**49-50-mavzular.** **Ng ng** harfining talaffuzi va vazifasi. **Sh sh** va **Ch ch** harflari talaffuzi hamda ularning vazifalari. **(3 soat)**

**Mustahkamlash.** Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Harf birikmalarining vazifalari yuzasidan tahlil. Lugʻat ustida ishlash. **(2 soat)**

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**51-52-mavzular.** **Qoʻsh** undoshlar talaffuzi va imlosi. Qator undoshlarning talaffuzi va imlosi. **(2 soat)**

**53-54-mavzular.** Tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi, almashishi. Tutuq belgisining ishlatilishi. (2 soat)

**55-56-mavzular.** Bo‘g‘in va uning turlari. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. (2 soat)

**57-58-mavzular.** Urg‘u va uning turlari. So‘z urg‘usi. (2 soat, A2+:4soat)

**Mustahkamlash.** Qo‘sh, qator undoshlarning talaffuzi va imlosi, tovushlarning orttirilishi va tushib qolishi, almashishi; tutuq belgisining ishlatilishi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari, urg‘uning qo‘yilishi yuzasidan tahlil. Matn va lug‘at bilan ishlash. (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil.** (2 soat)

## **5-BO‘LIM. TAKRORLASH**

**( 3 soat, A2+:1 soat)**

Ayrim unlilar. Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi. Qo‘sh va qator undoshlar talaffuzi hamda imlosi. Matn va lug‘atlar bilan ishlash. (2 soat, A2+:3 soat)

Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalari. Tovushlarning orttirilishi, tushib qolishi, almashishi. (1 soat)

## **6-BO‘LIM. LEKSIKOLOGIYA**

**(72 soat, A2+:16 soat)**

**59-61-mavzular.** Leksika. O‘zbek tili lug‘at tarkibi.

So‘z – tilning asosiy birligi. (3 soat)

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):**

**A2**

– tinglangan mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;

– fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi;

– 85-95 ta so‘zdan iborat bo‘lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**A2+**

– tinglangan mashq va topshiriqlardagi yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o‘qiy oladi;

– fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi;

– 96-120 ta soʻzdan iborat boʻlgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):**

**A2**

– talaffuz va imlo meʼyorlari, nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasini izohlay oladi, soʻzlarni fonetik tahlil qila oladi.

**A2+**

– talaffuz va imlo meʼyorlari, nutq tovushlarining maʼno farqlash vazifasini izohlay oladi, soʻzlarni fonetik tahlil qila oladi.

**Nazorat ishi (1 soat).**

**62-63-mavzular.** Soʻzning tovush tomoni. (2 soat)

**64-65-mavzular.** Soʻz maʼnosi. Bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlar. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari. (2 soat, A2+4soat)

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**66-67-mavzular.** Maʼno koʻchish yoʻllari. Oʻxshashlik asosida maʼno koʻchishi. (2 soat)

**68-70-mavzular.** Aloqadorlik asosida maʼno koʻchish. Vazifadoshlik asosida maʼno koʻchishi. Butunning qismni, qismning butunni ifodalashi. (3 soat, A2+:4soat)

**Mustahkamlash.** Matnda koʻp maʼnoli soʻzlardan foydalanish. (1 soat, A2+2soat)

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**71-72-mavzular.** Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari. Shakldosh soʻzlar. (2 soat)

**73-74-mavzular.** Nutqda shakldosh soʻzlardan foydalanish. Nutqda uyadosh soʻzlardan foydalanish. (2 soat)

**75-76-mavzular.** Paronim soʻzlar va ulardan foydalanish. Matnda maʼnodosh soʻzlarning qoʻllanishi. (2 soat)

**Mustahkamlash.** Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari yuzasidan tahlil. Lugʻat ustida ishlash. (1 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)**

**77-79-mavzular.** Zid maʼnoli soʻzlar va ularning nutqda qoʻllanilishi. Eskirgan soʻzlar va ularning maʼnolari. (3 soat)

**80-81-mavzular.** Eskirgan soʻzlarning tarixiy asarlarda qoʻllanilishi. (2 soat)

**82-83-mavzular.** Oʻzlashma soʻzlar. Yevropa tillaridan olingan soʻzlar. Yangi paydo boʻlgan soʻzlar. (2 soat, A2+:4 soat)

**Mustahkamlash.** Zid maʼnoli soʻzlar, eskirgan soʻzlar va ularning maʼnolari, oʻzlashma soʻzlar, yevropa tillaridan olingan soʻzlar, yangi paydo boʻlgan soʻzlar yuzasidan tahlil. Matn va lugʻat bilan ishlash. (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)**

**84-86-mavzular.** Terminlar. Ilmiy terminlar. Kasbiy terminlar. Matematika, informatika fanlariga oid terminlar. Tabiiy fanlarga oid terminlar, ularning imlosi. **(3 soat, A2+:4 soat)**

**87-89-mavzular.** Ijtimoiy fanlar terminlari va ularning imlosi. Jismoniy madaniyat va mehnat bilan bog'liq terminlar. **(3 soat)**

**90-92-mavzular.** Rasm va chizmachilik terminlari. Musiqaga doir terminlar va ularni nutqda qo'llash. **(3 soat)**

**Mustahkamlash.** Kasbiy va ilmiy atamalar yuzasidan lug'at bilan ishlash. **(1 soat).**

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**93-94-mavzular.** Ma'naviyat va ma'rifat bilan bog'liq so'zlar. Madaniyat bilan bog'liq so'zlar. **(2 soat, A2+4 soat )**

**95-96-mavzular.** San'at bilan bog'liq so'zlar. Tibbiyot bilan bog'liq so'zlar. **(2 soat)**

**97-98-mavzular.** Qavm-qarindoshlik bilan bog'liq so'zlar va ularning ma'nosi. **(2 soat)**

**Mustahkamlash.** Matn va lug'at bilan ishlash. **(2 soat, A2+:4 soat)**

**99-100-mavzular.** Shevaga xos so'zlar. Adabiy nutqning rivojida shevalarning tutgan o'rni. **(2 soat)**

**101-102-mavzular.** Nutqda shevaga xos so'zlardan foydalanish. Til sofligi tushunchasi. **(2 soat)**

**103-105-mavzular.** Nutq turlari. Monologik nutq. Dialogik nutq. Lug'atshunoslik. **(3 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):**

**A2**

– tinglangan matndan asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;

– fikrini to'g'ri bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;

– o'rganilgan mavzular doirasida ijodiy, saylanma diktantlarni hamda 85-95 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalariga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**A2+**

– tinglangan matndan asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;

– fikrini to'g'ri bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;

– o'rganilgan mavzular doirasida ijodiy, saylanma diktantlarni hamda 96-120 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalariga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi.

**Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):**

**A2**

– yangi soʻz va iboralarni oʻzlashtiradi, matndagi soʻzlar maʼnosini izohlaydi va leksik tahlil qila oladi.

– oʻrganilgan ifoda vositalarini ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

**A2+**

– yangi soʻz va iboralarni oʻzlashtiradi, matndagi soʻzlar maʼnosini izohlaydi va leksik tahlil qila oladi.

– oʻrganilgan ifoda vositalarini ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

**Nazorat ishi va tahlil. (3 soat)**

**106-mavzu.** Lugʻatlardan foydalanish. (1 soat)

**Mustahkamlash.** Izohli lugʻatlardan foydalanish. Imlo lugʻatlaridan foydalanish. (2soat, A2+:4 soat). Talaffuz (orfoepik) lugʻatlaridan foydalanish. Qomusiy lugʻatlardan foydalanish. (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (3 soat)**

**107-109-mavzular.** Iboralar. Nutqda iboralardan foydalanish. (1 soat) Iboralarning qoʻshma soʻzdan farqi. (2 soat, A2+:4soat)

**110-111-mavzular.** Iboralarning soʻz birikmalaridan farqi. Tasviriy ifoda. (2 soat)

**112-114-mavzular.** Nutqda maqol va hikmatli soʻzlardan foydalanish (3 soat, A2+:4 soat)

**115-116-mavzular.** Hikmatli soʻzlar ustida ishlash. (2 soat)

**117-118-mavzular.** Ismlar maʼnosi. Joy nomlari tarixi. (2 soat)

**Mustahkamlash.** Matn va lugʻat bilan ishlash. (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (2 soat)**

## **7-BOʻLIM. OʻQUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH. MATN USTIDA ISHLASH**

**(22 soat, A2+:6 soat)**

**Takrorlash.** Gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlari. Gap boʻlaklari. (2 soat)

Mustaqil soʻzlar. Yordamchi soʻzlar. (2 soat)

Unli tovushlar. Undosh tovushlar. (2 soat)

Boʻgʻin va urgʻu. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼnolari. (2 soat, A2+:5 soat)

**Nazorat ishi. (3 soat)**

Shakldosh, maʼnodosh, zid maʼnoli soʻzlar. Eskirgan va yangi soʻzlar, iboralar va tasviriy ifodalar. (2 soat)

Lugʻatshunoslik. (2 soat)

Atamalar, shevaga xos soʻzlar, olinma soʻzlar. (2 soat)

Maʼno koʻchish yoʻllari va ulardan foydalanish. (2 soat)

**119-120-mavzular.** Matn. Rasmga qarab savollar yordamida matn tuzish. Matn asosida bayon yozish. (2 soat, A2+:5 soat)

**121-mavzu.** Ish qog'ozlari (xat, tabriknoma, e'lon) ustida ishlash. Asosiy atamalar ustida ishlash. (2 soat)

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):**

**A2**

– mashq va topshiriqlar yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;

– fikrini to'g'ri bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;

– o'rganilgan mavzular doirasida saylanma, ijodiy diktantlarni hamda 85-95 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 8-10 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi. Ish qog'ozlarini (xat, tabriknoma, e'lon) yoza oladi.

**A2+**

– mashq va topshiriqlar yoki diktant matnidagi asosiy axborotlarni tushuna oladi;

– mavzuga oid mashq va topshiriqlarni orfoepiya qoidalariga rioya qilgan holda o'qiy oladi;

– fikrini to'g'ri, ravon, qisqa bayon qila oladi, urg'uni to'g'ri qo'ya oladi;

– o'rganilgan mavzular doirasida saylanma, ijodiy diktantlarni hamda 96-120 ta so'zdan iborat bo'lgan nazorat diktantini yoza oladi. Husnixat va imlo qoidalarga amal qiladi. 11-15 ta gapli ijodiy matn yarata oladi. Mustaqil va ijodiy fikrlay oladi. Ish qog'ozlarini (xat, tabriknoma, e'lon) yoza oladi.

**Lingvistik kompetensiya(fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatikaga oid):**

**A2**

– talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi. Gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, undalma, kirish so'z, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– so'zlarni fonetik tahlil qila oladi;

– matndagi so'zlar ma'nosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi.

O'rganilgan ifoda vositalarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llaydi.

**A2+**

– talaffuz va imlo me'yorlari, nutq tovushlarining ma'no farqlash vazifasini izohlay oladi. Yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi. Gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari, undalma, kirish so'z, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma gaplar va dialoglarni farqlaydi, izohlay oladi;

– soʻzlarni fonetik tahlil qila oladi; matndagi soʻzlar maʼnosini izohlaydi va leksik, morfologik tahlil qila oladi. Oʻrganilgan ifoda vositalarini ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllaydi.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**Mavzularni oʻrganish uchun - 121 soat A2+: 141 soat**

**Takrorlash uchun – 25 soat, A2+: 31 soat**

**Mustahkamlash uchun - 25 soat, A2+: 33 soat**

**Nazorat ishlari uchun - 33 soat, A2+: 33 soat**

**Jami: 204 soat, A2+: 238 soat**

## **NUTQ MADANIYATI YONDOSH OʻQUV DASTURI**

### **Til va nutq**

**(9 soat)**

**1-2- mavzular.** Til va nutq. Ichki va tashqi nutqning oʻrni. Nutq turlari. **(2 soat)**

**3-4-mavzular.** Ogʻzaki va yozma nutq. **(2 soat)**

**5-7-mavzular.** Nutqning oʻziga xosligi, chegaralanganligi va chegaralanmaganligi. Ogʻzaki nutqning paytga va oʻringa munosabati. **(3 soat)**

**8-9-mavzular.** Nutq faoliyati. **(2 soat)**

### **Nutq madaniyati tushunchasi**

**(7 soat)**

**1-2- mavzular.** Madaniy nutq tushunchasi. **(2 soat)**

**3-4-mavzular.** Nutq madaniyatida milliy oʻziga xoslik. Oʻzbek adabiy tili haqida tushuncha. **(2 soat)**

**5-7-mavzular.** Adabiy til meʼyorlarining madaniy nutqni shakllantirishdagi imkoniyatlari. **(3 soat)**

### **Nutq madaniyati va nutq koʻrinishlari**

**(17 soat)**

**1-3- mavzular .** Nutq madaniyatining amaliy asoslari. Matn ustida ishlash. **(3 soat)**

**4-5-mavzular.** Har bir shaxs nutqining oʻziga xosligi; toʻgʻriligi, aniqligi, sofligi. **(2 soat)**

**6-8-mavzular.** Nutqning ifodaliligi, joʻyaliligi. **(3 soat)**

**9-11-mavzular.** Badiiy nutq. Rasmiy nutq. Matn ustida ishlash. **(3 soat)**

**12-14-mavzular.** Ogʻzaki soʻzlashuv nutqi. Nutq koʻrinishlari (dialog, monolog, polilog) orasidagi mushtaraklik va farqli tomonlari. **(3 soat)**

**15-17-mavzular.** Soʻzlashuv nutqi tarkibi. Matn ustida ishlash. **(3 soat)**

**Takrorlash.** Matn va lugʻat ustida ishlash. **(1 soat)**

## **6- SINF**

**(170 soat, A2+: 204 soat)**

**(haftasiga 5 soat, A2+: 6 soat)**

## **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

– darslik (lug'atlar), kutubxona hamda media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saqlash.

#### **A2+**

– darslik (lug'atlar) hamda media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saqlash, saralash;

– foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish.

### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

– mustaqil o'qib o'rganish, doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, ijodiylik ko'nikmalarini oshirib borish.

#### **A2+**

– ijodiylik ko'nikmalarini oshirib borish;

– o'z xatti-harakatini tanqidiy baholash.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A2**

– madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga hamda adabiy til me'yorlariga amal qilish.

#### **A2+**

– san'at asarlarini o'qib tushunib, ta'sirlana olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

– guruhlarda hamkorlikda ishlay olish va bunda muomala madaniyatiga ega bo'lish.

#### **A2+**

– o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A2**

– aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish, mavzu doirasida turli jadvalli ma'lumotlarni o'qiy olish.

#### **A2+**

– kundalik hayotda aniq hisob-kitob bilan ish yuritish.

## **1-BO'LIM. KIRISH. 5-SINFDA O'TILGANLARNI TAKRORLASH**



## (6 soat, A2+: 2 soat)

**1-mavzu.** O‘zbekistonda davlat tili va boshqa tillarning rivoji. (1 soat)

**Takrorlash.** Unli tovushlar. Undosh tovushlar. (2 soat)

O‘zbek alifbosi va imlo qoidalari. Bo‘g‘in va urg‘u. (2 soat)

Leksikologiya va lug‘atshunoslik (ma‘nodosh, shakldosh (omonim), zid ma‘noli, yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, iboralar, atamalar). (1 soat, A2+: 3 soat).

## 2-BO‘LIM. MATN

(4 soat, A2+: 2 soat)

**2-3-mavzular.** Matn va mavzu. Matnning turlari. Hikoya matni. (2 soat)

**4-5-mavzular.** Tasviriy matn. Muhokama matni. (2 soat, A2+: 4 soat)

**Nazorat ishi.** (2 soat)

## 3-BO‘LIM. MORFOLOGIYA

(9 soat, A2+:9 soat)

**6-7-mavzular.** Morfologiyaga kirish. So‘z tarkibi. (2 soat)

**8-9-mavzular.** Asos va qo‘shimchalar. Qo‘shimchalar tasnifi. (2 soat, A2+: 4 soat)

**10-11-mavzular.** So‘z yasovchi qo‘shimchalar. Tub va yasama so‘zlar. (2 soat, A2+: 5 soat)

**12-13-mavzular.** Shakl yasovchi qo‘shimchalar va ularning tasnifi. So‘z tarkibida tartib. (2 soat, A2+ 4 soat)

**Mustahkamlash.** So‘z tarkibi va so‘z yasalishi bo‘yicha tahlil. Matn va lug‘atlar bilan ishlash. (1 soat, A2+: 3 soat)

**Nazorat ishi.** (3 soat)

## 4-BO‘LIM. SO‘Z TURKUMLARI

(118 soat, A2+:23 soat)

**14-15-mavzular.** To‘plam va tasnif. So‘z turkumlari. (2 soat)

**16-17-mavzular.** Fe‘l. Harakat va holat fe‘llari. (2 soat)

**18-19-mavzular.** O‘timli va o‘timsiz fe‘llar. Fe‘l nisbatlari. (2 soat)

**20-21-mavzular.** Aniq nisbat. O‘zlik nisbat. (2 soat)

**22-23-mavzular.** Majhul nisbat. Orttirma nisbat. (2 soat)

**Nazorat ishi.** (3 soat)

**24-25-mavzular.** Orttirma nisbat qo‘shimchalarining ishlatilishi. Birgalik nisbati. (2 soat, A2+: 4 soat)

**Mustahkamlash.** Fe‘l, o‘timli va o‘timsiz fe‘llar, fe‘lning nisbat shakllari bo‘yicha tahlil. Matn va lug‘atlar bilan ishlash. (2 soat, A2+: 4 soat)

**26-27-mavzular.** Fe‘lning vazifa shakllari. Harakat nomi. (2 soat, A2+: 3 soat)

**28-29-mavzular.** Harakat nomining yasalishi. Sifatdosh. (2 soat, A2+: 3 soat)

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):**

**A2**

– mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni, tinglangan matndagi axborotni tushuna oladi;

– mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o‘qiydi;

– so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon qila oladi;

– 95-105 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi. 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, mustaqil fikrlay oladi;

– husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

**A2+**

– mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni, tinglangan matndagi axborotni tushuna oladi;

– mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib ravon o‘qiydi;

– so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon qila oladi;

– 121-130 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi. 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, mustaqil fikrlay oladi;

– husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

**Lingvistik kompetensiya (orfografiya, leksika, grammatika):**

**A2**

– mavzu doirasida fonetik va leksik tahlil qila oladi, o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

**A2+**

– mavzu doirasida fonetik va leksik tahlil qila oladi, o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

**Nazorat ishi. (3 soat)**

**30-32-mavzular.** Sifatdoshlarning zamon shakllari. O‘tgan zamon sifatdoshi. Hozirgi va kelasi zamon sifatdoshlari. Sifatdoshlarning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari(3 soat).

**33-35-mavzular.** Ravishdosh. Ravishdoshlarning ma’no turlari. Ravishdosh yasovchi qo‘shimchalar talaffuzi va imlosi. (3 soat, A2+: 4 soat)

**Mustahkamlash.** Fe’llarning vazifa shakllari yuzasidan tahlil, matn va lug‘atlar bilan ishlash. (1 soat, A2+: 3 soat)

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**36-38-mavzular.** Ko‘makchi fe‘llar. Ko‘makchi fe‘lning ma‘nolari. (3 soat, A2+ 4 soat)

**39-40-mavzular.** Fe‘llarning yasalishi. Ayrim fe‘l yasovchi qo‘shimchalar imlosi. (2 soat, A2+: 4 soat)

**41-43-mavzular.** Fe‘llarning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda fe‘llar. Qo‘shma fe‘llar. Juft fe‘llar. (3 soat, A2+: 4 soat)

**Mustahkamlash.** Fe‘l so‘z turkumining yasalishi bo‘yicha tahlil. (1 soat, A2+ : 2 soat)

**Nazorat ishi. (3 soat)**

**44-45-mavzular.** Fe‘lning ma‘noviy guruhlari. Fe‘llarning munosabat shakllari. (2 soat)

**46-47-mavzular.** Fe‘lning zamon shakllari. O‘tgan zamon shakllari. (2 soat)

**48-49-mavzular.** O‘tgan zamon shakllarining yasalishi. O‘tgan zamon shakllarida to‘liqsiz fe‘lning ishlatilishi. (2 soat)

**50-51-mavzular.** Hozirgi zamon shakllari. Hozirgi zamon shakllarining talaffuzi va imlosi. (2 soat, A2+: 4 soat)

**52-53-mavzular.** Kelasi zamon shakllari. Mayl shakllari. (2 soat)

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

#### **Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, yozish):**

**A2**

– mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni tushuna oladi;  
– savol va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o‘qiydi;

– 95-105 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi.

**A2+**

– 121-130 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qiladi.

#### **Lingvistik kompetensiya (grammatika):**

**A2**

– mavzu doirasida to‘plam va tasnif, fe‘l so‘z turkumi va nisbatlarini izohlay oladi, ajrata oladi;

– o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

**A2+**

– mavzu doirasida to‘plam va tasnif, fe‘l so‘z turkumi va nisbatlarini izohlay oladi, ajrata oladi;

– o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

#### **Nazorat ishi. (3 soat)**

**54-56-mavzular.** Xabar mayli. Buyruq-istak mayli. 2 shaxs buyruq-istak mayli qo‘shimchalarining qo‘llanilishi va ma‘nolari. (3 soat, A2+: 4 soat)

- Mustahkamlash.** Xabar va buyruq-istak mayllari bo'yicha tahlil. (1 soat)
- 57-58-mavzular.** Shart mayli. Shaxs- son shakllari. (2 soat)
- 59-60-mavzular.** Ot. Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda ot. (2 soat)
- 61-63-mavzular.** Qo'shma otlar imlosi. Juft va takroriy otlar imlosi. Atoqli otlarning turlari va imlosi. (3 soat)
- 64-65-mavzular.** Joy nomlari va ularning imlosi. (2 soat)
- Nazorat ishi.** (3 soat)
- 66-67-mavzular.** Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari. Tarixiy sana va bayram nomlari. (2 soat)
- 68-69-mavzular.** Suv havzalari va inshootlari nomlari. (2 soat)
- Nazorat ishi.** (2 soat)
- 70-72-mavzular.** Turdosh otlar. Shaxs otlari. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi. (3 soat)
- 73-74-mavzular.** Narsa otlari. Narsa otlarini yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi (2 soat)
- 75-76- mavzular.** O'rin-joy otlari. Faoliyat-jarayon otlari (2 soat)
- 77-78- mavzular** Aniq va mavhum otlar. Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi. (2 soat)
- 79-80-mavzular.** Otlarning lug'aviy shakllari. Son (birlik va ko'plik) shakllari. Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari. (2 soat)
- Mustahkamlash.** Ot so'z turkumi va uning ma'noviy guruhlari, tuzilishi bo'yicha tahlil. (1 soat)
- 81-82-mavzular.** Sifat. Sifatlarning yasalishi. (2 soat, A2+:3 soat)
- 83-84-mavzular.** Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi. (2 soat)
- 85-86-mavzular.** Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda sifat. Qo'shma sifat. (2 soat)
- 87-88-mavzular.** Juft sifatlar va ularning imlosi. Takroriy sifatlar va ularning imlosi. (2 soat)
- 89-91-mavzular.** Asliy va nisbiy sifatlar. Sifat darajalari. Sifatlarning oddiy daraja shakli. (3 soat)
- 92-94-mavzular.** Sifatlarning ortirma daraja shakli. Sifatlarning qiyosiy daraja shakli. Sifatlarning ozaytirma shakli. (3 soat)

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

#### **Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):**

##### **A2**

- mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni, tinglangan matndagi axborotni tushuna oladi;
- mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qiydi;
- so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini to'g'ri bayon qila oladi. 95-105 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza

oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

**A2+**

– soʻz va gaplarni bogʻlagan holda fikrini toʻgʻri, qisqa va ravon bayon qila oladi. 121-130 soʻzdan iborat diktantni yoza oladi, 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, matnda badiiy tasvir vositalaridan oʻrinli foydalana oladi;

– husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi.

**Lingvistik kompetensiya (fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika):**

**A2**

– soʻz tarkibi va soʻz yasallishini farqlay oladi;

– mustaqil soʻz turkumlari (feʼl, ot, sifat, son, ravish) ni izohlay oladi;

– mavzu doirasida gaplarni morfologik tahlil qila oladi, oʻrganilgan ifoda vositalaridan nutqda oʻrinli foydalana oladi.

**A2+**

– soʻz tarkibi va soʻz yasallishini farqlay oladi; mustaqil soʻz turkumlari (feʼl, ot, sifat, son, ravish) ni izohlay oladi;

– mavzu doirasida gaplarni morfologik tahlil qila oladi, oʻrganilgan ifoda vositalaridan nutqda oʻrinli foydalana oladi.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**95-96-mavzular.** Sifatning maʼno guruhlari. Xususiyat, hajm-oʻlchov, makon-zamon sifatleri. (2 soat)

**97-98-mavzular.** Rang-tus, maza-taʼm va hid bildiruvchi sifatlar. Sifatlarning otlashuvi. (2 soat)

**Mustahkamlash.** Sifatning umumiy belgilari va vazifalari boʻyicha tahlil. (1 soat)

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**99-100-mavzular.** Son. Ularning umumiy belgilari va vazifalari. Sonlarning maʼno guruhlari. (2 soat)

**101-102-mavzular.** Sanoq son. Dona son, uning yasallishi. (2 soat)

**103-105-mavzular.** Chama son, uning yasallishi. Jamlovchi son, uning yasallishi. Taqsim son, uning yasallishi. (3 soat)

**106-108-mavzular.** Kasr sonlar. Ularning yasallishi va imlosi. Hisob soʻzlari. Tartib sonlar. (3 soat)

**Mustahkamlash.** Son soʻz turkumining belgilari, maʼnoviy guruhlari, vazifalari boʻyicha tahlil. (2 soat)

**Nazorat ishi va tahlil. (3 soat)**

**109-110-mavzular.** Ravish. Ravishlarning yasallishi. Tub va yasama ravishlar. (2 soat, A2+:3 soat)

**111-112-mavzular.** Ravish yasovchi qoʻshimchalar. Ravishlarning maʼno turlari. (2 soat)

**113-114-mavzular.** Holat ravishlari. Payt ravishlari. (2 soat, A2+:3 soat)

**115-116-mavzular.** O‘rin ravishlari. Miqdor-daraja ravishlari. (2 soat)

**Nazorat ishi .(1 soat)**

**Takrorlash.** Fe‘l bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. Ot bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. Sifat, son, ravish bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. (3 soat, A2+:4 soat)

**117-mavzu.** Ish qog‘ozlari ustida ishlash. (1 soat).

**Takrorlash.** Testlar ustida ishlash. Yakuniy dars. (2 soat)

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):**

**A2**

– mashq va topshiriqlardagi voqea-hodisalarni, tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi axborotni tushuna oladi;

– mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib o‘qiydi;

– so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini to‘g‘ri va ravon bayon qila oladi. 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana oladi;

– 95-105 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi;

– ish qog‘ozlari (ariza, xat, tarjimai hol) ni yoza oladi.

**A2+**

– 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, bayonga reja (sodda) tuza oladi, matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana oladi;

– 121-130 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi;

– ish qog‘ozlari (ariza, xat, tarjimai hol) ni yoza oladi.

**Lingvistik kompetensiya (fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika):**

– so‘z tarkibi va so‘z yasalishini farqlay oladi;

– mustaqil so‘z turkumlari (fe‘l, ot, sifat, son, ravish)ni izohlay oladi;

– mavzu doirasida fonetik va leksik, gaplarni morfologik tahlil qila oladi, o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

**A2+**

– so‘z tarkibi va so‘z yasalishini farqlay oladi;

– mustaqil so‘z turkumlari (fe‘l, ot, sifat, son, ravish)ni izohlay oladi;

– mavzu doirasida fonetik va leksik, gaplarni morfologik tahlil qila oladi, o‘rganilgan ifoda vositalaridan nutqda o‘rinli foydalana oladi.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**Mavzularni o‘rganish uchun: 117 soat,- A2+: 144 soat**

**Takrorlash uchun: 10 soat**

**Mustahkamlash darslari uchun: 10 soat, A2+:17 soat**

**Nazorat ishlari uchun: 33 soat**  
**Jami: 170 soat, A2+: 204 soat**

## **NUTQ MADANIYATI YONDOSH O‘QUV DASTURI**

### **Muloqot uzvlari (a’zolari)**

**(9 soat)**

**1-3-mavzular.** O‘zaro suhbat uslubining vaqt, makon, vaziyat bilan bog‘liq holda o‘zgarib turishi. Nutqiy muloqot va unda jinsiy xoslanish. **(3 soat)**

**4-5-mavzular.** Muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchining o‘rni, vazifasi. **(2soat)**

**6-7-mavzular.** Muloqot jarayoniga ta’sir etuvchi vositalar. **(2soat)**

**8-9-mavzular.** Kattalar va kichiklar bilan muloqotning o‘ziga xos jihatlari. **(2 soat)**

### **Muloqot jarayonining bosqichlari**

**(11soat)**

**1-2-mavzular.** Muloqot jarayonining bosqichlari haqida ma’lumot. **(2 soat)**

**3-4-mavzular.** So‘zlovchi va tinglovchi muloqoti. **(2 soat)**

**5-6-mavzular.** Salomlashish va vaziyatga ko‘ra murojaat ko‘rinishlari. **(2 soat)**

**7-9-mavzular.** Murojaat bosqichi. Tanishishning milliy, hududiy va ijtimoiy xususiyatlari **(3 soat)**

**10-11-mavzular.** Xayrlashuv odobi va bosqichlarining o‘ziga xos tomonlari. **(2 soat)**

### **So‘zlash, tinglash va nutq madaniyati**

**(11 soat)**

**1-2-mavzular.** So‘zlash odobi. Matn ustida ishlash. **(2 soat)**

**3-5-mavzular.** Nutq vaziyatiga ko‘ra tinglash odobining turlari. **(3 soat)**

**6-8-mavzular.** Tinglash odobining nutq madaniyatida tutgan o‘rni. **(3 soat)**

**9-11-mavzular.** Nutq jarayonida sukutning o‘rni, nutq vaziyatida tinglash odobining turlari (e’tiborli va e’tiborsiz tinglash). **(3 soat)**

**Takrorlash. (3 soat)**

### **7-SINF**

**(102 soat, A2+ :136 soat)**

**(haftasiga 3 soat, A2+: 4 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

– eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

**A2+**

– axborot manbalaridan foydalanib, ma’lumotlarni o‘zaro almasha olish.

### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :**

**A2**

– doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

**A2+**

– o‘zining qobiliyatini namoyon qila olish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish.

**A2+**

– ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

**A2+**

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o‘zining fuqarolik burch hamda huquqlarini bilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

– aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

**A2+**

– fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish.

## **1-BO‘LIM. KIRISH. TAKRORLASH.**

**(8 soat, A2+: 1 soat)**

**1-mavzu.** Til va nutq. O‘zbek tili – boy tillardan biri. **(1 soat)**

**Takrorlash.** Fonetika bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. **(1 soat)**

Imlo bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. Qo‘shimchalar va ularning imlosi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. **(2 soat)**

Leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. Fe‘l so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash. **(2 soat)**



Ot, sifat soʻz turkumlari boʻyicha oʻtilganlarni takrorlash. Son va ravish soʻz turkumlari boʻyicha oʻtilganlarni takrorlash, matn va lugʻatlar bilan ishlash. (2 soat, A2+: 3 soat)

**Nazorat ishi. (1 soat)**

## **2-BOʻLIM. MATN**

**(2 soat, A2+:2 soat)**

**2-3-mavzular.** Matnda koʻp maʼnoli, maʼnodosh soʻzlardan foydalanish. Shakldosh, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlardan foydalanish. (2 soat, A2+:4 soat)

**Nazorat ishi. (1 soat)**

## **3-BOʻLIM. MUSTAQIL SOʻZ TURKUMLARI HAQIDA MAʼLUMOT**

**(13 soat, A2+: 8 soat)**

**4-5-mavzular.** Olmosh soʻz turkumi va uning tasnifi. Koʻrsatish olmoshlari. (2 soat)

**6-7-mavzular.** Koʻrsatish olmoshlarining talaffuzi va imlosi. Kishilik olmoshlari (2 soat, A2+: 4 soat)

**8-9-mavzular.** Oʻzlik olmoshi. Soʻroq olmoshlari. (2 soat)

**10-11-mavzular.** Belgilash olmoshlari. Gumon olmoshlari. (2 soat)

**12-13-mavzular.** Boʻlishsizlik olmoshlari. Olmoshlarning tuzilishiga koʻra turlari. (2 soat, A2+4 soat)

**14-15-mavzular.** Sodda va qoʻshma olmoshlar. Ularning imlosi. Juft va takroriy olmoshlar. Ularning imlosi. (2 soat, A2+:4 soat)

**Mustahkamlash.** Olmosh va uning tasnifi boʻyicha tahlil, matn bilan ishlash. (1 soat, A2+: 3 soat)

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

#### **Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, oʻqish, soʻzlash, yozish):**

##### **A2**

tinglangan matn, koʻrilgan lavhadagi voqea-hodisalarni tushuna oladi; matnlarni, soʻz, iboralarni maʼnosini anglagan holda toʻgʻri oʻqiy oladi; fikrini toʻgʻri bayon qila oladi, soʻz urgʻusini toʻgʻri qoʻya oladi; grammatik topshiriqli diktantni yoza oladi, husnixatga amal qiladi. 12-15 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

##### **A2+**

tinglangan matn, koʻrilgan lavhadagi voqea-hodisalarni tushuna oladi; matnlarni, soʻz, iboralarni maʼnosini anglagan holda toʻgʻri oʻqiy oladi; fikrini toʻgʻri bayon qila oladi, soʻz urgʻusini toʻgʻri qoʻya oladi; grammatik topshiriqli diktantni yoza oladi, husnixatga amal qiladi. 19-20 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga

amal qiladi.

**Lingvistik kompetensiya:**

**A2**

olmosh soʻz turkumi va uning maʼno turlarini izohlay oladi. Nutq ifodasida olmosh soʻz turkumidan oʻrinli foydalana oladi.

**A2+**

olmosh soʻz turkumi va uning maʼno turlarini izohlay oladi. Nutq ifodasida olmosh soʻz turkumidan oʻrinli foydalana oladi.

**Nazorat ishi (2soat)**

**4-BOʻLIM. SOʻZLARING MUNOSABAT SHAKLLARI**

**(17 soat, A2+: 10 soat)**

**16-17-mavzular.** Ismlarning munosabat shakllari. Ismlarning lugʻaviy va munosabat shakllari. Egalik shakllari va ularning imlosi. **(2 soat, A2+: 4 soat)**

**18-20-mavzular.** Sifatdosh va harakat nomlaridagi egalik qoʻshimchalari. Egalik qoʻshimchali soʻzlarning imlosi. **(3 soat, A2+:5 soat)**

**Mustahkamlash.** Ismlarning lugʻaviy va munosabat shakllari boʻyicha tahlil. **(1 soat, A2+: 2 soat)**

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**21-22-mavzular.** Kelishik shakllari. Bosh kelishik shakli. **(2 soat, A2+: 3 soat)**

**23-24-mavzular.** Qaratqich kelishigi shakli. Tushum kelishigi shakli. **(2 soat, A2+:4 soat)**

**25-26-mavzular.** Joʻnalish kelishigi shakli. Oʻrin-payt kelishigi shakli **(2 soat, A2+:3 soat)**

**27-28-mavzular.** Chiqish kelishigi shakli. Ismlarning kesimga xoslovchi shakllari. **(2 soat)**

**29-30-mavzular.** Yordamchi soʻzlar. Koʻmakchilar. **(2 soat)**

**Mustahkamlash.** Ismlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlaydigan qoʻshimchalar va ularning tasnifi boʻyicha tahlil. **(1 soat, A2+: 2 soat)**

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya: (tinglab tushunish, oʻqish, soʻzlash, yozish):**

**A2**

– oʻqituvchi nutqi, mashq va topshiriqlarni (audio matn) tinglab tushunadi;  
– matnda soʻz, iboralarni maʼnosini anglagan holda toʻgʻri oʻqiy oladi;  
– fikrini toʻgʻri bayon qila oladi; 105-125 ta soʻzdan iborat boʻlgan diktantni yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

**A2+**

– 131-140 ta soʻzdan iborat boʻlgan diktantni yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

### **Lingvistik kompetensiya:**

#### **A2**

– ismlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlaydigan qoʻshimchalar va ularning tasnifi boʻyicha tahlil qila oladi.

#### **A2+**

– ismlarni boshqa soʻzlarga tobelantirib bogʻlaydigan qoʻshimchalar va ularning tasnifi boʻyicha morfologik tahlil qila oladi.

### **Nazorat ishi va tahlil (3soat)**

## **5-BOʻLIM. YORDAMCHI SOʻZ TURKUMLARI**

**(47 soat, A2+:13 soat)**

**31-32-mavzular.** Sof koʻmakchilar. Vazifadosh koʻmakchilar. **(2soat)**

**33-35-mavzular.** Koʻmakchilarning maʼno turlari. Koʻmakchilar va qoʻshimchalar maʼnodoshligi. Koʻmakchilar bilan birga kelgan soʻzlarning shakllari. **(3 soat, A2+:5 soat)**

**Mustahkamlash.** Koʻmakchi va ularning turlari boʻyicha tahlil. **(1 soat)**

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**36-37-mavzular.** Bogʻlovchilar. Bogʻlovchilarning vazifasiga koʻra turlari. **(2 soat)**

**38-39-mavzular.** Teng bogʻlovchilar. Sof va vazifadosh bogʻlovchilar. **(2 soat, A2+:3 soat)**

**40-43-mavzular.** Biriktiruv bogʻlovchilar. Ayiruv bogʻlovchilari. **(2soat)**

Zidlov bogʻlovchilari. Inkor bogʻlovchisi. **(2 soat)**

**44-45-mavzular.** Yakka va takror bogʻlovchilar. Ergashtiruvchi bogʻlovchilar. **(2 soat, A2+:4 soat)**

**46-48-mavzular** Sabab bogʻlovchilari. Aniqlov bogʻlovchisi. Shart bogʻlovchilari. **(3 soat, A2+:5 soat)**

**Mustahkamlash.** Teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilar boʻyicha tahlil. **(1 soat)**

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**49-50-mavzular.** Yuklama haqida maʼlumot. Sof va vazifadosh yuklamalar **(2soat, A2+:3 soat).**

**51-52-mavzular.** Soʻroq va taajjub yuklamalari. Ayiruv va chegaralov yuklamalari. **(2 soat)**

**53-54-mavzular.** Kuchaytiruv va taʼkid yuklamalari. Oʻxshatish va qiyoslash yuklamalari. **(2 soat)**

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish):**

**A2**

tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna oladi; matnlarni, so‘z, iboralarni ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri o‘qiy oladi; fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, talaffuzda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yadi. 12-15 gapdan iborat ijodiy matn yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

**A2+**

fikrini to‘g‘ri bayon qila oladi, talaffuzda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yadi. 19-20 gapdan iborat ijodiy matn yoza oladi, imlo, tinish belgilari qoidalariga amal qiladi.

**Lingvistik kompetensiya:**

**A2**

nutq ifodasida olmosh va yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)dan o‘rinli foydalanadi.

**A2+**

nutq ifodasida olmosh va yordamchi so‘z turkumlari (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama)dan o‘rinli foydalanadi.

**Nazorat ishi. (1 soat)**

**55-57-mavzular.** Gumon va inkor yuklamalari. Undov so‘zlar. His-hayajon undovlari. **(3 soat, A2+: 4 soat)**

**58-60-mavzular.** Buyruq-xitob undovlari. Taqlid so‘zlar. Taqlid so‘zlarning tuzilishi va imlosi. **(3 soat, A2+:4 soat)**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiy ta’lim sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi. O‘quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.

O‘quvchilar turli davr va mamlakatlarda, turlicha dunyoqarash va e’tiqodlarni aks ettirgan badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan oddiydan murakkabga tamoyiliga asosan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va insonlar tabiatining rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlar shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo‘lgan barcha hodisalarga emotsional (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko‘tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adabiy ta’limni o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi:

**Boshlang‘ich sinflarda** adabiy ta’lim adabiy o‘qishlar tarzida o‘rgatiladi. Bola o‘qish texnikasini egallashi uchun, avvalo, uning savodxonlik darajasi shakllantiriladi, og‘zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish o‘rgatiladi.

Dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qitilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich – o‘qish tezligi, ravon o‘qiy olish, bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to‘liq uqib olishi qayta hikoya qilish, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida** yozuvchi tarjimai holi va adabiy asarni sinfda o‘qish, o‘rganish bilan birga, asarlarni mustaqil o‘rganish va sinfdan tashqari o‘qishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bu yerda mavzuviylikka, syujetlilikka nisbatan ko‘proq ahamiyat beriladi. O‘quvchilarning ijodiy o‘y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o‘rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to‘la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlr) ko‘lamida o‘rganiladi.

Uzviylik va uzluksizlik dastur tayangan asosiy tayanch nuqtalaridan biridir. Ayrim soʻz ustalari nomlarining takrorlanishi ularning eʼtiroflari, shuningdek, asarlaridagi yuksak badiiy-estetik gʻoyalarning sanʼatkorona ifodalariga bogʻliqligini alohida taʼkidlash joiz.

Albatta, buncha katta davrdagi adabiy jarayonning barcha mavzulari istisnosiz tarzda oʻrganilmaydi. Balki ular tegishli pedagogik-didaktik talablar doirasida saralanib oʻrganiladi. Bunda asosiy gʻoyalar quyidagilardan iborat:

- asosiy urgʻu yuksak badiiylik talabalariga toʻla javob beradigan asarlarga qaratiladi;

- ushbu bosqichda mumkin boʻlgan darajada adabiy-estetik xususiyatlariga koʻra oldingi bosqichlarda takrorlanmaydigan ijodkorlar va badiiy asarlar tanlab olinadi;

- ularni oʻrganishda ekstensiv emas, balki intensiv usulga ustuvorlik beriladi.

Bunda asarlarning miqdorini nisbatan kamroq qilib, har bir asarni oʻrganishga ajratilgan vaqt imkoniyatini koʻpaytirishga harakat qilingan.

Bu har bir asarning oʻziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish imkonini tugʻdiradi, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va soʻzlarning qoʻllanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy soʻz poetikasi va b.)ni teranroq ilgʻash uchun sharoit yaratadi, asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining oʻziga xosliklari bilan yaqindan tanishishga imkon beradi.

Dasturda alohida olingan nisbatan “qiyinroq” va “murakkabroq” asarlarning bevosita tarixiy-adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan aloqadorlikdagi tahlilining koʻzda tutilganligi oʻquvchilarning umumiy adabiy jarayon haqidagi yaxlit va nisbatan tizimli tasavvurlarining shakllanishiga imkon beradi.

Taʼlimning turli bosqichlarida oʻrganish uchun saralab olingan asarlarga qoʻyiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yoʻnalishi, oʻquvchi shaxsining yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda uning kamoloti uchun koʻrsata oladigan ijobiy taʼsiri, milliy va umuminsoniy gʻoyalarga uygʻunligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan oʻrni singari belgilar asos qilib olinadi.

Chuqurlashtirilgan maktab (sinf)larda adabiyot fanini kengroq oʻrganish maqsadida oʻquv dasturida qoʻshimcha ikki soat vaqt ajratilgan. Bu ikki soatning bir soati (34 soat) oddiy sinflar (A2) uchun tuzilgan oʻquv dasturi mavzulari tarkibida berildi, yaʼni 5-sinfda A2: 102 soat; A2+: 136 soat davomida oʻrganiladi. Ajratilgan ikkinchi soatda esa, 5-6-sinflarda “Ifodali oʻqish”, 7-9-sinflarda esa, “Notiqlik sanʼati” yondosh dasturlari oʻrganiladi.

Badiiy asarlarni oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi nazarda tutiladi.

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lugʻat, maʼlumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va oʻz faoliyatida qoʻllay olish.

#### **A2+**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, kitob, lugʻat, maʼlumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur boʻlgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini taʼminlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

### **Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

shaxs sifatida maʼnaviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-maʼnaviy ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni eʼzozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam oʻqish va oʻrganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

oʻz xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, oʻzini nazorat qila bilish, ogʻzaki va yozma matnlar mazmuniga toʻgʻri baho bera olish.

#### **A2+**

badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, sanʼat va boshqalarga doir kitoblarni muntazam oʻqish, oʻrganish va xulosa chiqarish, tegishli holatlarda ulardan oʻz fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

jamiyatda boʻlayotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yoʻnalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi koʻrik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada boʻlish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va koʻrinishlarda namoyon boʻladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-maʼnaviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi oʻziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

#### **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan yuksak maʼnaviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

## **A2**

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglash, ulardan ta'sirlanish, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

## **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay olish hamda tushuntirib bera olish.

## **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

### **A2**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

### **A2+**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'la olish hamda ulardan foydalana olish.

Ta'kidlash joizki, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

### **I. TK-tayanch kompetensiya**

7. TK1-kommunikativ kompetensiya
8. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
9. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
10. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
11. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya
12. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

### **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

3. FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish)
4. FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

## **5- SINF**

**(102 soat, haftasiga 3 soat, A2+: 136 soat)**



## **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

kutubxonalardan qiziqarli badiiy kitoblarni topa olish, ulardan foydalanish.

**A2+**

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, ulardan foydalanish.

### **O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish.

**A2+**

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy qadriyatlarni tushunish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarda faol ishtirok etish.

**A2+**

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalarda faol ishtirok etish, atrofda insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

vatanni sevish, tengdoshlari va boshqa insonlar bilan xushmuomalada bo'lish.

**A2+**

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

kundalik faoliyatda turli chizmalarni o'qiy olish.

**A2+**

har kuni bajaradigan ishlarining oddiy rejasini tuza olish.

### **1-mavzu. Kirish. Adabiyot - so'z san'ati. (1 soat)**

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning estetik, tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyati. Badiiy so'z qudrati. So'zning ifoda imkoniyatlari. So'z orqali inson ruhiy olami, his-tuyg'ulari hamda tabiat manzaralarining tasvirlanishi. Badiiy adabiyotning turlari. Mumtoz hamda zamonaviy shoir va yozuvchilar, folklor asarlari misolida adabiyotning so'z san'ati ekanligi.

## I. HIKMAT DURDONALARI

(6 soat, A2+: 4 soat)

### **2-3-mavzu. Maqollar. (2 soat)**

Maqollar xalq og‘zaki adabiyoti namunasi sifatida. Maqollarda xalq milliy tafakkurining aks etishi. Maqollarning shakliiy tuzilishi, ularga xos qisqalik, ta’sirchanlik, teranlik kabi xususiyatlar haqida ma’lumot. Maqollarning kishilarni ezgu insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash vositasi ekanligi. Maqollarning mavzu doirasi. Vatanparvarlik, do‘stlik, ilm va kasb-hunar, oila, odob, tarbiya haqidagi maqollar.

Xalq og‘zaki ijodi tushunchasi.

### **4-mavzu. Topishmoqlar. (1 soat, A2+:2 soat)**

Topishmoq xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri sifatida. Topishmoqlarda inson va uni o‘rab olgan olamning o‘xshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanganligi. Ularning shakliiy tuzilishi. Topishmoqlarning savol va javob qismlari bilan birgalikda bir butun asarni tashkil etganligi.

### **5-7-mavzu. Ezop. “Yovvoyi echkilar”, “Kiyik bilan tokzor”, “Bo‘ri bilan laylak”, “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallari. (3 soat)**

Qadimgi yunon masalchisi Ezop hayoti to‘g‘risidagi rivoyatlar. Ezop masallarining insoniyat ma’naviyati, ma’rifiy tafakkuridagi o‘rni. Masallarda ezgulik, saxiylik, olijanoblik singari g‘oyalarning ilgari surilgani.

“Yovvoyi echkilar”, “Kiyik bilan tokzor”, “Bo‘ri bilan laylak”, “Eshak bilan baqalar”, “Ustiga tuz yuklangan eshak”, “Burgut, zag‘cha va cho‘pon” masallarida do‘stga sadoqat, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish, do‘st-dushmanning kimligini farqlash lozimligi, boshqa hayotiy masalalarning ramziy obrazlar orqali talqin etilishi.

Masalchilikning shakllanishi va taraqqiyotida Ezop ijodining ahamiyati. Ezop masallarining tarbiyaviy roli. Nazariy ma’lumot. Masal haqida tushuncha.

### **Mavzu. Abdurahmon Jomiy. Hikoyatlar. (A2+: 3 soat)**

Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Bahoriston”dagi ayrim hikoyatlar tahlili. Ularda mardlik, to‘g‘rilik, kamtarlik, kamso‘zlik, donolikning ulug‘lanishi. “Abulhasan Qushanjiy”, “Yusuf ibn Husan Roziy”, “Iskandar Rumiy jahongirlik davrida”, “Iskandardan so‘rganlarida...” hikoyatlarining tahlili.

### **O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

O‘zbek xalq maqollaridan 10 tadan yod olish.

Topishmoqlardan 10 tadan yod olish.

Ezop masallarini o‘qish.

## **II. ERTAKLAR OLAMIDA**

**(19 soat, A2+: 7 soat)**

### **8-10-mavzu. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi. (3 soat)**

Ertak xalq og‘zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri sifatida. O‘zbek xalq ertaklarining o‘ziga xos xususiyatlari. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining betakror badiiy olami. Unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo‘lishi. Botirlarga xos ezgu ma’naviy sifatlarning namoyon bo‘lishi.

### **11-13-mavzu. “Susambil” ertagi. (3 soat)**

Ertakdagi jonivorlar obrazining mohiyati. Susambil adolat qaror topgan va hamma baxtli yashaydigan afsonaviy yurtning timsoli sifatida. Ertakdagi til, ramz va badiiy ifoda xususiyatlari.

Ertak haqida tushuncha.

### **Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

### **14-15-mavzu. M. Shayxzoda. “Iskandar Zulqarnayn” dostoni. (2 soat)**

Shayxzodaning hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha annotatsiya.

XX asr o‘zbek shoirlari ijodida she‘riy ertak-dostonlar yaratish tajribasi. “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni, asarda Iskandarning ikki shoxi borligi haqidagi rivoyat va uning o‘ziga xos talqini. Iskandar, Sartarosh va Cho‘pon obrazlari. Pinhon tutilgan mudhish sir va uning Cho‘pon yasagan nay orqali oshkor bo‘lishi. Nayning ramziy mohiyati. Dostondagi rivoyatdan chiqadigan muhim saboq-tarixda pinhon tutilgan qabih ishlarning yopiqligicha qolib ketmasligi, baribir qachondir oshkor bo‘lishi muqarrar ekanligi. Dostonning badiiy xususiyatlari.

### **16-18-mavzu. Hamid Olimjon. “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni. (3 soat)**

Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Uning “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni syujeti va obrazlar tasviridagi o‘ziga xoslik. Dostondagi asosiy qahramonlar. Dostonda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash tasviri. Asarning badiiy xususiyatlari. Asar tilining sodda va ravonligi.

Adabiy ertak haqida tushuncha

### **19-20-mavzu. Shukrullo. “Umr haqida ertak”. (2 soat)**

Shukrulloning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Uning “Umr haqida ertak” asarining syujeti va obrazlar tasviridagi o‘ziga xoslik. She‘riy ertakdagi asosiy qahramon. Ertakdagi ezgulik tasviri. Asarning badiiy xususiyatlari. Asar tilining sodda va ravonligi.

### **Mavzu. “Ota vasiyati” ertagi. (A2+: 2 soat)**

Ertakning syujeti va kompozitsiyasi. Uning asosiy qahramonlari. Ota va o‘g‘illar: ikki katta akadagi manfaatparastlik, ochko‘zlik va xudbinlikning qoralanishi. Kenja o‘g‘il qiyofasida otalar o‘gitiga sadoqat, mehribonlik, mardlik, tantilik xislatlarining ulug‘lanishi. Ertakdagi sehrli vositalar obrazi. Ertakning asosiy g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari. Ertak qahramonlarining o‘ziga xosligini ko‘rsatishda dialogning o‘rni.

**Nazariy ma’lumot:** Sehrli ertaklar.

**Mavzu. A.S. Pushkin. “Shoh Saltan haqida ertak”. (A2+: 3 soat)**

Ijodkor haqida qisqacha ma’lumot. Ertakda mehr va mehirsizlik, yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va egrilik hamda ularning oqibati qanday natijaga olib kelganligi. Yaxshilik va ezgulik tantanasining ertakda mahorat bilan ifodalanganligi.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

ertak va masallar asosida ishlangan videotasvir va filmlarni ko‘rib, tinglab tushuna oladi;

maqol, topishmoq, masal va ertak namunalarini o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

masal va ertaklar syujetini qayta hikoya qila oladi.

**A2+**

ifodali o‘qishda to‘g‘ri nafas olish, to‘xtamning ahamiyatini tushuna oladi;

mustaqil o‘qilgan asarlarning syujetini qayta hikoya qila oladi.

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

masal va ertaklarda tasvirlangan voqea-hodisalarni o‘qituvchi yordamida izohlay oladi;

asar qahramonlariga xos bo‘lgan fazilatlarni tushuntira oladi;

asar qahramonlarining nuqsonlarini matnga tayangan holda izohlay oladi.

**A2+**

o‘rganilgan asar qahramonlari va ularga xos yaxshi-yomon sifatlarni aytib bera oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**21-23-mavzu. Aka-uka Grimmlar. “Botir tikuvchi” ertagi. (3 soat)**

Ertakchi aka-uka Grimmlar haqida qisqacha ma'lumot.

Ertakda ezgulikning tasvirlanishi. Ertak qahramonlari o'rtasidagi munosabatlar va ulardagi zukkolik, uddaburonlik, dovyuraklik va boshqa o'ziga xos sifatlarning ifodalanishi. Ertakchi-yozuvchilarning mahorati.

**24-26-mavzu. Hans Xristian Andersen. “Bulbul” ertagi. (3 soat)**

Ertakchi-yozuvchi haqida qisqacha ma'lumot.

“Bulbul” ertagida ezgulik va yomonlik o'rtasidagi kurashning ifodalanishi. Ertakdagi qahramonlar obrazi va ular o'rtasidagi munosabatlar tasviri. Unda sun'iy va tabiiy ijodkorlik g'oyasining aks etishi. Ertakda ezgulik va go'zallikning buyuk yaratuvchi kuch sifatida ulug'lanishi. Ertakning badiiy o'ziga xosligi, uning qiziqarliligini ta'minlagan omillar.

**Nazorat ishi. Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

O'zbek xalq ertaklari.

Hamid Olimjon. Ertak-dostonlari.

M.Shayxzoda. Dostonlar.

Aka-uka Grimmlar. Ertaklar.

Hans Xristian Andersen. Ertaklar.

### **III. BOLALIKNING BEG'UBOR OLAMI**

**(22 soat, A2+:9 soat)**

**27-29-mavzu. Abdulla Qodiriy. “Uloqda” hikoyasi. (3 soat)**

Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Uloqda” hikoyasining XX asr boshlaridagi o'zbek xalqi hayotidan olinganligi. Hikoyaning g'oyaviy mazmuni. Hikoyadagi obrazlar. Asar voqealari tasvirining hikoyachi bola tilidan, uning dunyoqarashi orqali berilishi. Tasvirda badiiy joziba va samimiylikka erishilganligi. Asarda adib yashagan tarixiy muhit tasviri. Hikoyada o'zbek bolalariga xos jihatlarning aks ettirilishi. Hikoyaning badiiy xususiyatlari.

**30-32-mavzu. Oybek. “Fonarchi ota”, “Bolaning ko'ngli podsho” hikoyalari . “Bolalik xotiralarim” qissasi. (3 soat, A2+:4 soat)**

Yozuvchining hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Fonarchi ota” hikoyasida otaning olijanob insoniy fazilatlari va bolalar sho'xliklarining haqqoniy ifodalanganligi. Bolalarning fanorchi otaga bo'lgan munosabatlarining o'zgarib borishi va bu holning yozuvchi tomonidan katta mahorat bilan ifodalanishi.

“Bolalik xotiralarim” qissasida adibning bolalik va o‘smirlik davrining ifodalanishi. Qissadan olingan “Bolaning ko‘ngli podsho” parchasida o‘tgan asr boshlarida yashagan bola va bobo obrazlarining haqqoniy tasviri.

Hikoyalarning estetik-tarbiyaviy ahamiyati.

**33-37-mavzu. Mirkarim Osim. “Zulmat ichra nur” qissasidan parcha. “Yoshlik ayyomining ilk bahori”. (5 soat)**

M. Osim tarixiy qissalar muallifi sifatida qisqacha ma’lumot. Yozuvchi ijodida Navoiy mavzusining yetakchilik qilishi (1soat).

“Zulmat ichra nur” qissasidagi “Yoshlik ayyomining ilk bahori” (2 soat).

“Yazd cho‘li” deb nomlangan lavhalarda Alisherning bolalik chog‘lariga oid ibratli voqealarning tasviri. Undagi kitobga bo‘lgan muhabbat, xayolot olamining kengligi, teranligi. Hikoyalarning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati (2 soat).

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

#### **A2**

o‘rganilgan asarlar asosida ishlangan videotasvir va filmlarni ko‘rib, tinglab tushuna oladi;

asarlarni ifodali o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi va qayta hikoya qila oladi;

ular asosida kichik insho yoza oladi.

#### **A2+**

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, turli janrdagi adabiyotlarni tanlab mutolaa qiladi;

ifodali o‘qishda ritm, tembr va urg‘uning ahamiyatini tushuna oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

#### **A2**

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotidan berilgan asarlarni farqlay oladi.

#### **A2+**

o‘rganilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlarini o‘qituvchi yordamida izohlab bera oladi.

**Nazorat ishi. Insho va tahlil. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**38-41-mavzu. O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” qissasi. (4 soat, A2+: 6 soat)**

O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Dunyoning ishlari” qissasidan olingan boblarda ona, o‘g‘il va boshqa obrazlarning jonli tasvir etilgani. Qissaning “Alla”, “Iltijo” boblarida insonning Ona oldidagi farzandlik burchining, hech qachon to‘lab bo‘lmas qarzning ta’sirchan ifodalangani. Onani qo‘msash, uni sog‘inish, uning hech kim bilan almashtirib bo‘lmaydigan mehri oldida qarzdorlik tuyg‘usining ifodalanishi (2 soat).

“Oq, oydin kechalar”, “Tush”, “Gilam paypoq” fasllarida Ona qalbidagi cheksiz mehr-muhabbat tuyg‘usining samimiy ifodasi. Asarning badiiy xususiyatlari (2 soat).

**42-44-mavzu. Herman Hessening “Oy shu’lasi (Bo‘ri)” hikoyasi. (3 soat)**

Yozuvchi haqida qisqacha ma’lumot.

Uning “Oy shu’lasida” hikoyasida qishloq odamlarining o‘z ovullariga oralagan bo‘riga qarshi kurashganlarining tasvirlanishi. Asarning tabiat va inson o‘rtasidagi yo‘qolib borayotgan muvozanat haqida fikrlashga undashi.

**45-48-mavzu. Daniel Defo. “Robinzon Kruzo” asaridan parcha. (4 soat, A2+: 6 soat)**

Adib haqida qisqacha ma’lumot. Asardan olingan parchada qiziqarli sayohat voqealari har doim ham ko‘ngilli tugamasligi, lekin insonning matonati har qanday tashvishni yengib o‘tishining ishonarli tasvirlanganligi (2 soat).

Asar qahramonining o‘ziga xos insoniy sifatlari, bukilmas irodasi, yashashga nisbatan ishonchining so‘nmasligi. Asarning badiiy xususiyatlari (2 soat).

**Hamza Hakimzoda Niyoziy. She’rlar. (A2+: 2 soat)**

Shoir haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’rlarida yolg‘on bilan rost o‘rtasidagi farqning ko‘rsatilishi. Yolg‘onchi albatta o‘z jazosini olishi muqarrarligi tasviri. “Mevalar mojarosi” she’rida kibrning ramziy timsollarda ifodalanishi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

Abdulla Qodiriy. Hikoyalar.

Oybek. “Bolalik xotiralarim” qissasi.

Mirkarim Osim. “Zulmat ichra nur” qissasi.

O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” asari.

Herman Hesse. Hikoyalar.

Daniel Defo. “Robinzon Kruzo” asari.

## IV. MUMTOZ ADABIYOT BO‘STONI

(12 soat, A2+: 5 soat)

**49-53-mavzu. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dostoni. (5 soat, A2+:6 soat).**

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

“Hayrat ul-abror” dostonidan olingan “O‘ninchi maqolot”da to‘g‘rilikning qanchalar azob bilan bo‘lsa-da, g‘olib kelishi, yolg‘on va egrilikning oxir-oqibat yengilishining tasvirlanishi (2 soat).

Buning Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilgani. “Sher bilan Durroj” asari matnining o‘quvchilar tomonidan o‘qilishini ta‘minlash (2 soat)

Hikoyatlarning ramziy ma‘nosi. Inson ma‘naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlari (1 soat).

**54-57-mavzu. Bobur. Ruboiylar. (4 soat , A2+: 5 soat)**

Boburning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

Bobur – ruboiynavis. Shoirning “Har kimki vafu qilsa...”, “Kim yor anga ilm tolibi...”, “Ko‘pdin berikim...”, “Tole yo‘qi jonimg‘a...” ruboiylariga xos xususiyatlar. Ruboiylarda muallif hayoti, shaxsiyati, kechinmalari, orzulari, armonlari va ularning betakror tarzda tasvir etilgani. Ruboiylarda shoirga xos samimiyat va rostgo‘ylikning aks etishi (2 soat).

Shoirning “Ko‘rdum”, “Kishi” radifli ruboiylarida hayot haqiqatining aks etishi. “Ko‘ngli tilagan murodig‘a...”, “Tole yo‘qi...” va boshqa ruboiylarida Bobur tarjimai holiga doir unsurlarning yaqqol namoyon bo‘lishi (2 soat).

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**58-60-mavzu. Sa‘diy Sheroziy. “Guliston” asari. (3 soat, A2+:4 soat)**

Sa‘diy Sheroziy haqida qisqacha ma‘lumot.

“Guliston” asarining badiiy-ma‘rifiy xususiyatlari. “Guliston” – o‘zbek tarjima adabiyotining yetuk namunasi sifatida.

Sa‘diy hikoyatlarida ta‘lim-tarbiya masalasining hal qiluvchi masala sifatida qo‘yilishi. Ularda to‘g‘riso‘z, qanoatli, mehnatkash, halol kishilar taqdirining aks ettirilishi. Dostondagi she‘riy lavhalar va hikoyatlarning hayotiy-didaktik asosi. Dostonning o‘zbek adabiyoti rivojidagi ahamiyati.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

badiiy asarlar asosidagi audiomatn, videotasvir va filmlarni ko‘rib, tinglab tushuna oladi;



nasriy va she'riy asarlarni ifodali o'qiy oladi;  
ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;  
badiiy asarlar syujetini qayta hikoya qila oladi;  
ular asosida kichik insho yoza oladi.

**A2+**

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi;

ifodali o'qishda to'g'ri nafas olish, to'xtam, ritm, tembr va urg'uning ahamiyatini tushuna oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi**

**A2**

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlarini tushuntira oladi.

**A2+**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotidan o'rganilgan asar qahramonlarini farqlay oladi va ularga xos sifatlarni aytib bera oladi.

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Takrorlash: (1soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlar.

Boburning "Har kimki vafo qilsa...", "Kim yor anga ilm tolibi..." ruboiylari.

Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asari.

## **V. VATANNI SEVMOQ IYMONDANDIR**

**(14 soat, A2+: 9 soat)**

**61-62-mavzu. Abdulla Avloniy. "Vatanni suymak" ("Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan) lavhasi, "Vatan" she'ri. (2 soat)**

Abdulla Avloniy hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

"Turkiy Guliston"dagi she'riy va nasriy lavhalarda Avloniyning go'zal odob-axloqqa, yaxshilikka mayl, yomonlikdan hazar, el-yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ularining ifoda qilinganligi. "Vatanni suymak" asarida inson tug'ilib o'sgan zaminning qadr-qimmatini sodda bir uslubda tushuntirib berganligi. Bu g'oyaning Vatan haqidagi nasriy lavha pafosi bilan uyg'unligi.

**63-65-mavzu. Erkin Vohidov. "Nido" dostoni. (3 soat, A2+: 4 soat)**

Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Nido" dostonida insoniyat boshiga tushgan falokat – Ikkinchi jahon urushi

keltirgan balolarning murg'ak o'smir taqdirida qoldirgan izning aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g'oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Doston nomining ramziyligi.

**66-68-mavzu. Abdulla Oripov. "O'zbekiston" she'ri. (3 soat, A2+: 4 soat)**

A. Oripov hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"O'zbekiston" qasidasida ona yurt o'tmishining g'oyat ta'sirli va millat tarixi bilan uyg'un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni ulug'lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo'lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. Qasidaning badiiy xususiyatlari. Ifodali o'qish mashqi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**69-71-mavzu. Anvar Obidjon. She'rlar. (3soat)**

Anvar Obidjon hayoti va ijod haqida qisqacha ma'lumot.

Shoirning she'riy to'plamlari. "Hayotning har lahzasi go'zal", "Vatanjon", "Tinch kun", "Yer" nomli she'rlaridagi samimiy tuyg'ular ifodasi. She'rlarning badiiy xususiyatlari, tasvir vositalari.

**72-74-mavzu. Nodar Dumbadze. "Hellados" hikoyasi. (3 soat, A2+:5 soat)**

Gruzin adibi Nodar Dumbadzening hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Adibning qator roman, qissa va hikoyalarining o'zbek tiliga tarjima etilganligi. "Hellados" hikoyasida bolalar hayoti, ular orasidagi murakkab munosabatlar tasviri. Asardagi vatanparvarlik tuyg'usining o'ziga xos tarzda ifoda etilishi.

Asardagi voqealar rivoji va undagi qahramonlar tasviri. Yanguli va Jamol timsollari. Ularning o'xshash va farqli jihatlari tasviri. Bu timsollarning xarakter darajasiga ko'tarilganligi. Yanguli tabiatida jangarilik, olijanoblik hamda vatansevarlik tuyg'ularining mavjudligi.

**Mavzu. Hamza Imonberdiev. "Ohu", "Sehrli mehr" she'rlari. (A2+:3 soat)**

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Uning she'rida go'zallik va ezgulik timsoli bo'lmish ohuning hayotiga tahdid etib, uni qasoskorga aylantirgan odamlar va jonivorlar munosabati tasviri. She'rlarning o'ta samimiy va ishonarli tasvirlanganligi.

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

badiiy asarlar asosidagi audiomatn, videotasvir va filmlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;

badiiy asarlarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta hikoyalay oladi;  
o‘rganilgan asarlar asosida kichik insho yoza oladi;  
masal va ertak qahramonlari haqida kichik insho (1-2 sahifa) yoza oladi;  
turli janr va hajmdagi 2-4 ta she‘riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

**A2+**

she‘riy va nasriy nutq xususiyatlarini ifodali o‘qishda aks ettira oladi;  
turli janr va hajmdagi 3-4 ta she‘riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlarini o‘qituvchi yordamida izohlay oladi.

**A2+**

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og‘zaki tarzda qisqacha tavsif bera oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

Abdulla Avloniyning “Vatan” she‘ri.

Abdulla Oripov. “O‘zbekiston” she‘ri.

Erkin Vohidov. “Nido” dostonidan parcha.

Nodar Dumbadze. “Hellados” hikoyasi.

**Mavzularni o‘rganish uchun – 74 soat (A2+: 100 soat).**

**Nazorat ishlari uchun – 20 soat (A2+: 24 soat).**

**Takrorlash uchun – 4 soat.**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat).**

**Jami: 102 soat, A2+: 136 soat**

**Ifodali o‘qish (Yondosh dastur)**

**(A2+:34 soat)**

**Mavzu. Kirish. Ifodali o‘qish san’ati. (1 soat)**

Ifodali o‘qishning san’at ekanligi. Uning asar mazmunini tushunishdagi, badiiy xususiyatlarini ochishdagi ahamiyati.

Badiiy asarni ifodali o‘qish, avvalo, muallifning ruhiyatini, hissiyotini aks ettirish ekanligi. Ifodali o‘qishning asar mohiyati, uning tagma’nolarini tushunishga yordam berishi, inson hissiyoti, tuyg‘ularini bezovta qilish hamda ma’naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

**Mavzu. Nafas olish mashqlari. (2 soat)**

Nafas olish ifodali o‘qishning asosi ekanligi. Alohida olingan tovushlar talaffuzi. Tez aytishlarda nafas olishning o‘ziga xos xususiyatlari.

**Mavzu. Orfoepik qoidalar va ularning amaliyoti. (2 soat)**

Ertaklarni ifodali o‘qish. Aka-uka Grimmlarning “Tulki bilan g‘ozlar” asari matni ustida ishlash.

**Mavzu. She’rlarni ifodali o‘qish mashqi. (1soat)**

She’riy matnlarni ifodali o‘qishning insonga estetik zavq berishi, tuyg‘ularini, hissiyotlarini nafislashtirishdagi ahamiyati. “Ko‘pdin berikim...” (Zahiriddin Muhammad Bobur).

**Mavzu. Intonatsiya haqida umumiy ma’lumot (1 soat).**

Intonatsiyaning fikr va tuyg‘ular ifodasidagi o‘rni hamda ahamiyati. “O‘zbekiston” she’ridan parcha. (Abdulla Oripov.) “Yaxshiyamki, bu yurtning...” (Anvar Obidjon), “Muallim” (Ikrom Otamurod), “Antonim” (Kavsar Turdieva).

**Mavzu. To‘xtam (pauza) (2 soat).** Uning rang-barang ko‘rinishlari, vazifasi va ahamiyati.

**Mavzu. Dialog. (1 soat)** Dialogning ikki va undan ortiq kishining suhbat ekanligi. Har bir ishtirokchidagi o‘ziga xoslikning nutqiy jarayonda namoyon bo‘lishi. “Onalik mehri” (S.Vohidov); “Hoshimjon” (X.To‘xtaboyev).

**Mavzu. Nutq sur’ati va ritmi. So‘z urg‘usi. Mantiqiy urg‘u. (2 soat)**

Nutq sur’atining mazmun bilan aloqadorligi. Urg‘u ifodali o‘qishning asosiy vositalaridan ekanligi. O‘zbek tilida urg‘uning vazifasi ancha kengayganligi. Uning ma’noni farqlashdagi, kuchaytirishdagi ahamiyati. So‘z urg‘usi va mantiqiy urg‘u, ularning farqi. “Ota o‘giti” (Anvar Obidjon), “Mulla Muhammad Rajabbek va Anvar” (Abdulla Qodiriy), “Gapning joni” (Tolib Yo‘ldosh).

**Mavzu. Nutq va tovush rang-barangligi (tembr). (1 soat)**

Turli ma’no nozikliklarining tovush rang-barangligi orqali aks etishining ahamiyati.

Badiiy asarlarni ifodali o‘qish. “Ot bilan it”. (I.A.Krilov), “Binafsha” (Zafar Diyor), ”Ona duosi” (Yo‘ldosh Eshbek).

**Mavzu. Tez aytishlar. Ularning o‘qilishi va aytilishi. (1 soat)**

Tez aytishlarni ifodali o‘qish o‘quvchi nitqini rivojlantirish va lug‘at boyligini oshirish omili ekanligi.

**Mavzu. Nasriy asarlarni ifodali o‘qish. Maqol va rivoyatlarni ifodali o‘qish. (2 soat)**

Ifodali o‘qishning nasriy matnlarni chuqurroq tushunish, ma’nolarni teran anglash va badiiy zavq olish vositasi ekanligi. (O‘zbek xalq maqollari. Maqollarning tuzilishi, tarkibi, mavzu doirasi.) “Navoiy bilan cho‘pon.”

**Takrorlash: (1 soat).**

**Ifodali o‘qish mashqi: (1 soat)**

**Mavzu. Topishmoqlarni ifodali o‘qish. (1 soat)**

Bolalar uchun topishmoqlar. “Adabiy topishmoq” (Abdurahmon Akbar).

**Mavzu. “Husniyabonu”, “Podshoh va to‘ti”, “Qizil shapkacha” ertaklarini ifodali o‘qish. (2 soat)**

Ertaklarni ifodali o‘qish o‘quvchining dunyoqarashi, olam, tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirish vositasi ekanligi.

**Mavzu. Notanish matn bilan tanishish, uni ifodali o‘qish yo‘llari. (1 soat)**

“Dunyoda nima lazzatli”; “Hunarmand” (Obid Rasul).

**Mavzu. Badiiy matn va uning turlarini ifodali o‘qish. (2 soat)**

”Hovlim” (Hamidulla Yoqubov), “Qish ham chiroyli” (Quddus Muhammadiy), “Haqiqat” (Usmon Qo‘chqor) asarlari asosida ifodali o‘qish ustida ishlash.

**Mavzu. She’riy va nasriy nutq xususiyatlarini ifodali o‘qishda aks ettirish. (2 soat)**

“Daraxt” (Usmon Azim), “Mevalar mojarosi” (Hamza Hakimzoda Niyoziy), “Hikoyat” (Alisher Navoiy) matni asosida ishlash.

**Mavzu. O‘quvchilarning ijodiy o‘qishlariga oid mashqlar. (1 soat)**

“Turobjon” (Abdulla Saidov), “Yaxshisi ham, yomoni ham til”, “Egilgan bo‘yinlar” (Miraziz A‘zam) asarlari.

**Mavzu. Personajlar nutqini ifodali o‘qish xususiyatlari. (1 soat)**

“Araz qopi” (Muhtarama Ulug‘ova) asari asosida personajlar nutqini ifodali o‘qish ustida ishlash.

**Mavzu. Og‘zaki hikoyalashning ko‘rinishlari. (2 soat)**

Matnga yaqinlashtirib hikoya qilish. So‘zlovchi shaxsini o‘zgartirib hikoya qilish.

**Mavzu. Matn asosidagi ijodiy hikoyalash. (1 soat)**

Qisqartirib hikoya qilish. “Ko‘chaga quvildim” (X.To‘xtaboev) asari asosida hikoyalash ustida ishlash.

**Mavzu. Ifodali o‘qish va yuz ifodasi. (1 soat)**

“Onajon” (Iqbol Mirzo), “Kapalak” (Zafar Diyor), “Havo rang kapalaklar” she’rlari asosida ifodali o‘qish ustida ishlash.

**Mavzu. Ifodali o‘qish jarayonida imo-ishoralar, tana harakatlarining o‘rni va ahamiyati. (1 soat)**

Topishmoq (Ulug‘bek Hamdam), “Bolalar” (Erkin Vohidov), “Shunday yashar odatda odam” (Abdulla Oripov) she‘rlari asosida ifodali o‘qish ustida ishlash.

**Takrorlash: (1 soat)**

“Vatan” (Shukur Qurbon), “Tog‘larning oq ro‘moli...” (M.Ulug‘ova), “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” (Usmon Azim), “Vatan” (Muhammad Ali), “Vatan” (Xurshid Davron), “Yo‘q halovat istamayman” (E.Vohidov), “Vatan yoshlari” (Azim Suyun), “So‘nggi qo‘ng‘iroq” (Humoyun) asarlari asosida takrorlash.

**Ifodali o‘qish mashqi: (1 soat)**

**Mavzularni o‘rganish va amaliy mashg‘ulotlar uchun – 32 soat**

**Takrorlash uchun – 2 soat**

**6- SINF**

**(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mediamanba va kutubxonalardan zarur ma‘lumotlarni topa olish va ulardan foydalanish.

**A2+**

mediamanbalardan zarur ma‘lumotlarni izlab topa olish, saralash va ulardan foydalana olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma‘naviy rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

**A2+**

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma‘naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

oila, maktabda bo‘layotgan tadbirlarda faol ishtirok etish, barcha bilan xushmuomalada bo‘lish.

**A2+**

badiiy asarlarda aks etgan insoniy fazilatlarni anglay olish va boshqalarga yetkazishga intilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

## **A2**

umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlash, orasta kiyinish.

## **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan milliy qadriyatlarni tushunish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

## **A2**

oddiy kun tartibini tuza olish, unga amal qilish.

## **A2+**

kundalik faoliyatda turli chizmalarni o'qiy olish.

### **1-mavzu. Kirish. Ma'naviyat xazinasi. (1 soat)**

Badiiy adabiyot va yoshlar ma'naviyati. Adabiy asarlarning insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rni. Komil inson tarbiyasida kitobning ahamiyati. Axloq-odob bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi mushtaraklik. Adabiyotning odob so'zidan olinganligi. Xalq va mamlakatning ma'naviy-madaniy ravnaqida badiiy adabiyotga muhabbatning muhim ahamiyatga ega ekanligi.

## **I. BOLA – UCHQUR XAYOL EGASI**

**(12 soat, A2+:8 soat )**

### **2-4-mavzu. G'afur G'ulom. "Shum bola" qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)**

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Shum bola" qissasida topqir, hozirjavob bola obrazining hajviy talqin etilishi. Hayotiy hodisalarga kulgi nazari bilan qarash, qissada yozuvchining tarjimai holiga doir unsurlarning ifodalanishi va bu holning yozuvchi ijodiy uslubiga xos xususiyat ekanligi. Asar tilidagi xalqchilik, jamiyatning turli tabaqalariga xos jihatlarning mohirona tasvir etilganligi.

### **5-6-mavzu. Turob To'la. "Do'nan" hikoyasi. ("Yetti zog'ora" qissasidan) (2 soat, A2+: 3 soat)**

Turob To'laning hayoti va ijodi to'g'risida ma'lumot.

Adibning "Yetti zog'ora" qissasida bolalik xotiralari bilan bog'liq voqealarning ifodalanganligi. "Do'nan" hikoyasida hikoyachi bola obrazi. Uning Do'nan laqabli otga bo'lgan muhabbati va bu muhabbat tasviri orqali bola ruhiy olamiga xos bokiralik, samimiylilik, sadoqat tuyg'ularining tasvir etilganligi. Hikoyaning tarbiyaviy ahamiyati.

### **7-10-mavzu. X. To'xtaboev. "Sariq devni minib" romani. (4 soat, A2+: 6 soat).**

X.To'xtaboevning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Roman qahramoni – Hoshimjon sarguzashtlarining obraz tabiati bilan uyg'unligi. Hoshimjondagi yalqovlik va intizomsizlik qusurlarining qahramon taqdirini nojoiz yo'llarga solib yuborganligi va bu holning ta'sirchan ifodalanishi.

Roman qahramoni tabiatidagi quvnoqlik, topqirlik, hozirjavoblik, qo‘nimsizlik singari xislatlarning asar voqealari rivojidadagi o‘rni. Qalpoqcha yordamida “ulg‘aygan” va turli ixtisoslikni “egallagan” Hoshimjonning har safar chuv tushishi sabablari, qahramon tabiatining yoqimli va noxush jihatlari hamda ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Asar tilining o‘ziga xosligi.

**11-13-mavzu. Janni Rodari. “Hurishni eplolmagan kuchukcha”. (3 soat A2+:4 soat)**

O‘tgan asrning eng mashhur adabiy ertakchisi Janni Rodari hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Uning “Rim ertaklari” asari va “Uchtadan oxiri bor ertaklar” turkumi to‘g‘risida. Bir ertakning uch turli tugallanishi jahon ertakchiligi tarixidagi yangilik ekanligi va buning ma’rifiy-didaktik ahamiyati. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” ertagining turli tugallanishlarida kuchukchanning turlicha holati tasviri va buning sabablari.

Ertakning uchinchi tugallanishidagi tabiiylik va kuchukning sevinib ketishi sabablari. Ertakning badiiy jihatlari va undan kelib chiqadigan ijtimoiy ma’no. Ertakning to‘rtinchi va hokazo tugallanishini o‘quvchilarga vazifa qilib berish mumkinligi va uni muhokama qilish.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

G‘afur G‘ulom. “Shum bola” qissasi.

Turob To‘la. “Yetti zog‘ora” qissasi.

X.To‘xtaboev. “Sariq devni minib” romani.

Janni Rodari. “Hurishni eplolmagan kuchukcha” asari.

## **II.KECHAGI KUN SABOQLARI**

**(14 soat, A2+:6 soat)**

**14-15-mavzu. Muqimiy. “Tanobchilar” asari. (2 soat)**

Muqimiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasida foydaxo‘r, imonsiz va yolg‘onchi kimsalarning tasvir etilishi. Hajv qahramonlari Sulton Ali va Hakimjon o‘rtasidagi munosabatlar tufayli tug‘iladigan hajviy kulgining kuchi. Muqimiy asarlarining xalqchilligi, soddaligi va ta’sirchanligi.

Hajviya haqida tushuncha.

**16-17-mavzu. Abdulla Qahhor. “Bemor”. (2 soat)**



Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

Hikoyachilikda Abdulla Qahhor badiiy mahoratining namoyon bo'lishi. "Bemor" asarining adib hikoyachiligida tutgan o'rni. Uning badiiy xususiyatlari. Hikoya ohangi. Asardagi Sotiboldi, bemor va qizcha obrazlari.

"Bemor" ilojsizlik, qashshoqlik insonni qanchalar xo'rashi mumkinligini badiiy ifodalagan asar sifatida. Bemor obrazida mehribon onaga xos xususiyatlarning ta'sirli aks ettirilganligi.

### **18-19-mavzu. Odil Yoqubov. "Muzqaymoq" hikoyasi. (2 soat)**

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Muzqaymoq" hikoyasida yolg'on e'tiqod tufayli bola ruhiyatida ro'y bergan ma'naviy o'zgarishlarning haqqoniy aks ettirilganligi. Noto'g'ri e'tiqod, ko'r-ko'rona siyosiy aqidaparastlik, do'stdan dushman, halol odamdan tuhmatchi yasashi mumkinligining hikoyada ishonarli tasvir etilganligi. Hikoyachi xotirasida chuqur iz qoldirgan bolalik davri fojialarining ko'rsatilishi. Bolaning nog'oralari marshini eshitgandagi holatining mahorat bilan ko'rsatilganligi. Hikoyada odam tuyg'ularini biryoqlama tushunish va tushuntirish mumkin emasligining aks etganligi.

### **20-22-mavzu. Erkin Vohidov. "O'zbekim". (3 soat, A2+:5)**

E. Vohidov hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot.

"O'zbekim" qasidasi ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixining o'ziga xos poetik ifodasi va badiiy talqini sifatida. She'rda o'zbek millatiga mansublikdan iftixor tuyg'ularining samimiy tasvirlanganligi. Qasidaning milliy o'zlikni anglashdagi, xalq milliy tafakkurining shakllanishidagi ahamiyati.

### **23-24-mavzu. O'tkir Hoshimov. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi. (2 soat, A2+:3)**

O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirlanganligi. Yo'qchilik bolani onadan, og'ani inidan sovutganligining asarda ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Xadicha hamda Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi.

## **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

### **A2**

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;

o'rganilgan asarlarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;

ular asosida kichik insho yoza oladi.

**A2+**

barmoq, erkin va aruz vaznidagi she'rlarni ifodali o'qiy oladi;  
asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi.

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi.

**A2+**

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi.

**Nazorat ishi. Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2)**

**25-26-mavzu. Said Ahmad. "Qoplon", "Sobiq" hikoyalari. (2 soat)**

Adibning hayoti va ijodi haqida qisqacha annotatsia.

"Qoplon" hikoyasida laganbardor va manfaatparast kimsa tabiatiga xos illatlarning tasvirlanishi. Qurbonboy va qoplon obrazlarini taqqoslab baholash zarurligi. "Sobiq" hikoyasida ishlab chiqarishni mafkuraga moslashtirgan sho'ro tuzumi tartibotining muayyan shaxs taqdirida namoyon bo'lishi. Hikoyalarning til xususiyatlari, muallif nuqtayi nazarining yashirin ifodalanishi.

**27-mavzu. Musa Jalil. "Ishonma" she'ri. (1 soat, A2+: 2)**

Musa Jalil hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Shoirning Ikkinchi jahon urushi yillarida asirlikka tushishi va Maobit qamoqxonasida qatl etilishi. "Maobit daftari" she'rlar turkumining yaratilish tarixi. "Ishonma" she'rining g'oyaviy mazmuni. Asir shoir qalbidagi shubha va gumonlarning she'rda o'z ifodasini topishi. O'z Vatanini sevgan inson iroda kuchining she'rda badiiy mujassamlanganligi.

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.

Odil Yoqubov. Hikoyalar.

Erkin Vohidov. "O'zbekim" qasidasi.

O'tkir Hoshimov. Hikoyalar.

Said Ahmad. Hikoyalar.

Musa Jalil. She'rlar.

### III. SO'ZDA HIKMAT BOR (10 soat, A2+:9 soat)

#### **28-mavzu. Xalq qo'shiqlari. (1 soat, A2+: 2 soat)**

Qo'shiq xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida. Ularning turlari. Lirik qo'shiqlarda inson his-tuyg'ularining ifodalanishi. Mavsum qo'shiqlarida xalqimiz e'tiqodiy qarashlarining, shuningdek, bolalarning yil fasllariga bo'lgan munosabatlarining kuylanishi ("Boychechak" va boshqalar).

Nazariy ma'lumot. Xalq qo'shiqlari.

#### **29-31-mavzu. Alisher Navoiy. Hikoyatlar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

Navoiy hikmatli so'zlarining mazmun-mohiyati, umrboqiyliigi.

"Mahbub ul-qulub" - hayotiy hikmatlar majmuasi sifatida. "Saxovat va himmat bobida", "Hilm zikrida", "Safar manofii zikrida" qismlaridagi ilm va hunar, yaxshilik, insoniylik, rostgo'ylik va yolg'onchilik, sabr va qanoat, mehr, vafo, insoniylik haqidagi hikmatlarning o'ziga xosliklari. Ularning xalq maqollariga yaqinligi, ulardan farqi. Bu hikmatlarning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy va badiiy ahamiyati, hikmatlarda hayotiy hodisalarning qisqa, ixcham, lo'nda va ta'sirchan ifodalangani. Ulardagi badiiy tasvir vositalari.

#### **32-33-mavzu. Muhammadsharif Gulxaniy. "Zarbulmasal".(2 soat, A2+: 4 soat)**

Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Maymun bilan najjor" hikoyati, undagi majoziy obrazlar talqini. Maymun – uquvsizlik timsoli. Uning tasviridagi yumoristik ohang. Hikoyada tabiat tasvirining o'rni.

"Toshbaqa bilan chayon" hikoyatida ezgulik va yomonlik tasviri. Yomonlik ijtimoiy-ma'naviy illat sifatida. Masalda dialoglarning o'rni. Masalning badiiy xususiyatlari.

#### **34-35-mavzu. Avaz O'tar. "Til", "Fidoyi xalqim", "Sipohi pora istar", "Biling, ushbu zamon g'amnokidurman" she'rlari. (2 soat)**

Avaz O'tar hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Avaz O'tar adabiyotdagi yangi mavzu va g'oyalar kuychisi sifatida.

"Til", "Fidoyi xalqim", "Sipohi pora istar", "Biling, ushbu zamon g'amnokidurman" she'rlarining mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

#### **36-37-mavzu. Abay. Nasihatlar. (2 soat)**

Abay hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Abayning odob-axloqqa doir qarashlari. Ijodkorning ta'lim-tarbiyaga, ilm olishga, to'g'rilikka oid nasihatlarining umuminsoniy mazmun-mohiyati. Abay nasihatlarida sharqona odob va axloq masalalarining ifodalanishi. Mazkur nasihatlarining tarbiyaviy ahamiyati.

#### **Haydar Xorazmiy. "Bo'z to'quvchi kampir" hikmati. (A2+3 soat)**

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Hikmatning ma'naviy-axloqiy, ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati. Unda manfaat uchun ikki yuzlamachilik qilishning qoralanishi. Asarda hayotiy voqeaning ta'sirchan ifodalangani. Hikmatning badiiy xususiyati.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Xalq qo'shiqlari;

Alisher Navoiy. Hikmatli so'zlar.

Gulxaniy. "Zarbulmasal" asari.

Avaz O'tar. She'rlar.

Abay. Nasihatlar.

#### **IV. RANGIN TUYG'ULAR** **(11 soat, A2+:11 soat)**

**38-39-mavzu. Zulfiya. "Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..", "Bog'lar qiyg'os gulda", "Bahor keldi, seni so'roqlab", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rlari. (2 soat, A2+:3 soat)**

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Zulfiya she'rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg'usiga to'lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she'rlarida hayotga, yashashga bo'lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. Shoira she'rlarining badiiy jozibasi.

"O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rida urush keltirgan baxtsizliklar, uning mudhish oqibatlari, yurt tinchligi, xalq farovonligi buyuk ne'mat ekanligi, uni qadriga yetish haqidagi lirik qahramon kechinmalarining kuylanishi.

**40-43-mavzu. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" asari. (4 soat A2+:6 soat)**

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

"Yulduzli tunlar" asaridan olingan parchada chin insoniy fazilatlarining favqulodda holatlarda namoyon bo'lishi va bu holning mahorat bilan ifodalanishi.

Asarda murakkab davr shiddati va talotumlarining aks etishi. Ezgu insoniy xislatlarning milliy, irqiy va diniy tafovutlardan qat'i nazar har kimning o'ziga bog'liqligi masalasi va bu masalaning asarda ifodalanishi. Asarning badiiy xususiyatlari.

**44-46-mavzu. Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi. (3 soat A2+:5 soat)**

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasida o'zbek xalqiga xos urf-odat, ruhiyat va ma'naviy qadriyatlarning o'ta ta'sirchan, o'ziga xos yo'sinda aks ettirilganligi. Qissa qahramoni Bo'ri polvonga xos mardlik, tantilik, halollik xislatlarining turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi.

Asarda o'zbek qishloqlari hayotiga doir holatlarning g'oyat jonli aks etganligi. Ajdodlarga mansub ezgu odatlarning Shukur, Tilovberdi, Temir singari obrazlar tasvirida talqin etilganligi. Qissaning ta'sirchanligi va o'ziga xosligini ta'minlagan omillar. Asarning til xususiyatlari.

**47-48-mavzu. Ibroyim Yusupov she'riyati. “Qadrdon so'qmoqlar” she'ri. (2 soat, A2+: 3 soat)**

Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning hozirgi qoraqalpoq she'riyatida tutgan o'rni.

“Qadrdon so'qmoqlar” she'rida kindik qoni to'kilgan qishloqqa bo'lgan mehr-muhabbatning ifodalanishi. Vatanga bo'lgan muhabbatning qadrdon xonadon, qadrdon so'qmoqlarga bo'lgan muhabbatdan boshlanishi. She'rda lirik tuyg'uning mohirona ifodalanganligi.

**Nizomiy Ganjaviy. Ruboiylar. ( A2+: 3 soat)**

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi to'g'risida qisqacha ma'lumot. Adib ruboiylarida hayot haqiqatlari, yuksak insoniy fazilatlar talqini. “Umrimizku shom-u xufton orasi”, “Adolat farzandi zafardir, zafar”, “Ne gaplar bor, qaytarishga chidamaydi bet” ruboiylari tahlili.

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

o'rganilgan asarlar asosidagi audiomatn va videotasvirlarni ko'rib, tinglab tushuna oladi;

nasriy va she'riy asarni ifodali o'qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;

turli janr va hajmdagi 4-5 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho (3-4 sahifa) yoza oladi.

**A2+**

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

o'rganilgan asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, obrazlar tizimini o'zgalarga tushuntirib bera oladi.

**A2+**

monologik va dialogik nutqlarni ifodali o'qiy oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari asosida. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+:2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Zulfiya. She'rlar.

Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" asari.

Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi.

Ibroyim Yusupov. She'rlar.

**Mavzularni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).**

**Nazorat ishlari uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).**

**Takrorlash uchun – 4 soat.**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat).**

**Jami: 68 soat, A2+:102 soat**

**Ifodali o'qish (Yondosh dastur)**

**(A2+34 soat)**

**Mavzu. Kirish suhbat. (1 soat)**

**Mavzu. Nafasni sozlash mashqlari. (1 soat)**

**Mavzu. So'z va gap urg'usi (2 soat)** Mantiqiy urg'u. Ularning og'zaki nutqdagi o'rni va ahamiyati.

**Mavzu. Ifodali o'qish mashqi. (1 soat)**

**Mavzu. To'xtam (pauza) (2 soat)**Uning rang-barang ko'rinishlari, ahamiyati.

**Mavzu. Nutqiy ohangdorlik (2 soat).** Fikr aniqligini ta'minlashda ma'nodosh so'zlarning o'rni va ahamiyati.

**Mavzu. She'riy va nasriy matnlarning o'ziga xosliklari (2 soat).** She'riy va nasriy asarlarning o'xshash va farqli jihatlari.

**Mavzu. Qofiya va band tushunchasi. Ularni ifodali o'qishdagi o'rni va ahamiyati. (2 soat)**

**Mavzu.** She'riy vazn tushunchasi. Barmoq va erkin vaznlardagi she'rlarni ifodali o'qish. (2 soat)

**Takrorlash: (1 soat)**

**Ifodali o'qish mashqi: (1 soat)**

**Mavzu.** Aruz vazni va uning o'ziga xos xususiyatlari. (2 soat)

**Mavzu.** Aruz vaznidagi she'riy shakllar va janrlardagi asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xosliklari. (2 soat)

**Mavzu.** Monologik nutq va uning ko'rinishlariga oid mashqlar. (2 soat)

**Mavzu.** Dialogik nutq va uning ko'rinishlari ustidagi mashqlar. (2 soat)

**Mavzu.** Dramatik asarlardagi dialoglarni o'qish bilan bog'liq o'ziga xosliklar. (2 soat)

**Mavzu.** Portret tasviri va uni ifodali o'qish xususiyatlari. (2 soat)

**Mavzu.** She'riyatda lirik qahramon. Ifodali o'qishda lirik qahramon kechinmalarini e'tiborga olish. (2 soat)

**Mavzu.** Kichik sahna asarlarini rollarga bo'lib o'qish. (1 soat)

**Takrorlash: (1 soat)**

**Ifodali o'qish mashqi: (1 soat)**

**Mavzularni o'rganish va amaliy mashg'ulotlar uchun – 32 soat**

**Takrorlash uchun – 2 soat**

### 7–sinf

(68 soat, haftasiga 2 soat, A2+: 102 soat)

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

**A2+**

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

**A2+**

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish, o'z xatti-harakatini baholash.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

oila, maktab, mahallada bo'layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

#### **A2+**

oila, maktab, mahallada bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'z burchini tushunish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A2**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, orasta kiyinish.

#### **A2+**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, sog'lom turmush tarziga amal qilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A2**

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

#### **A2+**

kundalik reja tuza olish, turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

### **1-mavzu. Kirish. Badiiy so'z qudrati (1 soat)**

Badiiy adabiyotning so'z san'ati ekanligi. Uning boshqa san'at turlari o'rtasidagi o'rni va ahamiyati. Hayot hodisalarini badiiy obrazlar vositasida tasvirlashning o'ziga xosligi. Badiiy adabiyotning ilmiy adabiyotdan va san'atning boshqa turlaridan farqi. Adabiy tur va janrlar.

## **I. KO'ZIM QAROG'IDASAN, VATAN!**

**(7 soat, A2+: 2 soat)**

### **2-3-mavzu. Hamza. "Jonlarni jononi vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlari. (2 soat)**

Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodida Vatan mavzuining asosiy o'rinni egallash sabablari.

"Vatan", "Dardiga darmon istamas" she'rlarida chorizm zulmi ostida ezilgan, jaholat botqog'iga botgan Turkiston xalqlari qismatiga qayg'urish. Shoirning xalq



ogʻzaki ijodiga xos timsollar va xalq iboralaridan foydalanishi.

**4-5-mavzu. Saida Zunnunova. “Mening Vatanim!”, “Yer uzra qoʻndi oqshom”, “Qizimga”, “Buvilar duoga qoʻllarin ochib” sheʼrlari. (2 soat)**

Shoira hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Saida Zunnunova sheʼrlaridagi tuygʻular teranligi va samimiyligi. “Mening Vatanim!” sheʼrida yurtga muhabbat tuygʻularining ifoda qilinganligi. “Yer uzra qoʻndi oqshom”, “Qizimga” sheʼrlarida ona mehrining badiiy yoʻsinda ifodalanganligi.

Saida Zunnunova sheʼrlarining badiiy xususiyatlari.

**6-7-mavzu. Shuhrat. “Mardlik afsonasi” balladasi. (2 soat)**

Shuhrat hayoti va ijodi toʻgʻrisida qisqacha maʼlumot. “Mardlik afsonasi” balladasida oʻzbek xalqining eng qadimgi zamonlarda mustaqillik uchun olib borgan kurashining tasvirlanishi. Toʻmaris obrazi. Toʻmaris boshchiligidagi xalq jasoratining ballada janriga xos poetik vositalar orqali tasvirlanishi. “Toʻmaris” hikoyasi bilan “Mardlik afsonasi” balladasi oʻrtasidagi yaqinlik va farqli tomonlar. Balladaning tarbiyaviy ahamiyati.

Nazariy maʼlumot. Ballada haqida.

**8-mavzu. Rasul Hamzatov. “Ona tilim”, “Kenja nevaram Shahrizodga” sheʼrlari. (1 soat, A2+: 3 soat)**

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot.

“Ona tilim” sheʼrida ona tilining millatni, shu millatga mansub har bir shaxsning oʻzligini saqlab qoluvchi vosita ekanligining koʻrsatilishi. Tilga muhabbat orqali elga muhabbat paydo boʻlishining ifodalanishi. “Kenja nevaram Shahrizodga” sheʼrida avlodlar oʻrtasidagi vorislik, davomiylilik va maʼnaviy javobgarlik tuygʻularining aks etishi.

**Oʻquvchilar sinfda va mustaqil oʻqishlari, yod olishlari lozim boʻlgan asarlar:**

Hamza sheʼrlari.

Saida Zunnunova. “Mening Vatanim!” sheʼri.

Shuhrat. “Mardlik afsonasi” asari.

Rasul Hamzatov. “Ona tilim” sheʼri.

## **II. OʻYLARIMNING CHEKSIZ OSMONI**

**(10 soat, A2+: 9 soat)**

**9-10-mavzu. Asqad Muxtor. “Yulduzim”, “Tugʻilish”, “Yoʻl”, “Oʻzinniki emas bu umr...”, “Bir tup oʻrik” sheʼrlari. (2 soat)**

Asqad Muxtorning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot.

Asqad Muxtor sheʼriyatining oʻziga xos xususiyatlari. “Yulduzim”,

“Tug‘ilish”, “Yo‘l”, “O‘zimmiki bu umr..” she‘rlarida shoir ruhiy olamining ifodalanishi. Bu she‘rlarda yashashdan maqsad xalq va jamiyat oldidagi mas‘uliyatni his etib yashash va o‘zidan yaxshi iz, yaxshi nom qoldirish, degan g‘oyaning badiiy mujassamlanishi. Asqad Muxtor she‘rlaridagi fikr va tuyg‘u uyg‘unligidagi o‘ziga xoslik. Bu she‘rlarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma‘lumot. She‘r vaznlari haqida.

**11-13-mavzu. Mirmuhsin. “Me‘mor” romanidan parcha. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Mirmuhsin hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Asarda XV asr voqealarining tasvirlanganligi. Asar qahramonining sidqidildan xizmat qilganligi, muhtasham binolar qurib, hukmdorlar shuhratiga shuhrat qo‘shganligi, har qancha qiyinchilikka uchrasa-da, o‘z qarashlariga, e‘tiqodiga sodiq qolganligi. Me‘mor taqdiri orqali iste‘dodli kishilar timsolining berilishi. Asardagi Najmiddin Buxoriy timsoli.

Nazariy ma‘lumot. Roman va uning turlari.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat A2+: 2 soat)**

**14-15-mavzu. O‘lmas Umarbekov. “Qiyomat qarz” hikoyasi. (2 soat)**

Yozuvchi hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. “Qiyomat qarz” hikoyasida aks ettirilgan inson kechinmalari, iztiroblari tasviri, hikoyadagi insoniy qadriyatlar talqini. Asarda millatga xos samimiylik, soddalik, bag‘rikenglik va irodalilikning ifodalanishi. Hikoya qahramonining qarzdorligi, kechinmalari va iztiroblarining haqqoniy tasvirlanganligi. Sarsonboy ota timsoli. Hikoyaning ahamiyati va ifoda tarzi. Hikoya orqali millatga xos halollik, o‘zganing haqidan qo‘rqish kabi insoniy sifatlarning ulug‘lanishi.

Nazariy ma‘lumot. Hikoya haqida.

**Mark Tven. “Tom Coyerning yangi sarguzashtlari”. (A2+: 3 soat)**

Mark Tven hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot.

“Tom Coyerning yangi sarguzashtlari” asari avtobiografik asar sifatida. Tom – ta‘qiqchlarni buzuvchi, yangilikka intiluvchi, xayolparast va tirishqoq bola sifatida tasvirlanganligi. Asarda bolalar dunyosining o‘ziga xos tarzda tasvirlangani. Asarning badiiy-estetik xususiyatlari va ma‘rifiy, badiiy ahamiyati.

**16-18-mavzu. Ch. Aytmatov. “Oq kema” qissasi. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Adib haqida qisqacha ma‘lumot. “Oq kema” qissasida ta‘sirchan, beg‘ubor va xayolchan bola timsolining tasvirlanishi. Shuningdek, uning qalbiga xos pokiza va ezgu tuyg‘ularning bobosi Mo‘min chol tabiatida ham namoyon bo‘lishi. Go‘zal

insoniy tuyg‘ular sohibining manfaatparastlar davrasida yashashi nechog‘lik og‘ir ekanligi bola, chol va O‘rozqul munosabatlarida aks etishi. Bu holatning bola ruhiyatiga dahshatli ta‘siri.

Hayotiy voqelik va bolaning xayolot olami o‘rtasidagi shafqatsiz ziddiyatning ko‘rsatilishi. Qabohatlar manbai qayerdaligini bilmagan va ularga qarshilik qilishdan ojiz gunohsiz bolaning bu bulg‘anch dunyoni tashlab ketishi insonning ma‘naviy tanazzuliga qilingan isyon ekanligi.

Ona bug‘u obrazi va uning ramziy xususiyati.

Nazariy ma‘lumot. Ramziy obrazlar.

### **O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

Asqad Muxtor. She‘rlar.

Mirmuhsin. “Me‘mor” romanidan parcha.

O‘lmas Umarbekov. “Qiyomat qarz” hikoyasi.

Chingiz Aytmatov. “Oq kema” qissasi.

## **III. O‘TMISHDAN SADOLAR**

**(12 soat, A2+: 10 soat)**

### **19-21-mavzu. “Ravshan” dostoni. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Ishqiy-sarguzasht dostonlarning o‘zbek xalq dostonchiligida katta o‘rin tutishi. Bu xil dostonlarda ishqiy mojarolarning asosiy mavzu ekanligi. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar va mazkur turkumda “Ravshan” asarining tutgan o‘rni.

Doston voqealarining turkiy xalqlar dostonchiligida keng tarqalgan motiv ekanligi. Dostonning bizgacha yetib kelishida Ergash Jumanbulbulning xizmati. Dostondagi Go‘ro‘g‘li, Yunus pari, Avazxon, Ravshan, Zulxumor, aka-ukalar obrazlarining tahlili.

Nazariy ma‘lumot. Badiiy obraz va mubolag‘ali tasvir.

### **22-24-mavzu. Alisher Navoiy. “Mehr va Suhayl”. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. “Sab‘ai sayyor” dostoni haqida. “Sab‘ai sayyor” dostonida beshinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofirning Mehr va Suhayl haqidagi hikoyasi. Hikoyada sadoqat, mardlik-tantilik kabi insoniy tuyg‘ular ifodasi.

Obrazlar tahlili. Mehr va Suhaylning o‘ziga xos sifatleri.

Nazariy ma‘lumot. She‘riy san‘atlar (Tashbih, tanosub ) haqida.

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

o‘rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko‘rib tushuna oladi;

nasriy va she‘riy asarlarni ifodali o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

asar qahramonlariga tavsif, insho yoza oladi.

**A2+**

adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi.

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she‘riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi, o‘rganilgan asarlarni o‘qituvchi yordamida tahlil qila oladi;

asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi.

**A2+**

asar qahramonlari xarakteriga xos bo‘lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi; notiqlik san‘atining mazmun-mohiyatini tushunadi va izohlay oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**25-26-mavzu. Uvaysiy. “Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyman”, “Sog‘indim” g‘azallari, “Anor”, “Yong‘oq”, “Kun va tun” chistonlari. (2 soat)**

Shoiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. “Mehnatu alamlarga muhtalo Uvaysiyman” g‘azalida ijtimoiy hayot hodisalaridan norozilik, ularga nisbatan ko‘ngildagi iztirob va kechinmalarning ta‘sirli aks ettirilishi. “Sog‘indim” g‘azalida farzandi yo‘liga ko‘z tikkan ona tuyg‘ularining aks etishi.

Shoiraning “Anor”, “Yong‘oq”, “Kun va tun” chistonlari hamda ularning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma‘lumot: Chiston, qofiya va radif haqida tushuncha.

**27-28-mavzu. Zavqiy. “Ajab ermas” g‘azali, “Ahli rasta” hajviyasi.**

**(2 soat)**

Shoir haqida qisqacha ma‘lumot. “Ajab ermas” g‘azalida kelajakka ishonch,

yaxshi kunlarga umid tuygʻusining aks etishi. “Ahli rasta” hajviyasida davr odamlaridagi illatli sifatlarning aks etishi. Asarlarning joziba va taʼsirchanligi.

### **29-30-mavzu. Maxtumquli. Sheʼrlar. (2 soat)**

Maxtumquli hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Maxtumquli ijodining barcha turkiy xalqlar uchun ham aziz va moʼtabar ekanligi. Shoir sheʼrlarida maʼnaviy-axloqiy mavzularning ustuvorligi.

“Adolat yaxshi” va shu turkumdagi sheʼrlarning tahlili. Sheʼrlarda umuminsoniy gʻoyaning ilgari surilgani. Maxtumquli sheʼrlariga xos badiiy xususiyatlar. Ularning maʼrifiy-tarbiyaviy hamda badiiy ahamiyati.

“Aytishuv” sheʼrida dialog shaklining namoyon boʻlishi, personajlarning topqirlik, adolat, inson taqdiri haqidagi qarashlarining oʻziga xos ifodasi.

### **Shota Rustaveli. “Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon” dostonidan parcha. (A2+: 4 soat)**

Dostonda umumbashariy gʻoyalarning yuksak badiiy tarzda ifoda etilgani. Asarda chin insoniylik, sadoqat, mardlik singari insoniy fazilatlarining ulugʻlanishi. “Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon” dostoni – jahon adabiyotining eng goʻzal namunalaridan biri sifatida.

### **Oʻquvchilar sinfda va mustaqil oʻqishlari, yod olishlari lozim boʻlgan asarlar:**

“Ravshan” dostoni.

Alisher Navoiy. “Mehr va Suhayl” hikoyasi.

Uvaysiy. Gʻazal va chistonlar.

Zavqiy. Gʻazallar.

Maxtumquli. Sheʼrlar.

## **IV. YANGI DAVR NAFASI**

**(18 soat, A2+: 13 soat)**

### **31-33-mavzu. Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” romani. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Adib haqida qisqacha maʼlumot. Romanning “Qoʻrqinch bir jasorat” bobida mardlik va nomardlik, tantilik va pastkashlik oʻrtasidagi toʻqnashuvning keskin dramatik vaziyatlarda koʻrsatilishi. Anvar tabiatiga xos mardlik, halollik, tantilikning Xudoyorxon va Abdurahmon xarakteridagi fosiqlik, adolatsizlik, zoʻravonlik kabi xislatlarga qarshi qoʻyilishi. Anvar va Raʼno timsollarining oʻziga xosligi.

Yozuvchining obrazlar tilini individuallashtirish mahorati. Asar yechimining mantiqiy asoslanganligi. Qobilboy, Safar boʻzchi singari timsollarning oʻziga xos

jihatlari tasviri. Asarning to'liq o'qilishiga erishish.

**34-36-mavzu. Cho'lpon. "Binafsha", "Go'zal", "Ko'ngil", "Xalq", "Buzilgan o'lkaga" she'rlari. (3 soat)**

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. "Go'zal" she'rida go'zallik qoshida lol qolgan inson ruhiyati po'rtanalarining, oy, quyosh, yulduz, shamol obrazlarida oshiq taqdirining ta'sirchan ko'rsatilishi. "Binafsha" she'rida binafsha obrazida inson qismatining aks ettirilishi. Mazkur she'rlarda ifodalash mushkul bo'lgan nozik hissiyotlarning aniq tasvir etilganligi. Shoir she'rlarida lirik qahramon holatiga mos tasvir usuli va vositalarining qo'llanishi. Cho'lponning so'z va poetik obrazni yaratish mahorati.

"Xalq" va "Ko'ngil" she'rlarida Cho'lpon shaxsiyati va dunyoqarashiga xos belgilarning namoyon bo'lishi

Nazariy ma'lumot. Ko'chim.

**37-39-mavzu. Abdulla Qahhor. "O'g'ri", "Dahshat" hikoyalari. (3 soat)**

Adib haqida qisqacha ma'lumot. "O'g'ri" hikoyasida jabrdiyda chol Qobil bobo va o'zgalar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirgan amaldorlar obrazi. Adibning tasvirlash mahorati, so'z qo'llash san'ati, inson ruhiyatining yashirin jihatlari ocha bilish iste'dodi.

"Dahshat" hikoyasida insonni yengish mumkin emasligining kurashchan ayol - Unsin obrazi misolida g'oyat ta'sirchan ko'rsatilganligi. Hikoyada har bir obraz tabiatining psixologik jihatdan asoslanganligi. Tasvirning hayotiy va ta'sirchanligi.

**Mavzu: Hamid Olimjon. "Holbuki tun", "G'azal" she'rlari. (A2+: 2 soat)**

Shoir haqida ma'lumot. "Holbuki tun" she'rida ilohiy go'zallik tasviri. Shoirning inson qalbi tebranishlarini nozik ilg'ab, aniq ifodalagani.

"G'azal"da an'anaviy she'riy shakldan foydalanilgan holda zamonaviy mazmunning ifodalanishi. She'rdagi o'xshatish, sifatlash, mubolag'a singari badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi.

**Mavzu: Maqsud Shayxzoda. "Yillarning salomin yillarga eltib" she'ri, to'rtliklar. (A2+: 2 soat)**

Shoir haqida qisqacha ma'lumot. M. Shayxzoda she'riyatida hayotga falsafiy qarashning ustuvorligi. She'rdagi vaqt qadrini, uni chuqur his qilgan kishi tuyg'ularining aks etganligi. Asarda shoirning hayotga muhabbati, yashashga chanqoqligi xislatlarining tasvirlanganligi. She'rning ta'sirchanligini ta'minlagan badiiy vositalar.

To'rtliklarda insonni avaylash, unga imkon boricha muruvvat ko'rsatish fikrlarining badiiy aks etganligi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat).**

**40-42-mavzu. Mirtemir. “Men tug‘ilgan tuproq”, “Onaginam”, “Toshbu”, “Betobligimda” she‘rlari. (3 soat)**

Mirtemirning qalamkash do‘stlaridan milliy shoir sifatida farqlanishi. Shoir ijodidagi xalqona ohanglar.

“Onaginam” she‘rida uzilmagan farzandlik qarzi tufayli lirik qahramon iztiroblari, qalb tug‘yonlarining aks ettirilishi. Tug‘yonlar ko‘lami va shoirning tasvirlash mahorati. “Toshbu” she‘rida o‘zbek ayollariga xos yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarining yorqin va ta‘sirchan aks ettirilishi. “Men tug‘ilgan tuproq” she‘rida ona yurt obrazining yaratilishi. She‘rning samimiyligi va ta‘sirchanligini ta‘minlaydigan badiiy omillar. Mirtemirning tasvirlash san‘ati. Uning she‘riyatiga xos soddalik, samimiylilik va rostgo‘ylik.

Nazariy ma‘lumot. Tabiat lirikasi haqida.

**43-44-mavzu. Xayriddin Saloh. “Yulduzlar afsonasi” asari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Xayriddin Salohning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. “Yulduzlar afsonasi” asarining o‘zbek xalq afsonalari ruhida yaratilganligi. Asarda tilga olingan samoviy jismlarning inson hayoti va xayolot olami bilan bog‘liqligi. Hulkar va Yetti qaroqchi obrazlari. Yerdagi odamlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, kurashlar va kelishmovchiliklarning asardagi ramziy tasviri. Asarda tasvirlangan voqealarning aniq va ta‘sirchan ifodalanganligi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Nazariy ma‘lumot. Ballada.

**45-48-mavzu. E. S. Tompson. “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasi. (4 soat, A2+: 5 soat)**

Adib hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Uning qalamiga mansub “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarining ko‘plab tillarga tarjima etilgani va katta shuhrat qozongani. Asarda erkinlik, hurlik tuyg‘usining ulug‘lanishi. Ozodlikning o‘limdan kuchli ekanligi tasviri.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

o‘rganilgan asarlar asosida yaratilgan audiomatn va videotasvirlarni tinglab, ko‘rib, tushuna oladi;

nasriy va she‘riy asarlarni ifodali o‘qiy oladi;

ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi;  
asar qahramonlariga tavsif, insho (4-5 sahifa) yoza oladi;  
turli janr va hajmdagi 5-6 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi.

**A2+**

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, tanlab mutolaa qilgan asardagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

o'rganilgan asarlarni o'qituvchi yordamida tahlil qila oladi;  
asarda tasvirlangan voqea-hodisalar, qahramonlarning fazilat va nuqsonlariga munosabat bildira oladi.

**A2+**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

G'arb va sharqning mashhur notiqqlari, notiqlikning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini izohlab bera oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Abdulla Qodiriy. "Mehrobdan chayon" romani.

Cho'lpon. She'rlar.

Abdulla Qahhor. Hikoyalar.

Mirtemir. She'rlar.

Xayriddin Saloh. "Yulduzlar afsonasi" asari.

E. S. Tompson. "Yovvoyi yo'rg'a" asari.

**Asarlarni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).**

**Yozma ishlar uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).**

**Takrorlash uchun – 4 soat.**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi – 4 soat (A2+: 8 soat).**

**Jami: 68 soat, A2+:102 soat.**

**"Notiqlik san'ati" (Yondosh dastur)**

**(A2+ 34 soat)**

**Kirish. "Notiqlik san'ati" xususida umumiy tushuncha. (1 soat)**



“Notiqlik san’ati” fanining maqsad va vazifalari, tarixi, notiqlikning o‘ziga xos qirralari. Notiqlik – nutqning oqzaki shakli ekanligi. O‘zbekistonda nutqqa e’tiborning kuchayganligi. O‘zbek tilida fikr-mulohazalarni ravon ifodalashning muhimligi.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Ifodali o‘qish mashqi.

**G‘arbdagi notiqlik san’ati tarixi xususida. (1 soat)**

G‘arbda notiqlik ritorika atamasi bilan nomlanganligi. Notiqlik san’atining qadim Yunonistonda shakllanganligi. Bu san’atning bevosita davlat ishlari bilan bog‘liq rasmiy doiralarda nutq so‘zlash bilan bog‘liqligi. Mashhur notiqlar haqida ma’lumot. Aristotel (384-322), Demosfen (384-322) va Sitseron (103-43) faoliyati.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

G‘arbdagi mashhur notiqlar fikrlaridan namunalar.

**Sharqdagi notiqlik san’ati tarixiga doir. (2 soat)**

Sharq dunyosida, xususan, musulmon olamida notiqlik san’ati bevosita muqaddas kitob - Qur’oni Karimni tilovat qilish, hadisi sharifni tushuntirish bilan bog‘liqligi. Sharqda notiqlar voiz – va’z, suxandon, ma’ruza aytuvchi deb yuritilganligi. Balog‘at va fasohat xususida. Sharqdagi mashhur voizlar to‘g‘risida ma’lumot. Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mashhur shaxslar faoliyati.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Sharqdagi mashhur notiqlar fikrlaridan namunalar.

**O‘zbek adiblari notiqlik haqida. (2 soat)**

Mashhur o‘zbek adiblarining notiqlik, nutq madaniyati va odobi to‘g‘risida aytgan fikrlarining ahamiyati. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va boshqa ijodkorlar notiqlik haqida.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Notiq nutqining bezagi. (2 soat)**

Nutqni bezaydigan omillar xususida. Frazologik birliklar, maqol, hikmatli so‘z va ichki sa’j nutqning ta’sirchanligini oshiradigan asosiy omillar sifatida.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

**Notiqlik san’ati va nutq sifati. (2 soat)**

Notiqlik san’atida nutq umuman yaxshi va yomon nutq shaklda farqlanishi. Nutq sifatiga aniqlik, ravonlik, ta’sirchanlik, tozalik, izchillik, mantiqiylik va boshqa sifatlarni kirishi. Nutqning puxtaligi.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

**Notiqlik san’atida reja va vaqt me’yori. (2 soat)**

Notiqlik san'atida rejaning ahamiyati. Vaqt me'yoriga amal qilish zarurati. Nutq bayonidagi mezon va reglament masalasi. Fikr bayonida tinglovchi ruhiyati. Maxsus nutq va munosabat nutq yuzasidan ma'lumot.

### **Notiqlik turlari va nutq ko'rinishlari haqida ma'lumot. (2 soat)**

Nutqning yozma va og'zaki nutq shakllari borligi. Notiqlik san'atida ijtimoiy-siyosiy notiqlik, ilmiy-pedagogik, maishiy nuqtalarning farqlanishi. Shoir, so'z ustasi, aktyorlarning nutqi masalasi. Ommabop, dialogik va monologik nutqlar xususida.

### **Amaliy mashg'ulot. (2 soat)**

#### **Notiq mahorati. (2 soat)**

Notiqlikda iste'dod zarurati va mashqning ahamiyati. Notiqlarning so'z tanlashi. So'z ustalarining o'z nutqlari ustida qunt bilan rejali ravishda mashqlar bajarishi. Notiqlikda muomala odobi masalasi. Notiqlik san'atida undalmaning o'rni. Notiqlikda obrazga kirish, tabiiylik va ishonchning ahamiyati kattaligi.

### **Amaliy mashg'ulot. (2 soat)**

#### **Takrorlash: (1 soat)**

"Notiqlik san'ati" fani yuzasidan xulosalar bayon qilish. Mazkur fanni o'rganish jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalarni takrorlash. O'quvchilardagi notiqlikka bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish.

**Mavzularni o'rganish uchun –16 soat**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun –16 soat**

**Takrorlash – 2 soat**

## **8–SINF**

**(68 soat, haftasiga 2 soatdan, A2+: 102 soat).**

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

#### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

##### **A2**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter) foydalana olish va ulardagi materiallarga munosabat bildirish.

##### **A2+**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

#### **O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

## **A2**

shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni ehtiyojga aylantira olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish; o'z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, og'zaki va yozma matnlar mazmuniga to'g'ri baho bera olish.

## **A2+**

badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'at va boshqalarga doir kitoblarni o'qish, o'rganish, va xulosa chiqarish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

## **A2**

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o'ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis mulohaza yuritish.

## **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan insoniy fazilatlar, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

## **A2**

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasvirini anglash, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish.

## **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunish va talqin qila olish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

## **A2**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va undan foydalana olish.

## **A2+**

inson mehnatini yengillashtiradigan, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘la olish hamda ulardan foydalana olish.

### **1-mavzu. Kirish. (1 soat)**

Davr, ijodkor va adabiyot. Adabiyotda muayyan millat hayotiga daxldor jihatlarning aks ettirilishi. Muayyan davrga xos xususiyatlarning badiiy asarlarda tasvirlanishi. Badiiy adabiyotda zamondosh obrazining ifodalanishi. Adabiyotning ijtimoiy muammolarga hamohangligi va umrboqiyliigi o‘rtasidagi aloqa. Badiiy adabiyot adabiy til shakllanishidagi asosiy vosita sifatida.

## **I. XALQ OG‘ZAKI IJODI (5 soat, A2+: 1 soat))**

### **2-6-mavzu. “Kuntug‘mish” dostoni. (5 soat, A2+: 6 soat))**

Xalq dostonlarining millat ruhiyatini aks ettirishdagi o‘rni. Ularning turlari (1 soat)

“Kuntug‘mish” ishqiy-sarguzasht dostonlarning namunasi sifatida. Asar syujetining sarguzashtlarga boyligi. Qahramonlar taqdirini belgilovchi hodisalarning maishiy turmushga yaqinligi. Kuntug‘mish obrazi. Unga xos jo‘mardlik, tantilik, jasurlik va ayni vaqtda soddalik sifatleri. Kuntug‘mish tabiatidagi samimiyat va ishonuvchanlik xislatleri. Xolbekada o‘zbek qizlariga xos go‘zallik, o‘ktamlik, erkalik, shaddodlik, mayinlik va mehribonlik sifatlerining namoyon bo‘lishi. Dostonda ayollarga xos shubhaga berilish, injiqlik, sinchkovlik sifatlerining ishonarli tasvirlanganligi (2 soat).

Dostondagi Gurkiboy va Mohiboy obrazlerining tasviri. Gurkiboyga xos bosiqlik, mehribonlik, mulohazakorlik hamda Mohiboyning quv, tajang, qaytmas yigitcha ekanligi. Dostondagi boshqa obrazlar tasviri (1 soat).

Dostonning badiiy xususiyatlari. Nazariy ma‘lumot. Doston (1soat).

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asar:**

“Kuntug‘mish” dostoni.

## **II. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXIDAN (13 soat, A2+: 6 soat)**

**7-11-mavzu. Lutfiy. “Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldir, bu ko‘ngul”, “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azallari va tuyuqlari. (5 soat)**

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Lutfiy merosi va xalq og‘zaki ijodi. “Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma”, “Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul”, “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azallarining tahlili. Ularning vazni, tasvir vositalari va boshqa badiiy xususiyatlari (2 soat).

Lutfiy – tuyuq ustasi. “Ko‘ngluma har yonki boqsam dog‘i bor”, “Men sening

ilkingdin, ey dil, bandamen”, “Charxi kajraftor elidin yozamen” tuyuqlarida soʻz oʻyinlari. Soʻz oʻyinlarining yuzaga kelishida tajnisning oʻrni. Tuyuqlarning vazn, qofiya va boshqa badiiy xususiyatlari (2 soat).

Nazariy maʼlumot. Tuyuq, irsoli masal (1 soat).

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar muhokamasi. (1 soat)**

**12-17-mavzu. Alisher Navoiy. Gʻazal va qitʼalar. “Qaro koʻzum kelu mardumligʻ emdi fan qilgʻil”, “Qoshi yosinmu deyin...”, “Kecha kelgumdur debon...”, “Yordin ayri koʻngul...” gʻazallari, “Kamol et kasbkim, olam uyidin” qitʼalari. (6 soat, A2+: 10 soat)**

Navoiy gʻazal mulkining sultoni ekanligi. “Xazoyin ul-maʼoniy” haqida qisqacha maʼlumot. Navoiy sheʼriyatining mavzu qamrovi va badiiyati. “Qaro koʻzum kelu mardumligʻ emdi fan qilgʻil” gʻazali tahlili (1 soat).

“Qoshi yosinmu deyin...”, “Kecha kelgumdur debon...”, “Yordin ayri koʻngul...” gʻazallarida majoziy va ilohiy ishq talqini. “Jonga chun dermen...” singari gʻazallari tahlili (2 soat).

Navoiy gʻazallaridagi tasvirlarning favquloddaligi. Buning shoir mahorati bilan aloqadorligi. Navoiy va oʻzbek gʻazalchiligining taraqqiyoti (1 soat).

“Kamol et kasbkim, olam uyidin”, “Jahon ganjigʻa shoh erur ajdaho” qitʼalari. Ularning gʻoyaviy-badiiy mazmuni va mohiyati, qitʼalarning tuzilishi, tarkibi, tasvir xususiyatlari (1 soat).

Nazariy maʼlumot. Qofiya, radif, gʻazal haqida (1 soat).

**18-19-mavzu. Nodira. Gʻazallar. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Nodiraning hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Nodira gʻazallarida hijron va ayriliq ohanglari. Ularning badiiy yetukligi, gʻazallarda ayol tuygʻularining ifodalanishi. “Doda keldim...”, “Vasl uyin obod qildim...”, “Kel dahrni imtihon etib ket...” gʻazallarining tahlili.

**Oʻquvchilar sinfda va mustaqil oʻqishlari, yod olishlari lozim boʻlgan asarlar:**

Lutfiy. Gʻazal va tuyuqlar.

Alisher Navoiy. Gʻazal va qitʼalar.

Nodira. Gʻazallar.

### **III. XX ASR OʻZBEK ADABIYOTI**

**(23 soat, A2+: 25 soat )**

**20-21-mavzu. Gʻafur Gʻulom. “Sogʻinish”, “Vaqt”, “Bilib qoʻyki, seni Vatan kutadi” sheʼrlari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Gʻafur Gʻulomning XX asr oʻzbek sheʼriyatida tutgan oʻrni.

“Sogʻinish” sheʼrida otaga xos sogʻinch tuygʻusining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy oʻziga xoslikning boʻrtib koʻrinishi. Sheʼrida yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuygʻulari falsafiy tasvirlanishi. “Vaqt” sheʼrida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga daʼvatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. “Bilib qoʻyki, seni Vatan kutadi” sheʼrida barkamol yoshlarni Vatan kutayotganligini, ularning Vatani oldidagi masʼuliyati shoirona mahorat bilan tasvirlanishi. Shoir sheʼrlarida soʻz qoʻllash sanʼati.

**22-24-mavzu. M. Shayxzoda. “Jaloliddin Manguberdi” dramasi (3 soat, A2+: 5 soat).**

Shayxzodaning oʻzbek dramaturgiyasi taraqqiyotida tutgan oʻrni.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi oʻzbek adabiyoti dramaturgiyasining yetuk namunasi sifatida. Asarda moʻgʻil istilochilariga qarshi kurashgan xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi obrazi va unga xos boʻlgan vatanparvarlik sifatlarining tasviri. Asar qahramoni haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy toʻqimaning oʻzaro munosabati. Dramadagi falsafiy ruh va til jozibadorligi.

Nazariy maʼlumot. Drama.

**Mavzu. Hamza Hakimzoda Niyoziy. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi. (A2+: 4 soat)**

Hamzaning oʻzbek milliy dramaturgiyasi shakllanishi va taraqqiy etishiga qoʻshgan hissasi. XX asr boshida yaratilgan sahna asarlarida maʼrifatparvarlik, milliy maʼnaviyat va axloq, dunyoviy tafakkur targʻibining markaziy oʻringa chiqishi. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasi oʻz davri dramatik asarlari bilan gʻoyaviy va badiiy aloqadorligi. Dramaning yaratilishiga turtki boʻlgan ijtimoiy-maʼnaviy muhit. Asarning markaziy qahramonlari Mahmudxon va Maryamxonning mazkur muhitga munosabati. Asarda otalar va bolalar muammosi tahlili. Dramaning badiiy xususiyatlari. Asarning bugungi kundagi ahamiyati.

### **Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish):**

#### **A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab, koʻrib tushunadi, tegishli munosabat bildiradi;

nasriy, sheʼriy, dramatik asar namunalarini ifodali oʻqiydi va mazmun-mohiyatini tushunadi;

badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yoʻnalishda insho (5-6 sahifa) yoza oladi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy asarlardan o'rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

**A2+**

turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy adabiyot namunalari (nasriy, she'riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

asar qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy adabiyotga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi;

asarlarga annotatsiya, hamda kichik xabarlar yoza oladi;

nutqning ma'no turlari: tavsif, hikoya qilish va mushohadaning o'ziga xos jihatlarini tushuna oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**25-26-mavzu. Usmon Nosir. "Yurak", "Nil va Rim", "Monolog" she'rlari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Usmon Nosirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Shoirning adabiy merosi. Shoir she'rlarida tabiat go'zalliklari bilan pokiza qalbli inson tuyg'ulari o'rtasidagi hamohanglik. Usmon Nosir she'rlarida odamning go'zallikka munosib bo'lishi ulkan bir istak sifatida ifodalangani.

"Yurak" she'rining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. She'rdagi tuyg'u va fikr parvozi. She'rning ohangdorligi. "Nil va Rim" she'ri – erk madhiyasi ekanligi.

She'rdagi tarixga – ozodlik va mustaqillik uchun olib borilgan asriy kurash sahifalariga murojaat qilib, insoniy erk uchun kurashning abadiyligi va davomiyligi masalasining yuksak ifoda etilgani.

“Monolog” she'rida sevgi mavzuining o'ziga xos talqini. Shoir uslubidagi ichki shiddatli ritm va keskinlik, o'xshatish va jonlantirishlarning originalligi. Shoirning betakror so'z qo'llash mahorati. Usmon Nosir lirikasining faqat o'zigagina xos bo'lgan qirralari.

**27-29-mavzu. Asqad Muxtor. “Chinor” romani. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Asqad Muxtorning nasriy ijodi haqida qisqacha ma'lumot.

“Chinor” romani adibning ijodidagi yangi bosqich sifatida. Romanning yetakchi qahramonlari va kompozitsion o'ziga xosligi. Akbarali qismati haqidagi fasl “Chinor” romanining eng dramatik sahnalaridan biri ekanligi. Asarda insoniy ojizlik, loqaydlik, qo'rqqoqlik, irodasizlik fojiga olib kelishi mumkinligining ishonarli tasvirlab berilgani. Lahzalik qo'rqqoqlik sababli Bektemirning o'limiga sabab bo'lgan Akbaralini vijdon azobi tinimsiz ta'qib etishi va oxir-oqibat halokatga olib kelishi. Bu voqea tasviridagi samimiylilik va ta'sirchanlik. Akbarali ruhiy olamining teran tasviri. Romanning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Nazariy ma'lumot. Roman haqida.

**30-32-mavzu. Said Ahmad. “Ufq” romanidan parcha. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Yozuvchining “Ufq” trilogiyasi haqida ma'lumot.

Romanda Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek xalqi hayotining haqqoniy tasvir etilishi. “Hijron kunlarida” kitobining bosh qahramoni Ikromjon – murakkab taqdirli shaxs. Beshafqat urushning asar qahramonlari taqdiridagi izlari. Yozuvchining xarakter yaratishdagi milliy o'ziga xosligi. Asardagi tabiiylik va ruhiy tahlil. Roman tilining jozibadorligi. Asarning tarbiyaviy ahamiyati.

**Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**33-mavzu. Ozod Sharafiddinov. “O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi. (1 soat, A2+: 2 soat)**

Adabiyotshunosning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida qisqacha ma'lumot.

Adibning o'zbek madaniyati, fani va publitsistikasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi. O. Sharafiddinovning ijodda va hayotda halollik, prinsipiiallik, adolatlilik singari qadriyatlarini yuksak tutgani.

Adibning “O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasida ilgari surilgan g'oyalar. Vatan tuyg'usi, Vatan oldidagi farzandlik burchini anglash masalalari O. Sharafiddinov talqinida. Bu borada muallifning o'zi va zamondoshlari oldiga qo'ygan talablari. Maqolaning bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati.

**34-35-mavzu. To'ra Sulaymon. “Iltijo”, “Armon”, “Tavallo”, “Gul bir yon, chaman bir yon” she'rlari. (2 soat)**

Shoirning hayot va ijod yo'li haqida qisqacha ma'lumot. To'ra Sulaymon she'rlarining xalqchilligi. “Iltijo” she'rida hayotga, tiriklikka bo'lgan muhabbat tasviri. Bahor obrazi tasviridagi tuyg'ular rang-barangligi. “Armon” she'ri shoirning hayotiy qarashlari, e'tiqodlari mujassam bo'lgan asar sifatida. “Tavallo” she'rida onalarga xos bo'lgan ajoyib fazilatlarining tarannum etilishi. “Gul bir yon,



chaman bir yon” she’rining ohangdorligi, unda lirik qahramon tuyg’ularining samimiy ifodalanishi.

**36-38-mavzu. Shukur Xolmirzayev. Hikoyalar. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. “Ot egasi”, “Omon ovchining o’limi”, “Xumor” hikoyalarida inson va tabiat o’rtasidagi uyg’unlikning ifodalanishi. Hikoyalarining syujeti, kompozitsion qurilishi va badiiy xususiyatlari. Adib hikoyalarida tarixiy davrga xos voqealar bayoni.

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o’qilgan asarlar muhokamasi. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**39-40-mavzu. Shavkat Rahmon she’rlari. “Tungi manzara”, “Tong ochar ko’zlarin...”, “Oy sinig’i”, “Anorga qasida”, “Muhabbat”, “Jangda o’lgan emas biror bahodir”, “Qodiriy va yoshlar”, “Baxt so’zi” she’rlari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Shavkat Rahmon hayoti va ijodi to’g’risida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining yetakchi xususiyatlari. Shoir she’riyatining asosiy mavzulari. “Tungi manzara”, “Tong ochar ko’zlarin...”, “Oy sinig’i” kabi she’rlaridagi lirik qahramon tabiati. “Muhabbat”, “Jangda o’lgan emas biror bahodir”, “Qodiriy va yoshlar”, “Baxt so’zi” va boshqa she’rlarida shoirning o’ziga xos qarashlarining ifodalanishi. Shoir poetik mahorati, she’rlarining badiiy latofati.

**41-42-mavzu. Muhammad Yusuf. “Vatanim”, “Mehr qolur”, “Yurtim, ado bo’lmas armonlaring bor” she’rlari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot.

Muhammad Yusuf she’rlarida insondagi yashirin tuyg’ularning samimiy tasvirlanishi. His-tuyg’ularning samimiyligi va haqqoniyligi Muhammad Yusuf she’rlarining yetakchi fazilati sifatida. Shoir she’rlarida inson ko’nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo’lgan sezgilarning o’ta tabiiy aks ettirilishi.

Muhammad Yusuf she’rlarining jozibadorligini ta’minlab turgan samimiylik, musiqiylik va tasvir o’ynoqiligi.

**O’quvchilar sinfda va mustaqil o’qishlari, yod olishlari lozim bo’lgan asarlar:**

G’afur G’ulom. “Vaqt”, “Bilib qo’yki, seni Vatan kutadi” she’rlari.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi.

Usmon Nosir. “Yurak”, “Nil va Rim”, “Monolog” she’rlari.

Said Ahmad. “Ufq” romani.

Ozod Sharafiddinov. “O’lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” maqolasi.

To’ra Sulaymon. She’rlar.

Shavkat Rahmon. She’rlar.

Muhammad Yusuf. She’rlar.

#### **IV. JAHON ADABIYOTI**

## (6 soat, A2+: 2 soat)

### **43-44-mavzu. Fuzuliy. Gʻazallar. (2 soat)**

Shoir haqida qisqacha maʼlumot. “Shifoyi vasl qadrin...”, “Gʻamzasin sevding, koʻngul”, “Qilmagʻil zinhor izhor ehtiyoj...” gʻazallarida ifodalangan yuksak badiiy mahorat, ishq va oshiqlik tasviri. Ulardagi chuqur falsafiy fikrlar, teran mushohada va lirik qahramon shaxsiyati talqini.

### **45-46-mavzu. Robindranat Thakur. “Suba” hikoyasi. (2 soat)**

Thakur hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot.

Hikoyada insoniy gʻururdan mahrum etilgan, nafsig qul kishilar bilan sitamdiya, biroq ezgu tuygʻular sohibi boʻlgan odam oʻrtasidagi ziddiyatning ifodalanishi. Asarda ezgulik va manfaatparastlik, insoniylik va eʼtiqodsizlik toʻqnashuvining turli xarakterlar misolida koʻrsatilishi. Adibning tasvirlash mahorati.

### **47-48-mavzu. Sergey Yesenin. “Dogʻlar ketmish majruh koʻngildan...”, “Singlim Shuraga”, “Ona ibodati”, “It haqida qasida” sheʼrlari. (2 soat)**

Shoir hayoti va ijodi haqida qisqacha maʼlumot. Yesenin va Oʻzbekiston. “Fors taronalari” turkum sheʼrlarining yozilishi tarixi.

Sergey Yesenin sheʼrlarida Sharq ruhiyatining nozik ilgʻab olinishi va mahorat bilan aks ettirilishi. Sheʼrlardagi lirizm va ritm. Tilning jozibadorligi va obrazlarning milliy oʻziga xosligi. Sheʼrlardagi lirizm va musiqiylikni saqlab qolishda Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

## **Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish):

### **A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab, koʻrib tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, sheʼriy asar namunalarini ifodali oʻqiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

turli janr va hajmdagi 6-8 ta sheʼriy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yoʻnalishda insho (5-6 sahifa) yoza oladi;

adabiy til meʼyorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli soʻz, badiiy asarlardan oʻrinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

### **A2+**

turli janrdagi matnlarni obrazga kirib, ifodali oʻqiy oladi;

turli janr va hajmdagi 8-10 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

#### **A2**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she'riy asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asari qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

#### **A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi; adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi;

asarlarga annotatsiya hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi;

notiqlik san'atida reja va vaqt me'yoring ahamiyatini tusha oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

Fuzuliy. G'azallar.

Robindranat Thakur. "Suba" hikoyasi.

Sergey Yesenin. She'rlar.

**Mavzularni o'rganish uchun – 48 soat (A2+: 74 soat).**

**Nazorat ishlari uchun – 12 soat (A2+: 16 soat).**

**Takrorlash uchun – 4 soat.**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi – 4 soat (A2+: 8 soat).**

**Jami: 68 soat, A2+: 102 soat.**

**"Notiqlik san'ati" (Yondosh dastur)**

**(A2+: 34 soat)**

**Kirish. “Notiqlik san’ati” – hayotiy ehtiyoj. (1 soat)**

Notiqlik san’atining ijtimoiy-ma’naviy hayotda tutgan o‘rni. Uning muloqot jarayonidagi ahamiyati.

**Nutqning ma’no turlari: tavsif. (2 soat)**

Uning narsa-hodisa, predmet, inson va boshqalarning asosiy xususiyatlarini tavsiflab, ularning muhim va nomuhim jihatlarini ko‘rsatib berishga yo‘nalganligi.

**Nutqning ma’no turlari: hikoyalash. (2 soat)**

Hikoyalashning tarkibiy qismlari. Bayondagi mantiqiy izchillik, hodisalar orasidagi sababiy bog‘lanishlar mohiyatining ko‘rsatilishi.

**Fikrga ishontirish – notiqlik asosi sifatida. (2 soat)**

Kitob haqidagi hikmatlar to‘g‘risida (“Axloq gulistoni va odob bo‘stoni”ning 2-bobidan).

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Nutqning ma’no turlari: mushohada. (1 soat)**

Uning narsa va hodisalar haqidagi turli nuqtayi nazarlarni ko‘rsatishga yo‘nalgani.

**So‘z – nutq materiali va quroli. (2 soat)**

Buyuk notiqlar so‘z haqida.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Notiqlik san’ati va nutq sifati. (1 soat)**

Nutqda ko‘p ma’noli so‘zlar va omonimlardan foydalanishning ahamiyati.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Nazorat ishi: (2 soat)**

“Nutqning ma’no turlari”

**Notiqlik san’atida reja va vaqt me’yori. (2 soat)**

Rejaning matnni yaxlit hamda alohida qismlarga bo‘lishdagi ahamiyati. Uning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa va boshqalarning o‘ziga xosligi.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Nutq ta’sirchanligi ustida ishlash. (2 soat)**

Nutqni ta’sirchan qiladigan vositalar. Bu boradagi asosiy xato va kamchiliklar.

**Tahrir nima? (2 soat)**

Tahrir zaruriyati. Tahrirda ma'no va mantiqning ustuvorligi. Ortiqcha yoki yetishmaydigan qismlar haqida tushuncha. Ega bilan kesimning, qaratqich va qaralmishning mutanosibliigi. Uyushiq bo'laklar.

**Amaliy mashg'ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Notiq mahorati. (2 soat)**

Notiq va auditoriya. Notiqning tayyorgarlik bosqichlari. Nutq jarayonida notiqning ahloqiy-ma'naviy nuqtayi nazari.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

“Ta'sirchan nutq qanday bo'lishi kerak?”

**Xulosa. (1 soat)**

Nutq tayyorlash bo'yicha maxsus tavsiyalar. Nutq, notiq va ma'naviyat.

**Mavzularni o'rganish uchun – 20 soat**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun – 10 soat**

**Nazorat ishlari uchun – 4 soat**

**9-SINF**

**(102 soat, haftasiga 3 soatdan), (A2+: 136 soat).**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o'z faoliyatida qo'llay olish.

**A2+**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug'at, ma'lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma'naviy ehtiyojga aylanta olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish;

badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish; o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera olish.

**A2+**

badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san‘at va boshqalarga doir kitoblarni muntazam o‘qish, o‘rganish, va xulosa chiqarish, tegishli holatlarda ulardan o‘z fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va unda faol ishtirok etish;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo‘nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma‘naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o‘ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...) ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yuritish.

**A2+**

badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma‘naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay olish, his etish va boshqalarga yetkazishga intilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

badiiy adabiyot va san‘atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta‘sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

**A2+**

badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma‘naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to‘g‘ri tushunish va talqin qila olish, ulardagi estetik jihatlarni ilg‘ay olish hamda tushuntirib bera olish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va undan foydalana olish;

**A2+**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'la olish hamda ulardan foydalana olish.

### **1-mavzu. Ruhiy kamolot vositasi. (1 soat)**

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur mahsuli sifatida. Shaxs kamolotida obrazli tafakkurning o'zni. Adabiyot inson ruhini shakllantirish vositasi sifatida. Mantiqiy va badiiy tafakkurning o'zaro aloqador hamda farqli jihatlari.

Komil shaxsni shakllantirishda hissiyot tarbiyasining o'zni. Kishi hissiyotini shakllantirishda badiiy so'zning o'zni. Komil shaxs ma'naviyatining ruhiy qirralarini ezgu qarashlarga muvofiq shakllantirish badiiy adabiyotning bosh maqsadi sifatida.

Badiiy adabiyotning tarbiyaviy, estetik, ma'rifiy, kommunikativ vazifalari mavjud ekanligi. Insoniyat tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan axloqiy xislatlarni o'quvchilarda tarkib toptirishga intilish badiiy adabiyotning tarbiyaviy vazifasi sirasiga kirishi. Insonning tuyg'ulari, hissiyotinigina rivojlantirib qolmay, balki tafakkurini ham taraqqiy ettirishga xizmat qilishi badiiy adabiyotning ma'rifiy vazifasi ekanligi.

## **I. XALQ OG'ZAKI IJODI (5 soat, A2+: 1 soat).**

### **2-6-mavzu. "Alpomish" dostoni. (5 soat, A2+: 6 soat)**

Turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati shakllanishida "Alpomish" dostonining o'zni. Doston ko'lamining estetik tafakkur va turkiy saltanatchilik bilan bevosita bog'liqligi (1 soat).

Dostonda o'zbek milliy ruhiyati va urf-odatlarini tasviri. Mardlik, sadoqat, ezgulik, iymonga egalik fazilatlarining Alpomish, Qorajon, Oybachin, Qaldirg'och obrazlari orqali ifodalanishi (3 soat).

Asarning til xususiyatlari. Dostonda qo'llanilgan tasvir usullari (1 soat).

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asar:**

"Alpomish" dostoni.

## **II. O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI (25 soat, A2+: 7 soat))**

### **7-16-mavzu. Alisher Navoiy. "Xamsa" asari. "Farhod va Shirin" dostoni. (10 soat, A2+: 12 soat)**

Navoiy ijodi – o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi. Shoirning hayot va ijod yo'li haqida (1 soat).

"Xamsa" - o'zbek badiiy tafakkurining cho'qqisi (1 soat).

“Farhod va Shirin” dostonining “Xamsa”da tutgan o‘rni. Dostonning obrazlar tizimi. Farhod shoir ideali tajassumi sifatida. Komillik yo‘liga kirgan inson manzillari tasviri (2 soat).

Shirin obrazi. Unda ayollarga xos ma’naviy fazilatlar talqini (2 soat).

Dostondagi boshqa obrazlar. Dostonda yaxshilik va yomonlik, razolat va adolat, butunlik va noqislik o‘rtasidagi ziddiyatning jonli shaxslar timsollarida ko‘rsatilishi. Doston qahramonlaridagi ma’naviy xususiyatlarga alohida urg‘u berilgani (2 soat).

Farhod va Xusrav dialogi doston voqealarining kulminatsiyasi sifatida. Dostonning badiiy xususiyatlari (1 soat).

Nazariy ma’lumot. Adabiyotda komil inson tasviri (1 soat).

**17-23-mavzu. Zahiriddin Muhammad Bobur. Lirika. “Boburnoma”. (7 soat, A2+: 10 soat)**

Hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma’lumot. Ijodiy merosining badiiy xususiyatlari. Shoirning she’riy ijodi. Shoir lirikasining hasbi hollik xususiyati. “Mening ko‘nglumki, gul g‘unchasidek tahbatah qondur”, “Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur” g‘azallarida Boburning ziddiyatlarga to‘la hayotining poetik aks etganligi (2 soat).

Shoir g‘azallaridagi soddalik va samimiylilik yuksak san’atkorlik namunasi sifatida.

“Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbatlari”, “Sendek menga bir yori jafokor topilmas” g‘azallarida hayot zavqi. Umr g‘animatligining betakror badiiy ifoda etilganligi. “Yoz fasli...” g‘azalida qo‘llangan she’riy san’atlar. “Sendek menga bir yori jafokor topilmas” she’rida vazn, qofiya, radif hamda poetik san’atlarning qo‘llanishi.

Boburning o‘zbek lirikasi taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rni (1 soat).

“Boburnoma”da Andijon va Samarqand tasviri. Asarda tabiat tasviri (hayvonot va nabotot tasviri). “Boburnoma” – o‘zbek nasrining nodir namunasi sifatida. Nazariy ma’lumot. Memuar asar (4 soat).

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, she’riy asar namunalarini ifodali o‘qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo‘nalishda insho (6-7 sahifa) yoza oladi;



adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi; adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi; asarlarga annotatsiya hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she'riy asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asar qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab, xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi; adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi;

asarlarga annotatsiya taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi;

nutq ta'sirchanligiga daxl etuvchi omillarni tushuna oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**24-27-mavzu. Muhammad Rizo Ogahiy. Lirik. (4 soat)**

Hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot. Ijodiy merosi. Shoirning mumtoz adabiyot tarixida tutgan o'rni.

“Ta'viz ul-oshiqin” XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasi ekanligi. Shoir g'azallarida tabiat manzaralari. Navro'z, bahor, qish haqidagi she'rlari. “Baland aylab quyoshg'a roya Navro'z”, “Soqiyo, mayxoralar jismidin oldi xob

qish”, “Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish” g‘azallarida shoir hayotining aks etishi (1 soat).

“Iloho, har kuning Navro‘z bo‘lsin” g‘azalida an‘anaviy yangi yil tilaklari va ularning poetik ifodasi. “O‘yla yetkurdi jahong‘a ziynatu oro bahor” g‘azalida bahor vasfi. Jonli tabiatning fusunkor tasvirida shoirning tashxis san‘atidan samarali foydalanishi. Go‘zallik tasvirining bahor (umr) g‘animatligi haqidagi ko‘hna falsafaga bog‘lab berilishi (2 soat).

Ogahiyning ishqiy g‘azallari. “Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo‘lib boshingdan aylansin”, “Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina” g‘azallari ishqiy she‘rning yuksak namunasi sifatida. Mazkur g‘azallardagi yor timsolida (xususan, unga murojaatda) shohga xos xususiyatlarning aks etishi (1 soat).

Shoirning boshqa poetik janrdagi asarlari haqida. Ogahiyning kichik she‘riy janrlardagi asarlari: tuyuq, ta‘rix, tarafayn. “Dahr uyi bunyodkim, su(v) uzradur mahkam emas” tarji‘bandi va Muhammad Rahimxon Soniyga bag‘ishlangan “Qasidai nasihat”da Ogahiyning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarining aks etishi. Nazariy ma‘lumot. Lirik qahramon obrazi (1 soat).

### **28-31-mavzu. Furqat lirikasi. (4 soat)**

Hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma‘lumot. Adabiy merosi haqida umumiy ma‘lumot. Furqat – mashhur lirik shoir.

“Fasli navbahor o‘ldi” g‘azalida bahorning rangin, fusunkor manzarasi tasviri. Bahor va umrning go‘zalligi, g‘animatligi. She‘rning badiiyati. “Bormasmiz” she‘rida ham insoniy qadrni baland tutishning madh etilishi, ayni paytda, havoyilik va xudbinlikning tanqid qilinishi.

“Surmadin ko‘zlar qaro” g‘azalida go‘zal yor portretining inja tasviri. G‘azallardagi poetik san‘atlar. “Bir qamar siymoni ko‘rdim, baldai Kashmirda” g‘azalida ishqiy mavzuning g‘urbatdagi shoir taqdiri bilan bog‘lab berilishi. Furqat lirikasidagi g‘urbat ohanglarining shoir hayot yo‘li bilan bevosita bog‘liqligi.

“Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasida tutqinlik fojiasidan kuyunish, erksizlikdan qayg‘urish, hurlikka tashnalik tuyg‘ularining ifodalanishi. Sayd, sayyod, lirik qahramon obrazlari.

Furqat ijodining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.

### **Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan “Farhod va Shirin” dostoni.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasi.

Muhammad Rizo Ogahiy lirikasi.

Furqat. “Sayding qo‘ya ber, sayyod” musaddasi.

### III. O‘ZBEK ADABIYOTINING YANGI BOSQICHI (24 soat, A2+: 14 soat)

#### **32-34-mavzu. Izzat Sulton. “Imon” dramasi. (3 soat, A2+: 5 soat)**

Izzat Sultonning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Uning “Imon” dramasi haqida. Inson har qanday sharoitda ham o‘z vijdoniga quloq tutib ish ko‘rishi, turli murakkab, chigal vaziyatlarda halollik, poklik, insof va diyonat singari chin insoniy fazilatlar bilan munosib yo‘l topishdek ezgu g‘oyaning asar mazmuniga singdirilganligi. Dramada yuksak axloq, halollik va poklikni o‘z imoni deb bilgan insonlarning hayotda uchrab turadigan tamagirlik, xudbinlik, haromdan hazar qilmaslik, vijdonsizlikka qarshi kurashida ochib berilishi. Asarning badiiy xususiyati.

#### **35-37-mavzu. Rauf Parfi she’riyati. (3 soat, A2+:4)**

Rauf Parfining hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot. Shoir she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, ularda inson ruhiy kechinmalarining kuylanishi.

Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar”, “Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she‘rlari talqini. She‘rlardagi lirik qahramon his-tuyg‘ularining ta’sirchan ifodasi. Tabiat go‘zalliklarini tasvirlashda shoirning o‘ziga xos mahorati.

#### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish):

##### **A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni ko‘rib, tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, she’riy asar namunalarini ifodali o‘qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo‘nalishda insho (6-7 sahifa) yoza oladi;

adabiy til me‘yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so‘z, badiiy, publitsistik asarlardan o‘rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

##### **A2+**

turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o‘qiy oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko‘rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

#### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

##### **A2**

xalq og‘zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she’riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asar qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab, xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildira oladi;

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi;

nutq tayyorlashda reja qismlarining tutgan o'rnini tushuna oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+:2)**

**38-42-mavzu. Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadislar (5 soat, A2+: 7 soat)**

Imom Buxoriy va uning "Al-jome' as-sahih" («Ishonchli to'plam») hadis to'plami haqida ma'lumot. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislarining inson ma'naviyati yuksalishida tutgan o'rni. Axloq-odobga oid hadislarning o'ziga xos xususiyatlari. Ularda ezgu insoniy fazilatlarning ixcham voqeiy hikoyalar asosida ifodalanishi. Hadislarning millatimiz axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni.

Komil insonning ma'naviyatini shakllantirishda hadislarning o'rni. Hadislarda bildirilgan fikrlar va o'quvchi tabiatidagi sifatlar orasidagi aloqadorlik. Mehribonlik, bag'rikenglik, ma'rifatga chanqoqlik, odillik singari fazilatlarning ahamiyati xususida. Hadislar bilan o'zbek xalq maqollari va buyuk allomalar hikmatli so'zlarining mushtarak jihatlari. Hadis haqida tushuncha.

**43-45-mavzu. Oybek lirikasi. (3 soat)**

Oybek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. Lirik qahramon ruhiyatining kashf etilishi va so'z qo'llashdagi mahorat. Shoir lirikasida tabiat, inson va tarix munosabatining ifodalanishi. "Na'matak", "Sozim", "Yig'i kelmaydi sira", "Mashrab" she'rlarining g'oyaviy-badiiy tahlili. Oybekning she'riy mahorati.

**46-50-mavzu. Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" asari (5 soat, A2+: 7 soat).**

Odil Yoqubov romanlari xususida. Asarda temuriyzoda hukmdor Ulug‘bekning allomalik fazilatlarini va insoniy xislatlarini yoritilishi. Asarda shoh va olim Ulug‘bekning fojiasi haqidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning o‘zaro munosabati. Romandagi zamon tasviri, undagi qahramonlarning o‘ziga xos tavsifi. Tasvirlangan voqealar va ularda ilgari surilgan ma’naviy jihatlari.

**7-nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

**51-55-mavzu. Abdulla Oripov. “Sarob” («O‘ylarim»), “Bahor”, “Genetika”, “Bahor kunlarida”, “Kuz manzaralari” she’rlari. “Sohibqiron” dramasi. (5 soat, A2+: 7 soat)**

Abdulla Oripovning hayot va ijod to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Abdulla Oripov – zamonaviy o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari. She’rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She’riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy ruhning uyg‘unligi. Shakliyl-ustubiy rang-baranglik (1soat).

“Sarob” she’rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirik talqini. “Bahor kunlarida”, “Kuz manzaralari” she’rlarida tabiatga munosabat orqali lirik qahramon kayfiyatlari, o‘ylarining, “Holat” she’rida esa, tabiiylikning o‘ziga xos yo‘sinda ifodalanishi. “Ketganlar yodi bu” she’rida shoir qalbining namoyon bo‘lishi. “Genetika” she’rida avlod-ajdod munosabatlarining serbo‘yoq va ta’sirchan ifodalanishi (2 soat).

“Sohibqiron”dramasida Amir Temur ruhiy holatining tasvirlanishi. Uning Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatining ishonarli yoritilishi (2 soat)

#### **IV. JAHON ADABIYOTI (14 soat, A2+:9 )**

**56-59-mavzu. Vilyam Shekspir. “Gamlet” tragediyasi. (4 soat)**

Shekspir hayoti va ijodi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Uning jahon dramaturgiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi. “Gamlet” asarida insoniy tuyg‘ular, oila sha’ni bilan bog‘liq muammolarning tig‘iz konfliktlar asosida badiiy talqin etilishi. Gamlet obrazida aks etgan inson ruhiyatining murakkab jihatlari. Gamletning o‘z-o‘zi bilan ruhiy olishuvi. Gamlet va Ofeliya, Gamletning boshqa qahramonlar bilan o‘zaro munosabatlari. Asarda burch va muhabbat, sadoqat mavzularining tutash tasviri. Asarning o‘zbek tiliga mohirona tarjima etilishi.

Nazariy ma’lumot. Tragik obrazlar va hayot haqiqati. Ruhiy tahlil.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish):

**A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, sheʼriy asar namunalarini ifodali oʻqiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yoʻnalishda insho (6-7 sahifa) yoza oladi;

adabiy til meʼyorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli soʻz, badiiy, publitsistik asarlardan oʻrinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

**A2+**

turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali oʻqiy oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna koʻrinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

**Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, sheʼriy, dramatik asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuygʻular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asarni qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab, xulosa chiqara oladi;

xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda ogʻzaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va soʻz bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning gʻoyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildira oladi;

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi;

notiq mahoratini oshiruvchi asosiy omillarni izohlay oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari oʻqilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:**

Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadislar  
Odil Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi” asari.  
Oybek. She‘rlar.  
Abdulla Oripov. She‘rlar.  
Vilyam Shekspir. “Gamlet” tragediyasi.

**60-62-mavzu. O‘ljas Sulaymonov. She‘rlar. (3 soat)**

O‘ljas Sulaymonovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Uning she‘rlaridagi yangicha ohanglar talqini. Shoirning “Arg‘umoq”, “Maxambetga” she‘rlari, “Qoyilmisan insonga zamin” dostonidagi vatan va vatanparvarlik g‘oyalarining o‘ziga xos talqini. Ularda milliy va umuminsoniy g‘oyalarning yaxlit tarzidagi ifodasi. Shoir she‘rlarining badiiy o‘ziga xosligi. Ularning ma‘rifiy-estetik ahamiyati.

**63-65-mavzu. A.S.Pushkin. She‘rlar. “Yevgeniy Onegin” she‘riy romani. (3 soat)**

Shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Pushkin rus adabiyotining buyuk namoyandasi. “Yevgeniy Onegin” she‘riy romani. Asarda XIX asrdagi rus xalqi hayotining yorqin ifodalanishi. Yevgeniy, Lenskiy va Tatyana obrazlari. Asarning g‘oyaviy yo‘nalishi va badiiy xususiyatlari. Pushkin ijodining o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga, shu jumladan, o‘zbek adabiyotida she‘riy roman janrining paydo bo‘lishiga ta‘siri.

Nazariy ma‘lumot. She‘riy roman.

**66-69-mavzu. Chingiz Aytmatov. “Asrga tatigulik kun” romani. (4 soat)**

Chingiz Aytmatovning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rni. Adib romanlari, jumladan, “Asrga tatigulik kun” asari haqida ma‘lumot (1 soat).

Asar markazidagi Edigey obrazi, uning mashaqqatli hayot yo‘li, ruhiy olami orqali kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashagan chin insonning ifodalanishi (1 soat).

Romanda Edigeyning yaqin do‘sti Kazangap vasiyatini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi zahmatlari ifodasining ta‘sirli berilishi. Unda jamiyatdagi ma‘naviy inqirozlar mohiyatining ochilishi. Asarda hodisalarning falsafiy-badiiy talqini “Asrga tatigulik kun” romanining badiiy xususiyatlari (2 soat).

**Mavzu. Manas – Qirg‘iz xalq qahramonlik eposi. (A2+: 4 soat)**

Manasning turkiy dostonchilik tarixidagi o‘rni va ahamiyati. Undagi yetakchi g‘oyaviy-badiiy xususiyatlar. Unda qahramonona vatanparvarlikning o‘ziga xos tarzda aks etishi. Doston badiiyati.

**Mavzu. Hofiz Sheroziy. G‘azallar (A2+: 3 soat)**

Hofiz Sheroziyning hayot va ijodi haqida qisqacha ma‘lumot. Hofiz g‘azallarining jozibasi, ularning isyonkor ruhi. “Agar ko‘nglimni shod etsa...”, “Go‘zal gul chog‘i yashnar...” g‘azallari tahlili. Shoirning san‘atkorligi.

## **Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat)**

### **V. MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTI (5 soat, A2+: 3 soat)**

#### **70-71-mavzu. Nasr. (2 soat)**

XX asrning 90-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. O'zbek adabiyoti tarixida mustaqillik davri adabiyoti degan yangi bosqichning boshlanishi. Zamonaviy o'zbek nasridagi poetik izlanishlar. Nasriy asarlarda inson tasviri.

#### **72-73-mavzu. Nazm. (2 soat)**

Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi izlanishlar. Istiqlol davri she'riyatiga xos badiiy xususiyatlar. Shoirlar ijodida milliylik va vatanparvarlik tuyg'ulari ifodasi. Milliy qadriyatlarga e'tiborning kuchayishi. Vatan mavzusi.

#### **74-mavzu. Dramaturgiya. (1 soat, A2+: 2 soat)**

Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasida yangi tarixiy davr hayotining haqqoniy tasvir etila boshlashi.

Mustaqillik davri adabiyotining o'ziga xos jihatlari.

Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar obraziga murojaat. Tarixiy o'tmishning milliy istiqlol mafkurasi asosida o'rganilishi. Adabiyotda haqqoniylik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi.

Mustaqillik davri adabiyotiga jahon adabiyotidagi yuksak badiiy mezonlar bilan yondashilishi.

Mustaqillik davri adabiyotida tarixiy mavzu va tarixiy shaxslar obraziga murojaat. Tarixiy o'tmishning milliy istiqlol mafkurasi asosida o'rganilishi. Adabiyotda haqqoniylik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarining ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi.

Mustaqillik davri adabiyotiga jahon adabiyotidagi yuksak badiiy mezonlar bilan yondashilishi.

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

#### **A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, she'riy asar namunalarini ifodali o'qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

turli janr va hajmdagi 8-10 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va tegishli yo'nalishda insho (6-7 sahifa) yoza oladi;



adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi;

turli janrdagi adabiyotlarni mustaqil tanlab, mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.

**A2+**

Turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi;

turli janr va hajmdagi 10-12 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalari (nasriy, she'riy asar yoki ulardan olingan parcha)ni farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topadi va tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asarni qahramonlari xarakteriga xos fazilat va nuqsonlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab, xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildiradi;

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi;

buyuk mutafakkirlarning notiqlik haqidagi qarashlarini izohlay oladi.

**Nazorat ishi: Insho va uning tahlili. (2 soat, A2+:3)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Nazorat ishi: Test topshiriqlari. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qilgan asarlar muhokamasi: (1 soat, A2+:2)**

**O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar:**

O'lgas Sulaymonov. She'rlar.

A.S.Pushkin. "Yevgeniy Onegin" she'riy romani.

Chingiz Aytmatov. "Asrga tatigulik kun" romani.

Mustaqillik davri adabiyoti (nasr, nazm, dramaturgiya).

**Mavzularni o‘rganish uchun – 74 soat (A2+: 100 soat).**

**Yozma ishlar uchun – 20 soat (A2+: 24 soat).**

**Takrorlash uchun – 4 soat.**

**Sinfdan tashqari o‘qilgan asarlar muhokamasi uchun – 4 soat (A2+: 8 soat).**

**Jami: 102 soat, A2+: 136 soat.**

### **“Notiqlik san’ati” (Yondosh dastur)**

**( A2+: 34 soat)**

**Kirish. “Notiqlik san’ati” va unga erishish yo‘llari. (1 soat)**

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Notiq va imo-ishoralar. Imo-ishoralarning ma’no qamrovi, ulardan foydalanish usullari.

**Xat (maktub) qanday yoziladi? (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Nutqning ma’no turlari: hikoyalash. Shu tipdagi matnlar ustida ishlash.

**Fikrga ishontirish – notiqlik asosi sifatida. (2 soat)**

Insoniy fazilatlar haqidagi hikmatlar (“Axloq gulistoni va odob bo‘stoni”ning 3-bobidan).

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Nutqning ma’no turlari: mushohada. Shu tipdagi nutq namunalari mujassamlashgan matnlar bilan ishlash.

**Notiqlik san’ati va nutq sifati. (2 soat)**

Simnonim va antonimlardan foydalanish.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**Reja va uning turlari: Sodda va murakkab rejalar ustida ishlash (2 soat)**

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

**Nutq ta’sirchanligi ustida ishlash. (2 soat)**

Mumtoz va zamonaviy matn namunalari asosida nutqning ifoda imkoniyatlarini o‘rganish.

**Amaliy mashg‘ulot. (2 soat)**

Tahrir nima? Tahrirda faktik, imloviy, ishoraviy, uslubiy jihatlarni e’tiborga olinishi.

**Notiq mahorati. (2 soat)**

Matndagi har bir soʻz ustda ishlash. Izohli lugʻat – soʻz boyligini oshirish omili.

**Amaliy mashgʻulot. (2 soat)**

Matn bilan ishlash.

**Buyuk mutafakkirlar notiqlik haqida. (2 soat)**

Ular qarashlarining mohiyati hamda ahamiyati.

**Nazorat ishi. (2 soat)**

**Xulosa. (1 soat)**

**Mavzularni oʻrganish uchun –16 soat**

**Amaliy mashgʻulotlar uchun – 16 soat**

**Nazorat ishi uchun – 4 soat**

**Oʻquvchilarda shakllangan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lugʻat, maʼlumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana oladi va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildiradi, xulosa chiqaradi, ibrat oladi va oʻz faoliyatida qoʻllay oladi.

**A2+**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lugʻat, maʼlumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) zarur boʻlgan axborotlarni izlab topa oladi, saralaydi, qayta ishlaydi, uzatadi, saqlaydi, xavfsizligini taʼminlaydi va foydalanishda media-madaniyatga rioya qiladi.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida maʼnaviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-maʼnaviy ehtiyojga aylanta oladi;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni eʼzozlaydi va ularga amal qiladi;

badiiy kitoblarni muntazam oʻqiydi va oʻrganadi, xulosa chiqaradi, ibrat oladi;

oʻz xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha oladi, oʻzini nazorat qila biladi, ogʻzaki va yozma matnlar mazmuniga toʻgʻri baho bera oladi.

**A2+**

badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, sanʼat va boshqalarga doir kitoblarni muntazam oʻqiydi, oʻrganadi va xulosa chiqaradi, tegishli holatlarda ulardan oʻz fikrining isboti va dalili sifatida amaliyotda foydalana oladi.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;

maktabda va maktabdan tashqari adabiy-badiiy yo'nalishdagi tadbirlarda (turli mavzudagi ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etadi, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo'ladi;

badiiy asarlarda xilma-xil shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan qahramon va personajlarning ijtimoiy-ma'naviy, fuqarolik, insoniylik va boshqa burch hamda huquqlarini bajarishlaridagi o'ziga xosliklar (halol, vijdonli, jonkuyar, loqayd...)ga qarab turib xolis va jiddiy mulohaza yurita oladi.

#### **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan yuksak ma'naviy fazilatlar, shuningdek, yuksak badiiyat namunalarini anglay oladi, his etadi va boshqalarga yetkazishga intiladi.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

badiiy adabiyot va san'atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o'ziga xosliklarni anglaydi, ulardan ta'sirlanadi, ulardagi go'zallik va ezgulikdan o'rnak olishga intiladi, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana oladi.

#### **A2+**

badiiy asarlarda aks etgan tarixiy, ma'naviy va madaniy hodisalar mohiyatini to'g'ri tushunadi va talqin qila oladi, ulardagi estetik jihatlarni ilg'ay oladi hamda tushuntirib bera oladi.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza oladi;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita oladi;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy oladi va undan foydalana oladi.

#### **A2+**

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'la oladi hamda ulardan foydalana oladi.

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:**

**Adabiy-nutqiy kompetensiyalar** (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish):

#### **A2**

badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildira oladi;

nasriy, she'riy, dramatik asar namunalarini ifodali o'qiydi va mazmun-mohiyatini tushuna oladi;

badiiy asar syujetini qayta so'zlab bera oladi;

turli janr va hajmdagi 8-10 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va ushbu yo'nalishlarda insho (5-7 sahifa) yoza oladi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi;

maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, turli janrdagi adabiyotlarni tanlab mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira oladi.

**A2+**

turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi;

turli janr va hajmdagi 10-12 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro eta oladi.

### **Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi:**

**A2**

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyoti namunalarini (nasriy, she'riy, dramatik asar yoki ulardan olingan parchani) farqlaydi va tahlil qila oladi;

badiiy tasvir vositalarini farqlay oladi, ularni berilgan matndan topib, tahlilda foydalana oladi;

asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita oladi;

badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila oladi;

asar qahramonlari xarakteriga xos bo'lgan fazilatlar va xislatlarga munosabat bildiradi, baholay oladi, ularni hozirgi kun bilan qiyoslab xulosa chiqara oladi;

xalq og'zaki ijodi, mumtoz, zamonaviy va jahon adabiyotiga oid asar va uning qahramonlariga yozma hamda og'zaki tavsif bera oladi;

musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so'z bilan ifodalab bera oladi.

**A2+**

asarning g'oyaviy-badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratini baholay oladi;

adabiy janr imkoniyatlaridan kelib chiqadigan badiiy-estetik hodisalarga mustaqil va ijodiy munosabat bildira oladi;

asarlarga annotatsiya, taqriz hamda kichik xabar, lavhalar yoza oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 1997- yil 29- avgustdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 16 - avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirli va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 -yil 1- iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomilashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013- yil 8- maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 140-sonli qarori.
10. Internet saytlari: [www.fgosvo.ru](http://www.fgosvo.ru), [ru.wikipedia.org](http://ru.wikipedia.org) , [mel.fm](http://mel.fm) (Rossiya); [online.zakon.kz](http://online.zakon.kz), [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz) (Qozog'iston); ushbu internet saytlaridan Rossiya, Qozog'iston, Koreya va hk. Davlatlarining tajribasi o'rganildi.

**Umumiy o‘rta ta’limning Adabiyot fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	To‘xliiev Boqijon	Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti professori, f.f.d.
2	Karimov Bahodir Nurmetovich	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d.
3	Usmanova Komila Rahmonovna	Respublika ta’lim markazi bosh metodisti
4	Ahmedov Hoshimjon	Toshkent Davlat Texnika universiteti qoshidagi AL ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
5	Toshmirzaeva Sharofat Mirboboevna	XTV tasarrufidagi Filologiya yo‘nalishidagi ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
6	Nurmuxammadov Jamoliddin Shermuhammad o‘g‘li	Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san’at ALning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
7	Ergasheva Aykumush Xushvaqtoevna	Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar 22- umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
8	Turdieva Gulnoza Sayfullaevna	O‘zMU qoshidagi Zangiota ALning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
9	G‘affarova Tal’at	Qarshi DU “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini professori
10	Karimova Fotima Botirovna	Chilonzor tumani 281-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
11	Yusupova Mohinur Ataboevna	Respublika ta’lim markazi bosh metodisti
<b>Ekspert guruhi tarkibi</b>		
1	Mamanboeva Gulchehra	Toshkent shahar XTBB Metodika markazi ona tili va adabiyot fani metodisti
2	Usmanova Mahmuda	Toshkent shahar Yunusobod tuman ona tili va adabiyot fani metodisti
3	Valieva Mahmuda	Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 274-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

### 3-§. O‘zbek tili fani

**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘zbek tili (ta‘lim o‘zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta‘lim muassasalari uchun) fanini o‘rganish bosqichlari**

<b>Ta‘lim bosqichi</b>	<b>Bitiruvchilar</b>	<b>Standart darajasi</b>	<b>Daraja nomlanishi</b>
<b>Umumiy o‘rta ta‘lim</b>	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	O‘zbek tili fanini o‘rganishning boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘zbek tili fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	O‘zbek tili fanini o‘rganishning kuchaytirilgan boshlang‘ich darajasi
	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	O‘zbek tili fanini o‘rganishning tayanch darajasi
	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘zbek tili fani chuqur o‘rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2+	O‘zbek tili fanini o‘rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
	O‘zbek tili chuqurlashtirilmagan o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalari bitiruvchilari	B1	O‘zbek tili fanini o‘rganishning umumiy darajasi
	O‘zbek tili chuqurlashtirilgan o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalari bitiruvchilari	B1+	O‘zbek tili fanini o‘rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

#### **O‘zbek tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari**

**Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘zbek tili fanini o‘qitishning maqsadi:**

o‘quvchilarning o‘qish va mehnat jarayonida, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini bayon eta olish, eshitilgan axborotni idrok etish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish;

o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari, o‘zbek xalqining tarixiy, madaniy hayoti, jahon madaniyatiga va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rganish orqali milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish malakasini rivojlantirishdan iborat.



**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarida oʻzbek tili fanini oʻqitishning asosiy vazifalari:**

oʻquvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun oʻzbek tili fani boʻyicha oʻzlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qoʻllash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;

oʻquvchilarning oʻzbek tilida ogʻzaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

oʻquvchilarning oʻzlashtirgan bilimlari asosida oʻzini oʻzi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, koʻnikma va malakasini turli vaziyatlarda qoʻllay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

**Oʻzbek tili fani boʻyicha umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlim muassasalari oʻquvchilariga qoʻyiladigan malaka talablari**

**1. Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, gapirish, oʻqish, yozish*):**

**A1**

sodda savollar va gaplar, suhbatlarni tinglab tushuna oladi;

berilgan matnni (badiiy asardan parcha, sheʼr) oʻqib tushuna oladi;

matn (topishmoq, maqol, ertak, kichik hikoya, sheʼr) tarkibidagi yangi soʻzlar maʼnosini lugʻat yordamida tushuna oladi;

sodda savollarga javob bera oladi, maʼlumot soʻray oladi;

oʻzi, oilasi, yashash joyi, doʻstlari, tanishlari haqida gapira oladi;

mamlakatimiz ramzlari va bayramlari, anʼanalari haqida gapira oladi;

audio-video vositalar yordamida eshittirilgan soʻzlar va gaplar maʼnosini tushunib, gapira oladi;

topishmoq, tez aytish, ertak va kichik hikoyalarni oʻqib tushunadi, mazmunini soʻzlab bera oladi;

oʻzbek tilida oʻzlashtirilgan 600 ta soʻzni nutqida qoʻllay oladi;

oʻrganilgan mavzu doirasida oʻz fikrini 6 — 8 ta gap bilan izchil bayon qila oladi;

soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratish va boʻgʻin koʻchirish qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi;

oʻrganilgan soʻzlar va sodda gaplarni, tabriknoma, xat, soʻrovnoma maʼlumotlarini toʻgʻri yoza oladi;

25 — 30 soʻzdan iborat diktant matnini husnixat talablari asosida yoza oladi.

**A1+**

savollar va gaplarni, eshittirilgan qisqa matn, suhbat, qoʻshiq va sheʼrlarni tushuna oladi;

soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi;

xalq ogʻzaki ijodi (topishmoq, maqol, tez aytish, ertak) va bolalar adabiyoti namunalaridan olingan hikoya, sheʼrlarni oʻqib tushunadi va mazmunini soʻzlab bera oladi, mavzu yuzasidan yoshiga mos tarzda qisqa taqdimot qila oladi.

**A2**

audio-video vositalar orqali eshittirilgan xabarlar, ommabop va kundalik hayot mavzusidagi yangiliklarni tushuna oladi;

o'rganilgan mavzularda o'zaro suhbatlasha oladi va bahslarda ishtirok eta oladi;

suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to'g'ri qo'llay oladi va fikrga munosabat bildira oladi;

suhbatdoshining gapini bo'lish, suhbatga qo'shilish va unga aniqlik kiritish, nutqini sekinlashtirishga undash vositalaridan foydalana oladi;

ommabop materiallarni (gazeta, shaxsiy va elektron xatlar) o'qib tushunadi va mazmunini so'zlay oladi;

o'rganilgan matnlar asosida 1300 ta so'zni nutqida qo'llay oladi;

matnni (badiiy asardan parcha, hikoya, xabar) bir daqiqada 70 — 75 so'z tezligida o'qiy oladi;

70 — 80 so'zdan iborat matn asosida diktant; 90 — 100 so'zli matn asosida bayon yoza oladi; 11 — 15 gap hajmida matn tuza oladi;

ayrim ish qog'ozlarini (ariza, tarjimai hol, e'lon, tushuntirish xatini) yoza oladi.

## **A2+**

ko'rgan yoki eshitgan voqea-hodisani, hikoya, ertak, matn mazmunini gapirib bera oladi, unga munosabat bildira oladi;

o'zbek tiliga xos nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi.

## **B1**

shaxsiy qiziqishlari va kasbiga oid axborot va ma'lumotlarni tinglab tushuna oladi;

ijtimoiy va kasbga yo'naltirilgan mavzulardagi ommabop suhbatlarni, bahs-munozaralarni tushuna oladi, erkin suhbatlasha oladi, o'z rejalarini tushuntira oladi;

bayoniy va tavsifiy matnlar tuza oladi, matnni kengaytirib, qisqartirib so'zlab bera oladi;

kasbiy mavzularda taqdimot qila oladi, o'qilgan va ko'rilgan asar haqidagi taassuroti va unga munosabatini bayon qila oladi;

o'zbek tilida faol qo'llanadigan 1500 ta so'zni va 50 dan ortiq iboralarni nutqida qo'llay oladi;

90 — 100 so'zdan iborat matn asosida diktant yoza oladi, 2 — 2,5 bet hajmida ijodiy matn tuza oladi.

## **B1+**

Kasbiy mavzularda taqdimot qila oladi, o'qilgan asar va film haqidagi taassuroti va munosabatini bayon qila oladi;

ma'muriy ish qog'ozlari, mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlar va boshqa yozma topshiriqlarni imlo qoidalari asosida to'g'ri yoza oladi;

kasb-hunarga oid lug'at minimumini, o'zbek tilining milliy-madaniy leksikasini, ma'nodosh, shakldosh, uslubiy bo'yoqdor so'zlarni nutqda to'g'ri qo'llay oladi.

**2. Lingvistik kompetensiya** (*fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyat*):

## **A1**

o‘zbek tilining nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qila oladi va husnixat talablari asosida yoza oladi;

fikrni bayon qilish uchun zarur bo‘lgan sodda grammatik vositalarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

sodda gaplar tuza oladi.

### **A1+**

inkor, tasdiq va buyruqni ifodalovchi vositalarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

sodda matn tuza oladi.

### **A2**

o‘zbek tilidagi mustaqil so‘zlar, ularning yasalishi va morfologik shakllarini nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

gaplarni ma’noli bo‘laklarga ajrata oladi;

gaplarda tinish belgilarni to‘g‘ri qo‘llay oladi;

grammatik atamalarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

yasama (sodda, qo‘shma, juft) so‘zlar va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;

so‘zlarning yozilishi, grammatik vositalarning so‘zlarga qo‘shilishi bilan bog‘liq imlo qoidalarini biladi va ularni nutqda qo‘llay oladi.

### **A2+**

kasb-hunarga oid leksikani og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

o‘zbek tilidagi yordamchi so‘zlar va ularni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni nutqda qo‘llay oladi;

sodda gaplar tarkibida uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay oladi.

### **B1**

kasb-hunarga oid lug‘at minimumi, o‘zbek tilining milliy-madaniy leksikasini nutqda to‘g‘ri qo‘llay oladi;

murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni biladi;

o‘zbek tilining so‘zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy nutq uslublarini biladi;

ma’muriy ish qog‘ozlari, mutaxassislikka oid ichki hujjatlar, hisobotlarni to‘g‘ri yoza oladi.

### **B1+**

Mutaxassislik sohasidagi matnlar va suhbatlar mazmunini, atamalar ma’nosini tushuna oladi;

murakkablashgan sodda va qo‘shma gaplarni, qo‘shma gaplarni bog‘lovchi vositalarni farqlay oladi;

mutaxassislikka oid mavzularda ma’ruzalar qila oladi;

bitiruv malakaviy ishi va uning qisqa mazmunini yoza oladi.

## O‘ZBEK TILI FANI O‘QUV DASTURI (2-9-sinf) UQTIRISH XATI

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o’rta ta’lim maktablarining o‘zbek tili fanidan 2-9-sinflari o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standartining A1, A1+, A2, A2+ darajasi talablari asosida tuzilgan. Ushbu ta’lim bosqichlari bitiruvchilari Davlat ta’lim standartining mazkur darajalari uchun qo‘yilgan talablarga javob berishlari shart.

Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o’rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili kommunikativ tamoyil asosida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Shuning uchun ta’lim mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyaga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlariga qaratilgan.

Boshlang‘ich ta’limda o‘zbek tili fanini o‘qitishdan maqsad, avvalo, o‘zbek tilining nutq tovushlari va harflari bilan tanishtirish, so‘ngra o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek tilida muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratdir. Shunga ko‘ra 2-4-sinflar o‘quv dasturida avval **talaffuz qilish, o‘qish, yozish**, so‘ngra **lug‘at, nutq namunalari, tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish** va **yoziq** bo‘yicha o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi shakllantiriladi.

5-9-sinflardan boshlab esa o‘quvchilarga o‘zbek tilida so‘z tarkibi, so‘zlarning yasalishi va o‘zgarishi, so‘z turkumlari, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi, so‘z birikmasi hamda gap tuzish qonuniyatlarini o‘rgatish yuzasidan nazariy bilimlarni berish ko‘zda tutiladi. Ushbu bilimlar asosida hosil qilinadigan ko‘nikma-malakalar bitiruvchilarda o‘zbek tilida so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lab gap tuza olish, nutqning dialogik va monologik shakllarida erkin muloqot yurita olish kompetensiyasini shakllantirishi lozim. Shundan kelib chiqib o‘quv dasturida sinflar kesimida har bir nutqiy mavzu doirasida **leksik-grammatik minimum** (faol so‘zlar, birikmalar, so‘z shakllari), **muomala odobi, adabiy o‘qish** va **ish qog‘ozlarini yozish** yuzasidan materiallar berildi. Ushbu materiallar o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda 5-6-sinflarda **leksika, grammatika, muomala odobi, adabiy o‘qish**; 7-9-sinflarda esa **leksika, grammatika, ish qog‘ozlarini yozish** va **adabiy o‘qish** sifatida taqsimlandi. Bunda **nutqiy kompetensiya** har bir sinf uchun uzviylik va uzluksizlik asosida belgilangan nutqiy mavzular va ular bo‘yicha beriladigan faol so‘z va birikmalar, nutq namunalari, **lingvistik kompetensiya** esa grammatik bilimlar va so‘z shakllarida ifodalanadi. Grammatika bilan tanishtirishda 5-8-sinflarda tilning morfologiya bo‘limiga oid ma’lumotlarni, 9-sinfda esa sintaksis bo‘limiga oid so‘z birikmasi va sodda gapga doir ma’lumotlarni soddadan murakkabga tomon izchillikda o‘stirib boriladi. O‘zlashtirilgan so‘zlar, birikmalar va egallangan bilimlar orqali o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

O‘zbek tilini o‘qitishda, shuningdek, muomala odobi va rasmiy muloqot yuritish hamda adabiy o‘qish bo‘yicha beriladigan materiallarning o‘rni ham nihoyatda muhim. Shunga ko‘ra, 5-sinfda muomala odobiga oid iboralar, 9-sinfda esa rasmiy ish qog‘ozlari yuritishga oid ma’lumotlarni berildi. Adabiy o‘qish materiallari ham o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlandi: 5-sinfda o‘quvchilarni ertaklar, she’rlar, topishmoq va maqollar bilan, 6-7-sinflarda hikoyalar, rivoyatlar, o‘zbek bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish, 8-9-sinflarda esa o‘zbek yozuvchilarining asarlaridan parchalar, publitsistik matnlar ustida ishlash ko‘zda tutildi. O‘quv dasturida har bir bo‘lim bo‘yicha o‘quvchilarda A1, A1+, A2, A2+ darajalar uchun shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarning elementlari nutqiy mavzu va shu mavzu doirasida beriladigan bilimlar mazmunidan kelib chiqib belgilandi.

O‘zbek tili fanidan o‘quv dasturidagi “Kun tartibim”, “Tejamkorlik”, “Suv – hayot manbai”, “O‘zbekistonning suv havzalari”, “Tejamkor bo‘laylik”, “Ekologiya va biz” kabi mavzularni o‘tishda “Tejamkorlik saboqlari” o‘quv qo‘llanmasidagi materiallardan unumli foydalanish mumkin. Quyida A1, A1+, A2, A2+ darajalar uchun shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarning elementlari berildi.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalarning elementlari**

#### **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

##### **A1**

media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish;  
media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajara olish.

##### **A1+**

axborot manbalaridan (televizor, telefon, kompyuter) foydalana olish; telefon orqali yuborilgan xabarni o‘qish va xabar jo‘natish;  
media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish va foydalanish.

##### **A2**

mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta), ma’lumot almashish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tabrik xati yoza olish, anketalarni to‘ldirish, o‘zi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yoza olishi va boshq.)

##### **A2+**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tavsifnoma, ariza, shaxsiy ma’lumotnoma yoza olish).

#### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

##### **A1**

mustaqil o‘rganish orqali bilimni oshirib borish;  
sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullanish;  
o‘zini tuta olish, to‘g‘ri so‘z bo‘lish, o‘zining xatosini tushunish.

##### **A1+**

xatti-harakatini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish.

## **A2**

shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy kamolotga intilish; o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

## **A2+**

o'qib-o'rganish, bilimni mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash.

## **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

### **A1**

davlat ramzlarining ma'nosini tushunish;  
farzandlik va o'quvchilik burchini bilish.

### **A1+**

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish;  
farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish.

### **A2**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish;  
kasblarning mohiyatini tushunish;  
mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala madaniyatiga ega bo'lish.

### **A2+**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;  
kasbni ongli ravishda tanlash;  
yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish.

## **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

### **A1**

o'zi yashaydigan hududning tarixiy obidalarini bilish;  
uyi, maktabi, turar joyini qadrlash;

### **A1+**

yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;  
jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **A2**

badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;  
milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay olish;  
xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash.

### **A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;  
o'zgalarning dunyoqarashi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish.

## **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

### **A1**

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;  
isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish;

o'z ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (kiyimi, o'quv qurollari) tejab foydalanish.

**A1+**

isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish, unga amal qilish;  
bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish.

**A2**

kundalik faoliyatda turli formula, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**A2+**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;

inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda undan foydalana olish.

Ta'kidlash joizki, me'yoriy hujjatlarni yuritishda **tayanch** va **fanga oid kompetensiyalar** quyidagicha yozilishi tavsiya qilinadi.

**I. TK-tayanch kompetensiya**

13. TK1-kommunikativ kompetensiya.

14. TK2-axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi.

15. TK3-o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi.

16. TK4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi.

17. TK5-milliy va umummadaniy kompetensiya.

18. TK6-matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

**II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

5. FK1-nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiya.

6. FK2-lingvistik (grafika, orfografiya, fonetika, leksika, grammatika) kompetensiya.

**2-SINF**

(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A1+: 102 soat)

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari****Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:****A1**

oddiy tabriknomalar yoza olish;

daftar muqovasini to'ldirish.

**A1+**

axborot manbalaridan (telefon, kompyuter) foydalana olish;

oddiy tabriknomalar yoza olish;

daftar muqovasini to'ldirish.

### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**

kun tartibiga amal qilish;  
maktabda, uyda rasmi kitoblar, jurnallar yordamida mustaqil o‘rganish orqali bilimini oshirib borish;  
o‘z xatosini tushunish va tuzatish.

#### **A1+**

kun tartibiga amal qilish;  
maktabda, uyda, to‘garakda rasmi kitoblar, jurnallar yordamida mustaqil o‘rganish orqali bilimini oshirib borish;  
o‘zini nazorat qila bilish, o‘z xatosini tushunish va tuzatish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A1**

orasta kiyinish, kiyimlarini, maktabi, sinfidagi jihozlarni avaylab-asrash;  
milliy bayramlarni bilish.

#### **A1+**

orasta kiyinish, maktabi, sinfidagi jihozlarni avaylab asrash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish;  
milliy bayramlarni bilish.

### **1-mavzu. Tanishuv. (1 soat, A1+: 2 soat)**

**Lug‘at:** O‘zbek tilida salomlashish va xayrlashishga oid so‘zlar: **assalomu alaykum, xayr; men, sen, u, biz, siz, ular** – kishilik olmoshlari; **bu** – ko‘rsatish olmoshi; **kim? nima?** – so‘roq olmoshlari, atoqli otlar.

**Nutq namunalari:** – Bu kim? – Bu men. – Siz kimsiz? – Ism familiyangizni ayting. – Ismim Alisher. – Familiyam...

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

#### **Tinglab tushunish va so‘zlash:**

#### **A1**

**men, sen, u, biz, siz, ular** kishilik olmoshlari, **bu** ko‘rsatish olmoshi; **kim? nima?** so‘roq olmoshlari, salomlashish va xayrlashish, tanishuvga oid savollarni tinglab tushuna oladi.

#### **A1+**

salomlashish va xayrlashish, tanishuvga oid savollarni tinglab tushuna oladi.

### **2-3-mavzu. A, O, N harflari. (2 soat, A+:3 soat)**

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**



**Talaffuz qilish:** **Aa, Oo, Nn** tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** **A, O, N** harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** **Aa, Oo, Nn** bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ushbu harflardan soʻzlar tuzib, yoza olish.

#### **4-5-mavzu. T, M harflari. (2 soat, A1+: 3 soat)**

##### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** **Tt, Mm** tovushlari, bosh va kichik harflari, bu harflar ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** **T, M** harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** **Tt, Mm** bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ushbu harflardan soʻzlar tuzib, yoza olish.

#### **6-8-mavzu. I, B, L harflari. (3 soat, A1+:4 soat)**

##### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** **Ii, Bb, Ll** harflari, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** **I, B, L** harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** **Ii, Bb, Ll** bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ushbu harflardan soʻzlar tuzib, yoza olish.

#### **9-10-mavzu. K, R harflari. (2 soat, A1+:3 soat)**

##### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** **Kk, Rr** harflari, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** **K, R** harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** **Kk, Rr** bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Oʻrganilgan harflardan soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

#### **11-12-mavzu. Oʻ, D harflari. (2 soat, A1+: 3 soat)**

##### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** **Oʻoʻ, Dd** harflari, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** **Oʻ, D** harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** **Oʻoʻ, Dd** bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Oʻrganilgan harflardan soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

#### **13-14-mavzu. U, Y harflari. (2 soat, A1+: 3 soat)**

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Uu, Yy harflari, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** U, Y harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** Uu, Yy bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Oʻrganilgan harflardan soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

### **15-16-mavzu. E, G harflari. (2 soat, A1+: 3 soat)**

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Ee, Gg harflari, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** E, G harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** Ee, Gg bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Oʻrganilgan harflardan soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

### **17-18-mavzu. ng harf birikmasi, S harfi. (2 soat, A1+: 3 soat)**

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** ng harf birikmasi, S harfi, ular ishtirokidagi faol soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** ng harf birikmasi, S harfi ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** ng, Ss bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ular ishtirokida soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

### **19-20-mavzu. H, X harflari. (2 soat, A1+: 4 soat)**

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Hh, Xx harflari qatnashgan soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** H, X harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** Hh, Xx bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ular ishtirokida soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

### **21-22-mavzu. P, Q harflari. (2 soat, A1+: 3 soat)**

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Pp, Qq harflari qatnashgan soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qila olish.

**Oʻqish:** P, Q harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi soʻzlarni toʻgʻri oʻqiy olish.

**Yozish:** Pp, Qq bosh va kichik, bosma va yozma harflarini toʻgʻri yoza olish. Ular ishtirokida soʻzlar va soʻz birikmalari tuzib, yoza olish.

**23-24-mavzu. Sh, Ch harflari. (2 soat, A1+: 4 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Sh, Ch harflari qatnashgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish.

**O'qish:** Sh, Ch harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi so'zlarni to'g'ri o'qiy olish.

**Yozish:** Sh sh, Ch ch bosh va kichik, bosma va yozma harflarini to'g'ri yoza olish. Ular ishtirokida so'zlar va so'z birikmalari tuzib, yoza olish.

**25-27-mavzu. J, G', Z harflari. (3 soat, A1+5 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Jj, G'g', Zz harflari qatnashgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish.

**O'qish:** J, G', Z harflari ifodalagan tovushlarni farqlay olish. Bu harflar orqali ifodalanuvchi so'zlarni to'g'ri o'qiy olish.

**Yozish:** J j, G'g', Z z bosh va kichik, bosma va yozma harflarini to'g'ri yoza olish. Ular ishtirokida so'zlar va so'z birikmalari tuzib, yoza olish.

**28-30-mavzu. F, V harflari va tutuq (') belgisi. (3 soat, A1+: 5 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Talaffuz qilish:** Ff, Vv harflari va tutuq belgisi (') qatnashgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish.

**O'qish:** F, V harflari ifodalagan tovushlarni va tutuq belgisi (')ni farqlay olish. Bu harflar va tutuq belgisi ishtirokidagi so'zlarni to'g'ri o'qiy olish.

**Yozish:** Ff, Vv bosh va kichik, bosma va yozma harflarini to'g'ri yoza olish. O'rganilgan harflardan so'zlar va so'z birikmalari tuzib, yoza olish.

Tutuq (') belgisini to'g'ri yoza olish. Harflarning yozma shaklini husnixat talablari asosida yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar (talaffuz qilish, o'qish va yozish)**

**A1**

o'zbek alifbosidagi harflarni to'g'ri talaffuz qila oladi;

o'zbek tiliga xos bo'lgan tovushlarini o'qiy oladi;

mavzular bo'yicha berilgan so'zlarni bo'g'inlab o'qiy oladi va yoza oladi;

o'zlashtirilgan nutq mavzularida 1-2 savol-javob tarzida suhbatlasha oladi;

mavzu bo'yicha berilgan kichik she'rlarni o'qib, yoddan ayta oladi;

o'zbek alifbosidagi bosh va kichik harflarning bosma va yozma shaklini farqlab yoza oladi;

harflarning yozma shaklini husnixat talablari asosida yoza oladi;

mavzular bo'yicha o'zlashtirilgan so'zlarni, 2-4 ta yig'iq gaplardan iborat matni to'g'ri ko'chirib yoza oladi;

o'zlashtirilgan so'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajratib yoza oladi;

6-8 ta so'zdan iborat lug'at diktantini yoza oladi.

**A1+**

o'zbek alifbosidagi harflarni, o'zbek tiliga xos tovushlarni to'g'ri talaffuz qilib, o'qiy oladi;

o'zbek alifbosidagi bosh va kichik harflarning yozma shaklini husnixat talablari asosida yoza oladi;

4-6 ta yig'iq gaplardan iborat matni to'g'ri ko'chirib yoza oladi.

### **31-32-mavzu. Yangi yil bayrami. (2 soat, A1+:3 soat)**

**Lug'at:** Yangi yil, archa, o'yinchoqlar, bayram, sovg'a, qo'shiq, raqs, chiroqlar, Qorbobo, Qorqiz; quvnoq, yasatdik, bezatdik, raqs tushdik, she'r aytdik, sovg'a oldik, hamma, birga kabi faol so'zlar.

**Nutq namunalari:** Yangi yil bayrami boshlandi. Archamizni o'yinchoqlar bilan bezadik. Archa atrofida niqob kiygan bolalar o'ynadi. Anvar tulki bo'ldi....

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** mavzuga oid so'zlar, berilgan savollarni tushunib, ularga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'zlar va so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz qila olish va yoza olish.

### **33-35-mavzu. Sanaymiz. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug'at:** bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n; o'n bir, o'n ikki, o'n uch, o'n besh, o'n to'qqiz, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz kabi sanoq so'zlar;

**Nutq namunalari:** bir–bitta, ikki–ikkita, uch-uchta, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yuz, ikki yuz kabi faol sanoq so'zlarni otlar bilan qo'llash: Xonada nechta deraza bor? Xonada to'rtta deraza bor. Nechta o'g'il bola bor? To'qqizta o'g'il bola bor.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** sanoq so'zlar (1 soat), nechta? qancha? so'roq so'zlari (1 soat), -ta qo'shimchasi (1 soat) O'tilgan grammatik vositalar asosida savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** sanoq sonlar va sonli birikmalarni to'g'ri talaffuz qila olish va yoza olish.

### **36-37-mavzu. O'quv qurollari. (2 soat, A1+: 5 soat)**

**Lugʻat:** kitob, daftar, qalam, oʻchirgʻich, chizgʻich, ruchka, qogʻoz, kundalik kabi tayanch soʻzlar; bu nima? bu daftar, bu kitob kabi birikmalar (2 soat). **kimning nimasi? qanday nima?** soʻroqlari (1 soat)

**Nutq namunalari:** Bu bizning kitobimiz, sening daftaring, mana qora qalam, bu yangi kundalik; Bu kimning kundaligi? – Bu mening kundaligim. – Bu sening daftaringmi? – Yoʻq, bu mening daftarim emas.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid tayanch soʻzlarni va kimning nimasi? qanday nima? soʻroqlarini tushunib, savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish; mavzuga oid tayanch soʻzlar, savollarni tushunib, aniq javob bera olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**38-40-mavzu. Ranglar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** oq, qora, qizil, sariq, yashil, koʻk, kulrang, havorang, jigarrang kabi rang bildiruvchi soʻzlar (1 soat)

**Esa soʻzi, qaysi rang? qanday rangda?** soʻroqlari (2 soat).

**Nutq namunalari:** Bu qaysi rang? Bu yashil rang. Osmon qanday rangda? Bu gullar qanday rangda? Bu qizil gul, ana u esa sariq gul.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** ranglarning nomlanishini, Bu qaysi rang? Nima qanday rangda? soʻroqlarini tinglab tushuna olish va ularga mavzuga oid tayanch soʻzlar hamda oʻrganilgan vositalar asosida javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid narsalarning rang-tusini bildiruvchi soʻz va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish va yoza olish.

**41-43-mavzu. Tana aʼzolari. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** bosh, yuz, koʻz, tish, til, lab, quloq, burun, qosh, qoʻl, barmoq, oyoq, soch kabi tayanch soʻzlar; yuvinyapti, tozalayapti, artyapti, tarayapti, sochiq, sovun, taroq, toza soʻzlari (2 soat);

**Kim nima qilyapti? nima bilan?** soʻroqlari (1 soat)

**Nutq namunalari:** yuzini yuvyapti, sochiq bilan artyapti, tishini tozalayapti, sochini tarayapti; Kim nima qilyapti? Botir yuzini yuvyapti? Bahrom-chi? U nima qilyapti? kabilar.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** tana aʼzolari nomlarini, Kim nima qilyapti? Nima bilan? soʻroqlarini tushuna olish va ularga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** tana aʼzolari nomlari, belgilar va faoliyatini ifodalovchi soʻzlar hamda birikmalarni toʻgʻri talaffuz qila olish va yoza olish.

#### **44-46-mavzu. Kiyimlar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** koʻylak, shim, doʻppi, roʻmol, qalpoq, etik kabi faol soʻzlar (1 soat); yangi, eski, tor, yaxshi kabi belgi bildiruvchi soʻzlari; **kiyyapti, kiyamayapti, oʻrayapti, tozalayapti, bogʻlayapti, bogʻlamayapti** kabi soʻzlar (1 soat);

**-ma** boʻlishsizlik qoʻshimchasi (1 soat)

**Nutq namunalari:** Bu oʻgʻil bolalar koʻylagimi? Yoʻq, bu qiz bolalar koʻylagi. Bu etik yangimi? Ha, bu etik yangi.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** Kiyim-kechaklar nomlarini, Kim nima qilmayapti? soʻroqlarini tinglab tushuna olish va ularga oʻrganilgan vositalar asosida javob bera olish. Mavzu boʻyicha beriladigan topshiriqlarni tushuna olish, mavzular yoki rasmlar asosida 1-2 savol-javob tarzida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** kiyim-kechaklar nomlarini, Kim nima qilmayapti? soʻroqlarini faoliyatini ifodalovchi soʻzlar hamda birikmalarni toʻgʻri talaffuz qila olish va yoza olish.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat )**

#### **47-49-mavzu. Yil fasllari. (3 soat, A1+: 5 soat)**

**Lugʻat:** yil, kun, tun, fasl, qish, bahor, yoz, kuz, issiq, sovuq, iliq, uzun, qisqa kabi mavzuga oid tayanch soʻzlar (1 soat); **bir, toʻrt, boʻladi, bor** soʻzlari, **nechta? qancha?** soʻroqlari (1 soat), **hozir, keyin, keladi** soʻzlari (1 soat)

**Nutq namunalari:** bir yil, toʻrt fasl, kun uzun, tun qisqa, qish sovuq, yoz issiq, kuz iliq; Bir yilda nechta fasl bor? Bir yilda toʻrt fasl bor? Hozir qaysi fasl? Hozir ... fasli?

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va soʻz birikmalarini, nutq namunalari tushuna oladi, nechta? qancha? soʻroqlariga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlarni, nechta? qancha? soʻroqlarini toʻgʻri talaffuz qila olish va yoza olish.

#### **50-52-mavzu. Hafta kunlari. (3 soat, A1+: 4 soat )**

**Lugʻat:** oy, hafta, kun, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba, kecha, bugun, erta, ertaga, indin, ish kuni, dam olish kuni; toʻrt, yetti, birinchi, ikkinchi, uchinchi, toʻrtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, kecha, bugun, ertaga kabi tayanch soʻzlar (2 soat);

**nechanchi? qaysi?** soʻroqlari (1 soat)

**Nutq namunalari:** bir oy, bir hafta yetti kun, yakshanba dam olish kuni; Bir oy necha hafta? Bir haftada necha kun bor? Bir haftada yetti kun bor. Bugun haftaning qaysi kuni? Dushanba haftaning nechanchi kuni? Dushanba haftaning birinchi kuni.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** mavzuga oid tayanch so'zlar va so'z birikmalarini, nutq namunalari tushuna olish, nechanchi? qaysi? so'roqlariga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'zlarni, nechanchi? qaysi? so'roqlarini to'g'ri talaffuz qila olish va yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

### **53-55-mavzu. Oziq-ovqatlar (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lug'at:** non, choy, sut, shakar, qand, pishloq, sariyog', asal, osh, palov, sho'rva kabi tayanch so'zlar (1 soat); **ichyapti/ichmayapti, yeyapti/yemayapti, uzatib yuboring, ushating** kabi faoliyatni bildiruvchi so'zlar; **shirin, mazali, eng, juda** kabi belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar (1 soat) va **iltimos, rahmat, marhamat** kabi taklif-istakni ifodalovchi so'z va jumlar (1 soat).

**Nutq namunalari:** Sut bormi? Marhamat, oling. Stolda nimalar bor? Stolda choy, sut, qand, asal, sariyog' bor. Gulnora nima ichyapti? Choy ichyapti. Choy issiqmi? Ha, choy issiq.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** oziq-ovqatlar nomlari, ularni tavsiflovchi so'zlarni tinglab tushuna olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'zlar va jumalarni to'g'ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so'zlar bilan qo'llab, sodda yig'iq gaplar tuza olish.

### **56-57-mavzu. Idishlar. (2 soat, A1+ 4 soat)**

**Lug'at:** choynak, piyola, qoshiq, kosa, pichoq, idish-tovoqlar kabi tayanch so'zlar (1 soat); **turibdi, ber, bering, olib keling, qo'y, qo'ying, yuv, yuving, art, arting** kabi faoliyatni bildiruvchi so'zlar (1 soat); **dasturxon, oshxona** so'zlari, **qayerga qo'yay? nima qilay?** so'roqlari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Idishlar qayerda? Idishlar javonda. Men nima qilay? Sen mana bu kosalarni yuv va artib qo'y. Dasturxonga nima qo'yay? Dasturxonga likopchalar bilan oltita sanchqi qo'y.

### **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

(tinglab tushunish, so'zlash )

**A1**

o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni, kundalik muloqotga oid so'z va jumalarni tinglab tushuna oladi;

mavzuga oid tayanch so'zlar, so'z birikmalarini tushunib, nutqda qo'llay oladi; savollarga javob bera oladi, o'zi (ismi-sharifi, yoshi, yashash manzili va o'qish joyi), ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi haqida qisqa ma'lumot bera oladi.

**A1+**

mavzuga oid tayanch soʻzlar, soʻz birikmalarini tushunib nutqda oʻrinli qoʻllay oladi;

savollarga javob bera oladi, oʻzi, oila aʼzolari, doʻstlari, qarindoshlari haqida maʼlumot bera oladi.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:****A1**

mavzuga oid soʻzlar va soʻz birikmalarini, nutq namunalari toʻgʻri talaffuz qila oladi va yoza oladi;

mavzular boʻyicha berilgan soʻzlarni boʻgʻinlab toʻgʻri oʻqiy oladi, mavzu boʻyicha berilgan kichik sheʼrlarni oʻqib, yoddan ayta oladi;

mavzular boʻyicha oʻzlashtirilgan soʻzlarni, 2-4 ta yigʻiq gaplardan iborat matnni toʻgʻri koʻchirib yoza oladi;

oʻzlashtirilgan soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib yoza oladi;

10-15 ta soʻzdan iborat diktant matnini yoza oladi.

**A1+**

mavzuga oid soʻzlar va soʻz birikmalarini, nutq namunalari toʻgʻri talaffuz qilib, yoza oladi;

soʻzlarni boʻgʻinlab toʻgʻri oʻqiy oladi, qisqa dialogik matnlarni ohangga rioya qilgan holda oʻqiy oladi;

mavzu boʻyicha berilgan sheʼrlarni ifodali oʻqib, yoddan ayta oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)****Sinfдан tashqari adabiy oʻqish uchun. (2 soat, A1+4 soat)****Mavzularni oʻrganish uchun – 60 soat (A1+: 88 soat)****Nazorat ishlari uchun – 3 soat****Xatolar ustida ishlash uchun – 3 soat****Sinfдан tashqari adabiy oʻqish uchun – 2 soat (A1+: 4 soat)****Jami: 68 soat (A1+: 102 soat)****3-SINF**

(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A1+ : 102 soat )

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari  
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:****A1**

televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarni tinglab tushunish;  
oddiy tabriknomalar yozish, daftar muqovasini, kundalik daftarini toʻldirish.

**A1+**

televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish;  
tabriknomalar yozish, daftar muqovasini, kundalik daftarini toʻldirish.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**



## **A1**

kun tartibiga amal qilish, sportning yoshiga mos turi bilan shugʻullanish; maktabda, toʻgarakda, uyda rasmlar kitoblari, jurnallar yordamida mustaqil oʻrganish orqali bilimini oshirib borish.

## **A1+**

mustaqil ravishda oʻrganish orqali bilimini oshirib borish; toʻgʻri soʻz boʻlish, oʻzining xatosini tushunish, oʻrtoqlarining xatosini tushuntirish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A1**

oʻzining oʻquvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish; oʻzidan kattalarga, oʻrtoqlariga va oʻzidan kichiklarga yordam berish.

#### **A1+**

maktabda, oilada, turar joyida boʻlayotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish; oʻzidan kattalarga, oʻrtoqlariga mehribon boʻlish va yordam berish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A1**

oʻz uyi, maktabi, yashash joyini qadrlash; doʻstlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon boʻlish.

#### **A1+**

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A1**

ehtiyoji uchun kerak boʻlgan narsalardan (oʻquv qurollari, kiyim-kechagi va h.k.) tejab foydalanish; kun tartibiga amal qilish.

#### **A1+**

tejamkorlikka rioya qilish; kun tartibiga amal qilgan holda kundalik ish rejasini tuza olish.

### **1-2-mavzu. Maktabimiz. (2 soat, A1+:4 soat)**

**Lugʻat:** maktabimiz, bino, oʻquvchi, oʻqituvchi, sinf xonalari, kompyuter xonasi, kutubxona, ustaxona, sport zali, devor, yoʻlak, hovli, bogʻ, darvoza kabi tayanch soʻzlar va keldik, oʻqiyamiz, yozamiz, oʻynaymiz, ovqatlanamiz kabi faoliyatni bildiruvchi soʻzlar; qavatli, shinam, keng, yorugʻ, eng, juda, koʻp kabi belgi bildiruvchi soʻzlar, taklif-istakni ifodalovchi **xush kelibsiz** soʻzi.

**Nutq namunalari:** Bu maktab binosi. Men shu maktabda oʻqiyman. Maktabimiz toʻrt qavatli. Yoʻlaklari keng va yorugʻ. Maktabimizda sinfxonalar koʻp. Biz maktabda oʻqish va yozishni oʻrganamiz.

### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid soʻzlarni, berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish.

### **3-4-mavzu. Sinfimiz. (2 soat, A1+: 3 soat)**

**Lugʻat:** sinf, qatorlar, kitob javoni, yozuv taxtasi, oʻqituvchi stoli, suratlar, sinf burchagi, devorda, kitob javonida, qoʻngʻiroq, dars, mashq kabi tayanch soʻzlar; yonida, ichida, ustida, oldida, oʻrtada, oʻng tomonda, chap tomonda kabi koʻmakchi soʻzlar; chalindi, boshlandi, kiring, oʻtiring, tinglang, oʻqing, yozing, diqqat bilan, tartib bilan kabi faoliyatni bildiruvchi soʻzlar (1 soat), oʻrin-joyini koʻrsatuvchi **-da** qoʻshimchasi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Sizning sinfingiz qanday? Bizning sinfimiz keng va yorugʻ. Sen qayerda oʻtirasan? Men oʻrta qatordagi birinchi partada oʻtiranman. Bugun necha soat dars boʻladi? Bugun toʻrt soat dars boʻladi.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** “Sinfimiz” mavzusiga oid soʻzlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga oʻrganilgan vositalar asosida javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish.

### **5-7-mavzu. Oila. (3 soat, A1+4 soat)**

**Lugʻat:** ota, ona, bobo, buvi, oʻgʻil bola, qiz bola, aka, uka, opa, singil, amaki, xola kabi oila mavzusiga oid faol soʻzlar (1 soat).

**-mi, -chi** soʻroq yuklamalari, tasdiq va inkorni bildiruvchi **ha, yoʻq** soʻzlari (2 soat).

**Nutq namunalari:** Bu kim? Bu bobom, bu otam, onam, mana bu qiz bola, mana bu ukam.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** “Oila” mavzusiga oid soʻzlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tinglab tushunish va ularga oʻrganilgan vositalar asosida javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni **-mi, -chi** soʻroq yuklamalari, tasdiq va inkorni bildiruvchi **ha, yoʻq** soʻzlarini toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish.

10-12 ta soʻzdan iborat lugʻat diktanti, oʻtilgan mavzular boʻyicha 16-24 ta soʻzdan iborat diktant yoza olish.

#### **Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

#### **Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

### **8-10-mavzu. Ob-havo. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lugʻat:** ob-havo, ochiq, iliq, mayin shabada, qattiq shamol, salqinlashdi, soviydi, isiydi, kechalari, kunduzi, osmon, qoplendi kabi mavzuga oid tayanch soʻzlar (1soat); kecha, bugun, ertaga, hozir, kechasi, kunduzi, kechqurun, keyin kabi paytni bildiruvchi soʻzlar (2 soat).

**Nutq namunalari:** Ob-havo qanday? Ertalab havo ochiq. Kechqurun salqin boʻlyapti.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** ob-havoga oid soʻzlar, ular boʻyicha berilgan savollarni tushunib javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish.

### **11-13-mavzu. Kuz. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** kuz fasli, havo, kunlar, barglar, shamol, bulut, yomgʻir, dalalar, bogʻlar, polizlar, hosil, dehqonlar, yigʻim-terim kabi tayanch soʻzlar (1soat); sargʻayadi, toʻkiladi, qisqaradi, soviydi, pishadi kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi soʻzlar (1soat); moʻl, shirin-shakar, salqin, tez-tez kabi belgi bildiruvchi soʻzlar (1 soat).

**Nutq namunalari:** Kuz qanday fasl? Kuzda havo qanday boʻladi? Kuzda havo salqin boʻladi va kunlar soviydi. Kuzda nimalar pishadi? Kuzda mevalar pishadi va yigʻim-terim boshlanadi.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid soʻzlar, berilgan savollarni tushunish va javob bera olish; tasdiq yoki inkor soʻzlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish, rasm mazmunini savollar va tayanch soʻzlar asosida soʻzlab bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish, oʻrganilgan soʻz, soʻz birikmalarini oʻzbek tilining imlo qoidalari asosida koʻchirib yoza olish.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A1+: 2 soat)**

### **14-16-mavzu. Polizda. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** poliz, piyoz, bodring, karam, sabzavot, oʻsmoq, yordam bermoq, hosil, mevalar, dehqonlar, koʻp, qutilar, ombor kabi tayanch soʻzlar (1 soat); saqlanadi, yetkaziladi, uziladi, yetiladi, yigʻib olinadi kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi soʻzlar (2soat).

**Nutq namunalari:** Polizda nimalar o‘sadi? Polizda karam, kartoshka, sabzi, piyoz va boshqa sabzavotlar o‘sadi. Polizda qanday sabzavotlar yetiladi? Nima uchun sabzavotlarni kuzda yig‘ib olinadi?

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunib, javob bera olish, “Polizda” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish.

**17-19-mavzu. Mevalar. (3 soat, A1+ 4 soat)**

**Lug‘at:** mevalar, mevali daraxtlar, anor, o‘rik, nok, uzum, olcha, gilos, behi, anjir, bog‘lar, uzumzor, olmazor, savat kabi tayanch so‘zlar; o‘sadi, pishadi, terib olinadi, yuboriladi kabi harakat-faoliyatni bildiruvchi so‘zlar, shirin, nordon, har xil, qirmizi, to‘q qizil, suvli, suvsiz kabi belgi bildiruvchi so‘zlar (2 soat), **hamma, barcha** olmoshlari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Bu qanday bog‘? Bu olmazor. Bu bog‘da turli xil olmalar o‘sadi. Bu qanday anor? Bu shirin anor. Ana u nokmi? Yo‘q, bu behi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni tushunib, javob bera olish, “Mevalar” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni **hamma, barcha** olmoshlarini to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, sodda yig‘iq gaplar tuza olish.

10-12 ta so‘zdan iborat lug‘at diktanti, o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha 16-24 ta so‘zdan iborat diktantni yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**20-22-mavzu. Sabzavotlar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lug‘at:** poliz, sabzavotlar, sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, pomidor, bodring, karam, qovoq, qovun, tarvuz, handalak kabi tayanch so‘zlar; **yangi uzilgan, achchiq, og‘ir, yengil, ko‘m-ko‘k, sap-sariq, dumaloq, yo‘l-yo‘l, qip-qizil, foydali** kabi belgi bildiruvchi so‘zlar (2 soat); **usti, ichi** so‘zlari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Sabzavotlar qayerda o‘sadi? Sabzavotlar polizda o‘sadi. Polizda sabzi, piyoz, kartoshka, lavlagi, pomidor, bodring, karam, qovoq kabi sabzavotlar pishadi. Kuzda yana nimalar pishadi? Kuzda...

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni, audiovizual vositalar yordamida eshittirilgan gaplar ma‘nosini tushuna olish, tasdiq yoki inkor so‘zlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini so‘z tarkibida ona tilidagi tovushlardan farqlagan holda o‘qiy olish, o‘rganilgan so‘zlar, so‘z

birikmalarini to‘g‘ri ko‘chirib yozish, o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha 4-6 ta sodda yig‘iq gapdan iborat matnni ko‘chirib yoza olish.

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

#### **Tinglab tushunish va so‘zlash:**

##### **A1**

o‘zlashtirilgan mavzularga oid so‘zlar, berilgan savollarning ma‘nosini tushuna oladi;

tasdiq yoki inkor so‘zlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha oladi.

savollarga javob bera oladi va o‘zlashtirilgan mavzular va rasmlar asosida suhbatlasha oladi.

##### **A1+**

audiovizual vositalar yordamida eshittirilgan gaplar ma‘nosini tushuna oladi; savollarga javob bera oladi va o‘zi ham savol bilan murojaat qila oladi.

#### **Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:**

##### **A1**

o‘zlashtirilgan mavzularga oid tayanch so‘zlar, jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila oladi;

o‘zbek tilidagi nutq tovushlarini so‘z tarkibida ona tilidagi tovushlardan farqlagan holda o‘qiy oladi;

berilgan she‘r va qo‘shiqlar matnini ifodali o‘qiy oladi;

o‘rganilgan so‘zlar, so‘z birikmalarini to‘g‘ri ko‘chirib yoza oladi;

o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha 4-6 ta sodda yig‘iq gapdan iborat matnni ko‘chirib yoza oladi.

##### **A1+**

berilgan she‘r va qo‘shiqlar matnini ifodali o‘qib, yoddan ayta oladi;

#### **Nazorat ishi: test. (1 soat)**

#### **Takrorlash. (1 soat)**

#### **Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. ( 1 soat, A1+: 2 soat)**

#### **23-25-mavzu. Qish. (3 soat)**

**Lug‘at:** qish fasli, qor, qorbo‘ron, yaxmalak, muz, sirpanchiq, chana, sovuq; kun, tun, uzun, yer, qisqa, oppoq, momiq, yog‘adi, muzlaydi, uchadi kabi mavzuga oid tayanch so‘zlar(1 soat).

**Nutq namunalari:** Hozir qaysi fasl? Hozir qish fasli. Yana qanday fasllar bor? Bahor, yoz, kuz. Qish fasli qachon keladi? Qish fasli kuz faslidan keyin keladi. Qishda ob-havo qanday bo‘ladi? Qishda... (1 soat).

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, ular yuzasidan berilgan savollarni tushunib javob bera olish, “Qishda” rasmi asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish.

**26-27-mavzu. Yangi yil bayrami. (2 soat, A1+3 soat)**

**Lug‘at:** yangi yil, atrofida, turli, bezadik, yalmog‘iz, niqob kiygan, quvnoq, supurgiga mingan, aytdilar, tabriklayman kabi tayanch so‘zlar (1 soat). -sin qo‘shimchali buyruq-istak fe‘lining qo‘llanishi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Yangi yil bayrami boshlandi. Arhamizni turli o‘yinchoqlar bilan bezadik. Archa atrofida niqob kiygan bolalar o‘ynadi. Anvar tulki bo‘ldi, Saida quyon bo‘ldi. Hamma raqsga tushsin. Qorqiz qo‘shiq aytdi. Supurgiga mingan yalmog‘iz ham keldi. Yangi yil bilan tabriklasin. Yangi yilingiz bilan!

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob bera olish, mavzuga oid sodda gaplar tuza olish. Tinglab yoki o‘qib, eslab qolingan matnning asosiy mazmunini so‘zlay olish.

**Talaffuz qilish, yozish va o‘qish:** E – u tovushlarning talaffuzini ona tilidagi shu tovushlarni ifodalovchi harflar bilan qiyoslab, farqlagan holda o‘qiy olish, buyruq-istak fe‘llarini talaffuz qila olish va ko‘chirib yoza olish.

**28-30-mavzu. Kun tartibi. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug‘at:** kun tartibi, ertalab, kunduzi, kechqurun, badantarbiya, kiyinaman, nonushta, tushlik, kechki ovqat, turaman, yotaman, ketaman, kelaman kabi tayanch so‘zlar (1 soat).-dan qo‘shimchasi, qayerdan? so‘rog‘i (2 soat).

**Nutq namunalari:** Har kuni tartib bilan qanday ishlarni bajarasan? Ertalab turaman va yuz-qo‘limni yuvaman. Keyin badantarbiya qilaman. Maktabdan kelib ovqatlanaman.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, berilgan savollarni, tushunish, savollarga javob berish va o‘zlashtirilgan mavzular va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘zlashtirilgan so‘z, so‘z birikmalarini ko‘chirib yoza olish, o‘zlashtirilgan so‘zlar asosida 10-12 ta so‘zdan iborat lug‘at diktanti, mavzular bo‘yicha 16-24 ta so‘zdan iborat diktant yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**31-33-mavzu. Uy hayvonlari va parrandalar. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug‘at:** uy hayvonlari: sigir, buzoq, echki, uloq, toychoq, ot, qo‘y, qo‘zichoq, mushuk, kuchuk, ot; parrandalar: tovuq, xo‘roz, jo‘ja, o‘rdak,

**g‘oz; o‘t, sut, go‘sh, don, yeydi, beradi, foydali, qo‘riqlaydi, sut beradi, yuk tashiydi** kabi tayanch so‘zlar; **chaqqon, ozg‘in, kichkina** kabi belgi bildiruvchi so‘zlar (2 soat).

**-cha, -choq, -loq, -gina** kichraytirish qo‘shimchalari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Bu nima? Bu sigir. Sigir nima yeydi? Sigir o‘t va yem yeydi. Sigirning bolasi qanday ataladi? Sigirning bolasi buzoqcha. O‘rdak va g‘oz suvda suzadi. O‘rdak ham tuxum beradi. Uyingizda qanday uy hayvonlari bor? Uyimizda... .

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish.

**34-36-mavzu. Yovvoyi hayvonlar va qushlar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lug‘at:** yovvoyi hayvonlar: **sher, yo‘lbars, fil, bo‘ri tulki, ayiq, kiyik, quyon, kit, baliq, maymun, ilon;** qushlar: **qaldirg‘och, chumchuq, burgut, kaklik, laylak, musicha, bulbul, qanot, tumshuq, dum** kabi tayanch so‘zlar; **o‘rmon, tog‘, dengiz, okean, yashaydi, qo‘nadi, uchadi** kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar, **ulkan, vaxshiy, qo‘rqinchli, kuchli, epchil, o‘tkir, sezgir, qo‘rqoq** kabi belgi bildiruvchi so‘zlar (2 soat).

**ham, xuddi yuklamalari** (1 soat).

**Nutq namunalari:** Bular qanday hayvonlar? Bular yovvoyi hayvonlar. Yovvoyi hayvonlar qayerda yashaydi? Timsoh qayerda yashaydi? Yovvoyi hayvonlar nima yeydi? Yo‘lbars, sher, bo‘ri, timsoh, tulki go‘sh yeydi. Qaldirg‘och qanday qush? – Qaldirg‘och eng chiroyli qush.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish.

**37-38-mavzu. Hayvonot bog‘ida. (2 soat, A1+: 3 soat)**

**Lug‘at:** hayvonot bog‘i, qafasda, maymun, yo‘lbars, bo‘ri, yovvoyi hayvonlar, sher, ilon, boshqa, fil kabi tayanch so‘zlar;

**u yerda, yuribdi, boraman, boramiz, sudraladi, yashaydi** kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar (1 soat), **edi, ekan** so‘zlarining qo‘llanishi (1 soat)

**Nutq namunalari:** Biz kecha hayvonot bog‘iga bordik. U yerda yovvoyi va uy hayvonlarini ko‘rdik. Bir qafasda sher, yo‘lbars bor edi. Boshqa qafasda maymunlar bor ekan. Ilonlar kichkina qafasda, laylak va burgut katta qafasda ekan.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid berilgan savollarni, oʻqilgan topishmoq, tez aytish mazmunini tushuna olish, berilgan savollarga javob bera olish, mavzu va rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, kichik matnlarni oʻqiy olish, oʻzlashtirilgan mavzular boʻyicha faol soʻzlarni qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish, 4-6 ta sodda yigʻiq gapdan iborat matnni koʻchirib yoza olish.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. ( 1 soat, A1+: 4 soat)**

**39-41-mavzu. Sport oʻyinlari. (3 soat, A1+ 4 soat)**

**Lugʻat:** tozalik, tennis, sogʻlik, toʻp, kurash, doimo, ertalab, badantarbiya, tishini, mashq kabi tayanch soʻzlar;

**oʻynamoq, yugurmoq, suzmoq, yuvmoq, shugʻullanmoq, sakramoq, mashq qilmoq** kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar (1soat); **-ni** qoʻshimchasining egalik shakllari bilan qoʻllanishi (1 soat), **B-p** tovushlarining talaffuzi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Lola qanday qiz? Lola ozoda qiz. Nodir ertalab doim tishini yuvadi. Sovun bilan qoʻllarini yuvadi. Qoʻlini iflos qilmaydi va kasal boʻlmaydi.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid savollarga javob berish va sodda gaplar tuza olish. Tinglab yoki oʻqib eslab qolingan matnning asosiy mazmunini soʻzlay olish.

**Talaffuz qilish, yozish va oʻqish:** **B–p** tovushlarni farqlagan holda oʻqiy olish. Egalik shakllari bilan kelgan -ni qoʻshimchali soʻzlarni talaffuz qilib, yoza olish.

**42-44-mavzu. Bahor. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** bahor fasli, tabiat, boychechak, lolaqizgʻaldoq, lolalar, barglar, kurtaklar, ekin, varrak, gala-gala kabi tayanch soʻzlar; **barg chiqaradi, gullaydi, isiydi, haydaladi, ekiladi, ochiladi, uygʻonadi** kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar (2 soat); **-a(y)di, -iladi** qoʻshimchalari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Bahorda kunlar isiydi. Boychechak ochiladi. Bolalar varrak uchiradi. Tabiat uygʻonadi. Atrof koʻm-koʻk boʻladi. Lolalar qip-qizil boʻlib ochiladi.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid berilgan savollarni, suhbat mazmunini tushunish, tasdiq yoki inkor soʻzlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha olish va savollarga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qilish, kichik matnlarni toʻgʻri oʻqib, mazmunini tushunish, 16-24 ta soʻzli matndan iborat diktant yoza olish.



**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**  
**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**45-47-mavzu. Bayramlar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** bayram, onajonim, buvijonim, sogʻ boʻling, gullar, sovgʻa, Navroʻz, yangi kun, qadimdan, sumalak, mazali, tantanalar kabi tayanch soʻzlar; nishonlanadi, tabriklaydilar, xursand boʻldilar, boshlanadi, pishiradilar, qoʻyiladi kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar;

Onajonlar bayrami (1 soat), Navroʻzga tayyorgarlik. Hashar (1 soat). Navroʻz bayrami (1 soat) mavzulari boʻyicha rasmlar, suhbatlar.

**Nutq namunalari:** Bugun 8-mart. Men buvijonimni tabriklayman. Hamisha sogʻ boʻling! Navroʻz bayrami 21 martda nishonlanadi. Hamma yerda xalq sayillari boshlanadi. Karnay-surnay chalinadi.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlashish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, gaplar tuza olish.

**48-49-mavzu. Yoz. (2 soat, A1+4 soat)**

**Lugʻat:** yoz fasli, yozgi taʼtil, oromgoh, dam olish maskani, sayohat, togʻ, daryo, anhor kabi tayanch soʻzlar; xushmanzara, soʻlim, shoʻx, muzdek kabi belgi bildiruvchi va oʻynaymiz, dam olamiz, suzamiz, choʻmilamiz, sayohatga chiqamiz, chiniqamiz kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar.

**-ga, -ka, -qa** qoʻshimchalari (1 soat), **qayerga?** soʻrogʻi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Yoz keldi. Yoz fasli eng sevimli fasl. Yozda oʻqish tugaydi. Yozgi taʼtil boshlanadi. Men ham yozda oromgohga boraman. Bolalar bilan togʻga chiqamiz.

**Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:**

**A1**

mavzuga oid savollarni, audiovizual vositalar yordamida eshittirilgan gaplar maʼnosini tushuna oladi;

tasdiq yoki inkor soʻzlardan foydalanib, mavzuga oid dialogik suhbatlarda qatnasha oladi;

savollar bilan murojaat eta oladi;

salomlashish, xayrlashishga oid muomala odobini vaziyatlarga mos holda qoʻllay oladi.

**A1+**

oʻqilgan topishmoq, tez aytish, ertaklar, namoyish qilingan multfilm mazmunini tushuna oladi.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:**

**A1**

mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qiladi;  
berilgan sheʼr va qoʻshiqlarni ifodali oʻqiy oladi;  
tutuq belgisini toʻgʻri yoza oladi;  
kichik matnni, maqol va tez aytishlarni koʻchirib yoza oladi.

**A1+**

berilgan sheʼr va qoʻshiqlarni ifodali oʻqib, yoddan ayta oladi;  
kichik matnni, maqol va tez aytishlarni toʻgʻri koʻchirib yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. ( 1 soat, A1+: 4 soat))**

**Mavzularni oʻrganish uchun – 49 soat (A1+: 68 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun – 4 soat**

**Takrorlash uchun – 3 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun – 4 soat (A1+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A1+: 102 soat)**

**4-SINF**

**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A1+ : 102 soat )**

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A1**

media vositalardan zarur boʻlgan axborotlarni izlab topa olish;  
media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajara olish.

**A1+**

axborot manbalaridan (televizor, telefon, kompyuter) foydalana olish; telefon orqali yuborilgan xabarni oʻqish va xabar joʻnatish;  
media vositalardan zarur boʻlgan axborotlarni izlab topish va foydalanish.

**Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A1**

mustaqil oʻrganish orqali bilimini oshirib borish;  
sportning yoshiga mos turi bilan shugʻullanish;  
oʻzini tuta olish, toʻgʻri soʻz boʻlish, oʻzining xatosini tushunish.

**A1+**

xatti-harakatini nazorat qila olish, halollik, toʻgʻrilik kabi sifatlarga ega boʻlish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A1**

davlat ramzlarining ma'nosini tushunish;  
farzandlik va o'quvchilik burchini bilish;

**A1+**

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish;  
farzandlik va o'quvchilik burchini bilish, unga rioya qilish;

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A1**

o'zi yashaydigan hududning tarixiy obidalarini bilish;  
uyi, maktabi, turar joyini qadrlash;

**A1+**

yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish;  
jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;  
isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish;  
o'z ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (kiyimi, o'quv qurollari) tejab foydalanish.

**A1+**

isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushunish, unga amal qilish;  
bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish.

### **1-3-mavzu. Vatan. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug'at:** Vatan, tuproq, obod, davlat, o'lka, ipak, ko'mir, tabiiy boyliklar, dunyo, tinchlik, birdamlik, shahar, ko'chalar, qurilishlar, turar joy binolari, maktab, bog'cha, teatr, bog'lar, favvoralar, yo'llar, avtobus, mashinalar mavjud kabi tayanch so'zlar; boy, chiroyli, bepoyon, baland, uzun, keng, mashhur, ko'rkam, ulug', aziz kabi belgi bildiruvchi so'zlar;

yashamoq, sevmoq, faxrlanmoq, tug'ilmoq, bormoq, yurmoq, qurilmoq, dam olmoq, qatnamoq kabi harakatni bildiruvchi so'zlar (2 soat).

-qayer? so'rog'i (1 soat).

**Nutq namunalari:** O'zbekiston – serquyosh o'lka. Unda gaz, neft, oltin, ko'mir kabi tabiiy boyliklar mavjud. O'zbekiston yashil vodiylari va qadimiy shaharlari bilan mashhur. Biz O'zbekistonni sevamiz. Toshkent – Vatanimiz poytaxti. Shahrimiz juda chiroyli. Ko'chalari keng va ozoda. Shahrimizning yo'llari tekis. Favvoralar, teatr va istirohat bog'lari ko'p.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'zlar va jummalarni to'g'ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so'zlar bilan

qo‘llab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qish, topshiriqlarni yoza olish.

#### **4-6-mavzu. Qadrdon maktabim. (3 soat, A1+4 soat)**

**Lug‘at:** maktabimiz, o‘qituvchi, sinfdoshim, ikki qavatli, oshxona, sport zali, sinf, parta, stol, stul, kitob javoni, kiyim javoni kabi tayanch so‘zlar; katta, yorug‘, keng, ozoda, chiroyli kabi belgi bildiruvchi va o‘qiyamiz, yozamiz, qo‘shiq aytamiz, dars tayyorlaymiz kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar;

-nchi,-inchi qo‘shimchasi, nechanchi? so‘rog‘i (2 soat).

-miz qo‘shimchasi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Bu – mening maktabim. Men 4-sinfda o‘qiyman. Maktabimiz ikki qavatli. Sinf xonalari keng va yorug‘. Kitob javonida darsliklar va daftarlar turadi. Maktab oshxonasida ovqatlanamiz. Ashula darsida qo‘shiq aytamiz.

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qiydi va topshiriqlarni yoza olish.

#### **7-8-mavzu. Ko‘chamiz. (2 soat, A1+ 3 soat)**

**Lug‘at:** ko‘cha, ko‘p, uylar, xonadonlar, hovli, zamonaviy, yorug‘ kabi tayanch so‘zlar; keng, chiroyli, gullar, daraxtlar, bir qavatli, ko‘p qavatli, ozoda, aziz kabi belgi bildiruvchi so‘zlar;

yashamoq, yoqmoq, ketmoq kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar.

-ga, -ka, -qa qo‘shimchalari (2 soat).

**Nutq namunalari:** Bizning ko‘chamiz keng. Ko‘chamizda ko‘p qavatli uylar, maktab, bolalar bog‘chasi bor. Shu ko‘chadan maktabga boramiz. Dadam bilan onam ishga borishadi.

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid savollarga javob berish, berilgan rasm yoki predmetni tayanch so‘zlar yordamida tasvirlab bera olish, o‘qilgan ertak, hikoya mazmunini so‘zlab bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, mavzuga oid ko‘p bo‘g‘inli murakkab so‘zlarni to‘g‘ri ko‘chira olish, tutuq belgisi va tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olish, o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha 25-30 ta so‘zdan iborat diktant yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

#### **9-10-mavzu. Uyimiz. (2 soat, A1+: 3 soat)**

**Lugʻat:** uyimiz, hovli, bir qavatli, ayvon, yotoqxon, zina, tom, devor, gulzor, hammom, oshxon, bolalar xonasi, yoʻlak kabi tayanch soʻzlar; yashamoq, tepada, yonida, joylashmoq kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar.

**Qayerda? Qayerga?** soʻroqlari (1 soat); **X** va **H** tovushlari.(1 soat)

**Nutq namunalari:** Biz uch xonali uyda yashaymiz. Xonalarga keng dahlizdan kirasiz. Oshxonamiz oʻng tomonda, mening xonam esa chap tomonda. Uyimiz juda shinam va yorugʻ. Sizni uyimizga taklif qilamiz. Qachon biznikiga kelasiz?

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid berilgan savollarni tushunib, ularga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni oʻqish, topshiriqlarni yoza olish.

**11-13-mavzu. Bogʻda. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lugʻat:** bogʻ, dala, hovli, daraxtlar, olma, uzum, anor, nok, koʻchat, bogʻbon kabi mavzuga oid tayanch soʻzlar; shirin, achchiq, suvli, suvsiz kabi belgi bildiruvchi va parvarish qiladi, sugʻoradi, oʻtqazadi, teradi kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar (1 soat).

**Hisob soʻzlari** (2 soat);

**Nutq namunalari:** Bogʻda qanday daraxtlar oʻsadi? Bogʻda turli mevali daraxtlar oʻsadi. Bogʻni kim parvarish qiladi? Bogʻni bogʻbon parvarish qiladi. Bogʻda hamma mevalar pishgan. Mana eng mazali xurmo.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid berilgan savollarga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish, matnlar mazmunini soʻzlab bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qila olish, berilgan ertak, kichik hikoyalarni oʻqiy olish, sheʼr, hikmatli soʻzlarni oʻqib, yod olish, mavzuga oid koʻp boʻgʻinli murakkab soʻzlarni toʻgʻri koʻchira olish, berilgan tayanch soʻzlar, mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bogʻlanishli matn yoza olish.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A1+: 2 soat)**

**14-16-mavzu. Kuzgi ishlar. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** kuzgi, hosilni yigʻadilar, hosil bayrami, havo, daraxtlar, barglar, poliz, sabzavotlar, qovoq, behi, kartoshka, sholgʻom, sabzi, tayyorgarlik, issiqxon, ombor kabi mavzuga oid tayanch soʻzlar; sargʻayadi, toʻkiladi, soviydi, yigʻib olinadi, haydaydilar, tekislaydilar kabi harakatni bildiruvchi soʻzlar (2 soat).

### **Ko'plik sondagi shaxs-son qo'shimchalari (1 soat)**

**Sh sh** tovushi (2 soat).

**Nutq namunalari:** Kuzgi ishlar boshlandi. Hamma qishga tayyorgarlik ko'radi. Odamlar tarnov va mo'rilarni tozalaydilar. Dehqonlar qishga tayyorlanadilar. Hosilni yig'ib oladilar. Yerni tekislaydilar va haydaydilar.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** mavzuga oid savollarni tushunib, ularga javob bera olish, rasmlar asosida suhbatlasha olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'zlar va jummalarni to'g'ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so'zlar bilan qo'llab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o'qish, topshiriqlarni yozish.

### **17-19-mavzu. Kitob. (3 soat, A1+ 4 soat)**

**Lug'at:** kitoblar, kutubxona, she'rlar, ertaklar, qahramon, hikoya, kitob, do'st, ko'p narsa, varaqlari, ehtiyot kabi tayanch so'zlar;

**rangli, rasmlı, qiziqarli, yangi** kabi belgi bildiruvchi so'zlar; **o'qiyimiz, yod olamiz, so'zlab beramiz, yirtmang, asrang, buklamang, o'rganamiz, ehtiyot qiling** kabi faoliyatni bildiruvchi so'zlar;

**haqida, to'g'risida** ko'makchilari (1 soat);

**-gan** qo'shimchasi va uning birlik sonda tuslanishi (2 soat).

**Nutq namunalari:** Maktabimizda kutubxona bor. Kutubxonada har xil kitoblar ko'p. Biz ertak, hikoya kitoblarni qiziqib o'qiyimiz. "Uch og'a-ini botirlar" haqidagi ertakni o'qiganmisan? Yo'q, bu ertakni o'qimaganman. Bu kitob kutubxonamizda bormi? Ha, kutubxonada bor.

### **O'quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so'zlash:** mavzuga oid yangi so'zlar, sodda savol, gaplarni, suhbatlarni tushunish; o'qilgan ertak, hikoya yoki ko'rilgan film mazmunini so'zlab bera olish.

**Talaffuz qilish, o'qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so'z va jummalarni to'g'ri talaffuz qilish, suhbatlarni dialog tarzida mos ohangda o'qiy olish; matn tarkibidagi so'zlarni bo'g'inga to'g'ri ajratib ko'chira olish, o'rganilgan mavzular bo'yicha 25-30 ta so'zdan iborat diktant yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

### **20-22-mavzu. Bozorda. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lug'at:** bozor, sotuvchi, xaridor, sabzavotlar, ko'katlar, quruq meva, yong'oq, yeryong'oq, qancha, narx, arzon, qimmat, necha pul, necha dona, necha so'm, ko'rsating, tortib bering kabi tayanch so'zlar (1 soat).

**Nutq namunalari:** Onam bilan bozorga bordik. Bozorda turli sabzavotlar, ho'l va quruq mevalar ko'p. Bizga bir kilogramm nok va ikki kilogramm olma bering (1 soat).

**Qanday? qanaqa? Nima qildi? (qilyapti?) soʻroqlari (2 soat).**

**Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:**

mavzuga oid savollar, matnlar mazmunini tushunib, savollarga javob bera oladi, rasmlar asosida suhbatlasha oladi.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:**

mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qiladi; berilgan sheʼr, hikmatli soʻzlarni ifodali oʻqiy oladi va yoddan ayta oladi; matn yuzasidan savollarga javoblarni xatosiz yoza oladi; berilgan tayanch soʻzlar asosida matnni toʻldirib yoki davom ettirib, yoza oladi;

mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bogʻlanishli matn yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A1+: 2 soat)**

**23-25-mavzu. Doʻkonda. (3 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** doʻkon, ust kiyim, oyoq kiyim, ipak mato, paxtali, tugmali, yoqali, koʻk rangli, kiyaman, yoqtiraman, yarashadi kabi tayanch soʻzlar.

-dan qoʻshimchasi, kimdan? qayerdan? qachon? soʻrogʻi (1 soat).

-qanday? soʻrogʻi (1 soat), “sifat+ot” qolipidagi soʻzlar (1 soat).

**Nutq namunalari:** Otam bilan kiyim doʻkoniga bordim. Bu koʻylak ipak matodan ekan. Shu koʻylakni sotib oldik.

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** doʻkon, savdo-sotiq mavzusiga oid soʻzlarni, matnlarni tushunish, savollarga javob berish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, sodda yigʻiq gaplar tuza olish.

**26-27-mavzu. Maktab oshxonasi. (2 soat, A1+:3 soat)**

**Lugʻat:** maktab oshxonasi, oshpaz, milliy taomlar, choy, sharbat, non, somsa, shoʻrva, chuchvara, palov, kabob, manti, shirin, mazali, bemaza, shoʻr, tuzsiz, achchiq, ovqatlanamiz, ichamiz, yeymiz kabi tayanch soʻzlar.

**Nutq namunalari:** Tanaffusda maktab oshxonasiga kirdik. Men somsa bilan choy oldim. Anvar palov oldi. Palov juda mazali ekan.(1 soat).

**Nima? Nimani? Nima qilasiz?** soʻroqlari (1 soat); **Sifat+ekan** tuzilishli feʼl shakllari (1 soat).

**Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid tayanch soʻzlar, berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlarni tushunish, savollarga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qish va topshiriqlarni yozish.

**28-30-mavzu. Yil fasllari va ob-havo. (3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug‘at: yil, fasl, o‘xshamaydi, har kuni, har oyda, yozda, qishda, kuzdan keyin, bahordan oldin, harorat, esa, o‘ziga xos kabi tayanch so‘zlar (1 soat).**

**Oldin, keyin ko‘makchilarining ishlatilishi (1 soat). -sh, -ish qo‘shimchasi (1 soat).**

**Nutq namunalari:** Bir yilda to‘rt fasl bor. Qishdan keyin bahor keladi. Qishdan oldin esa kuz fasli edi. Har faslning o‘ziga xos ob-havosi bo‘ladi. Yozda kunlar juda issiq bo‘ladi. Qishda esa kunlar juda sovuq bo‘ladi. Kuzda havo salqin bo‘ladi. Bahorda esa kunlar iliq bo‘ladi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid tayanch so‘zlar, berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlarni tushunib, savollarga javob berish, o‘zaro muloqotda ruxsat so‘rash, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish kabi muomala odobiga oid so‘z va iboralarni qo‘llay olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar, jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ko‘p bo‘g‘inli murakkab so‘zlarni to‘g‘ri ko‘chirib yozish, nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlar yoki qo‘shimchalardan mosini qo‘yib, yoza olish, 25-30 ta so‘zdan iborat matn asosida diktant yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**31-33-mavzu. Bahor keldi. (3 soat, A1+ 4 soat)**

**Lug‘at: bahorda, dehqon, ko‘m-ko‘k, qip-qizil, bog‘bon, ko‘chat, daraxt kabi tayanch so‘zlar; haydaladi, ekiladi, sug‘oradi, tozalamoq kabi faoliyatni bildiruvchi so‘zlar (1 soat).**

**-da qo‘shimchasi (1 soat), kim? nima? qayerda? so‘roqlari (1 soat); -jon qo‘shimchasi (1 soat).**

**Nutq namunalari:** Bahorda kunlar isiydi, yerlar haydaladi, ekin ekiladi. Atrof ko‘m-ko‘k bo‘ladi. Qip-qizil lolaqizg‘aldoqlar ochiladi. Ko‘chatlar o‘tqaziladi(1 soat).

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** bahor fasli, tabiatdagi o‘zgarishlar, bahorgi ishlarga oid tayanch so‘zlar, berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlarni tushunish, she‘rlarni yoddan ayta olish, savollarga javob berish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan



qo‘llab, gaplar tuza olish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qiy olish va topshiriqlarni yoza olish.

**34-36-mavzu. Assalom, Navro‘z! ( 3 soat, A1+:4 soat)**

**Lug‘at:** qadimdan, xursand, yilboshi, qariyalar, ehson, nogironlar, ziyorat, mehr-muruvvat, bahor taomlari, xabar olinadi, hashar, tozalanadi, xalq sayllari, o‘tkaziladi kabi tayanch so‘zlar (1 soat).

**-dilar, -(i)shdi** qo‘shimchalarining qo‘llanishi (2 soat).

**Nutq namunalari:** Mana, Navro‘zi olam keldi. Navro‘z qadimdan yilboshi bayrami hisoblangan. Yurtimizda shodlik va mehr-muruvvat kunlari boshlandi. Odamlar qariyalardan, betoblardan xabar oldilar. Qarindoshlar, qo‘shnilar bir-birlarini ziyorat qiladilar. Ko‘chalar, hovli va uylar tozalanadi. Mahallalarda navro‘z taomlari pishiriladi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** hashar, navro‘z bayrami, sayllar, bayram tantanalari, milliy urf-odatlariga oid tayanch so‘zlar, berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlarni tushunish, savollarga javob berish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab, gaplar tuzish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni o‘qib, topshiriqlarni yoza olish.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A1+: 2 soat)**

**37-38-mavzu. Orasta bo‘ling. (2 soat, A1+: 4 soat)**

**Lug‘at:** tozalik, sog‘lik, tumov, kasal, tish, yuvadi, sovun bilan, doimo, iflos, toza tuting, dazmollab kiying, havasi keladi, amal qiling, kir, bo‘lmaydi, tirnog‘ini oladi, artadi, tozalaydi kabi tayanch so‘zlar (1 soat).

**-lik** qo‘shimchasining ishlatilishi (1 soat).

**Nutq namunalari:** Orasta bo‘ling. Har doim ozodalikka amal qiling. Tishingizni ertalab va kechqurun yuving. Qo‘llarni doim sovun bilan yuvish kerak. Lola qanday qiz? Lola ozoda qiz. Ozoda bolalar kasal bo‘lmaydilar. Tozalik – sog‘lik garovi.

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid so‘zlar, ular yuzasidan berilgan savollar, shu mavzudagi kichik matnlar mazmunini tushuna olish, savollarga javob berish, o‘qilgan ertak, hikoya yoki ko‘rilgan film mazmunini so‘zlab bera olish, o‘zaro muloqotda ruxsat so‘rash, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish kabi muomala odobiga oid so‘z va iboralarni to‘g‘ri qo‘llay olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qilish, berilgan matn, kichik hikoyalarni o‘qish, she‘r, hikmatli

soʻzlarni ifodali oʻqib, yoddan ayta olish, matn tarkibidagi soʻzlarni boʻgʻinga toʻgʻri ajratib koʻchira olish.

### **39-40-mavzu. Sport va salomatlik. (2 soat, A1+: 4 soat)**

**Lugʻat:** sport, sport turlari, suzish, yugurish, badiiy gimnastika, kurash, mashq qilish, chiniqish, sport anjomlari, shugʻullanish, sogʻlom boʻladi, toza havo, sogʻlik, boylik kabi tayanch soʻzlar (1 soat).

**-ish** qoʻshimchasi bilan yasalgan sport turlari hamda harakatni bildiruvchi soʻzlar (1 soat).

**Nutq namunalari:** Sport bilan shugʻullanish kerak. Sport bolalarni chiniqtiradi. Men badiiy gimnastika bilan shugʻullanaman. Akam futbolga juda qiziqadi. Keling, biz bilan voleybol oʻynashni mashq qiling. Sport bilan shugʻullanganlar har doim sogʻlom boʻladi.

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** sport, sport turlari, sport anjomlari, salomatlikka oid soʻzlar, ular yuzasidan berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlarni tushunib, savollarga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qilish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi soʻzlar bilan qoʻllab, gaplar tuzish. Shu mavzuda berilgan gaplar va matnlarni oʻqib, topshiriqlarni yoza olish.

### **41-42-mavzu. Har doim tinchlik boʻlsin! (2 soat, A1+4 soat)**

**Lugʻat:** tinchlik, barqaror, dunyo, xotirjamlik, chunki, vayron, xotira, hech kim kabi tayanch soʻzlar; boʻlsin, koʻpaymasin, istamaydi, olib boradi kabi faoliyatni bildiruvchi soʻzlar.

**Nutq namunalari:** Har doim tinchlik boʻlsin! Hech kim urushni istamaydi. Chunki urush uylarni vayron qiladi, odamlar halok boʻladi. Dunyoda yetimlar koʻpaymasin. Har yili ustozimiz “Xotira maydoni”ga olib boradilar.

Buyruq-istak maylining **-sin** qoʻshimchasi. **U** va **Oʻ** tovushlari talaffuzi (2 soat).

#### **Oʻquvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va soʻzlash:** mavzuga oid soʻzlar, berilgan savollarni, shu mavzudagi kichik matnlar mazmunini tushunib, savollarga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, oʻqish va yozish:** mavzuga oid tayanch soʻzlar va jummalarni toʻgʻri talaffuz qilish, berilgan matn, kichik hikoyalarni oʻqiy olish, sheʼrlarni ifodali oʻqiy olish, mavzuga oid koʻp boʻgʻinli murakkab soʻzlarni toʻgʻri koʻchira olish, matn boʻyicha berilgan savollarga javoblarni yoza olish, tayanch soʻzlar asosida matnni toʻldirib yoki davom ettirib yoza olish, oʻzlashtirilgan mavzular boʻyicha 25-30 ta soʻzdan iborat diktant yoza olish.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

#### **43-44-mavzu. Yo‘l harakati. (2 soat, A1+:4 soat)**

**Lug‘at:** yo‘l, harakat, yo‘lka, yo‘lovchi, piyodalar yo‘lkasi, mashinalar yo‘li, bekat, to‘xtash joyi, yo‘l belgilari, haydovchi, piyoda, yo‘l qoidalari, kutib turish kabi tayanch so‘zlar; tez, sekin, shoshmay, yugurmay, mumkin, mumkin emas kabi holat bildiruvchi so‘zlar; o‘tish kerak, bilishi kerak, to‘xtab turish kerak, kutish kerak kabi faoliyatni bildiruvchi so‘zlar (1 soat). -sh, -ish qo‘shimchalari hamda mumkin, mumkin emas so‘zlari (1 soat).

**Nutq namunalari:** Hamma yo‘l harakati qoidalarini bilishi kerak. Svetoforning yashil chirog‘ida yo‘ldan o‘tish mumkin. Qizil chiroqda to‘xtash va kutish kerak. Katta ko‘chadan yugurmay o‘tish kerak.

#### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan fanga oid kompetensiyalar**

**Tinglab tushunish va so‘zlash:** mavzuga oid berilgan savollarni tushunib, ularga javob bera olish.

**Talaffuz qilish, o‘qish va yozish:** mavzuga oid tayanch so‘zlar va jummalarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ularni nutqda belgi va faoliyat bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llab gaplar tuza olish.

#### **45-46-mavzu. Yozgi ta‘til. (3 soat )**

**Lug‘at:** yozgi ta‘til, birga, oromgoh, zerikmaymiz, do‘stlashamiz, chiniqamiz, taassurot, esdalik, qaytadilar kabi tayanch so‘zlar.

**Nutq namunalari:** Yozgi ta‘tilda nima qilasiz? Ta‘tilda oromgohga boraman.

#### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish):**

##### **A1**

sodda savollar va gaplar, suhbatlarni tinglab, tushuna oladi;  
berilgan matnni (badiiy asardan parcha, she‘r) o‘qib tushuna oladi;  
matn (topishmoq, maqol, ertak, kichik hikoya, she‘r) tarkibidagi yangi so‘zlar ma‘nosini lug‘at yordamida tushuna oladi;

sodda savollarga javob bera oladi, ma‘lumot so‘ray oladi;  
o‘zi, oilasi, yashash joyi, do‘stlari, tanishlari haqida gapira oladi;  
mamlakatimiz ramzlari va bayramlari, an‘analari haqida gapira oladi;  
audio-video vositalar yordamida eshittirilgan so‘zlar va gaplar ma‘nosini tushunib, gapira oladi;

topishmoq, tez aytish, ertak va kichik hikoyalarni o‘qib tushunadi, mazmunini so‘zlab bera oladi;

o‘zbek tilida o‘zlashtirilgan 600 ta so‘zni nutqida qo‘llay oladi;

o‘rganilgan mavzu doirasida o‘z fikrini 6-8 ta gap bilan izchil bayon qila oladi;

so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish va bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi;

o‘rganilgan so‘zlar va sodda gaplarni, tabriknoma, xat, so‘rovnoma ma‘lumotlarini to‘g‘ri yoza oladi;

25-30 so‘zdan iborat diktant matnini husnixat talablari asosida yoza oladi.

### **A1+**

savollar va gaplarni, eshittirilgan qisqa matn, suhbat, qo‘shiq va she‘rlarni tushuna oladi;

so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qilgan holda yoza oladi;

xalq og‘zaki ijodi (topishmoq, maqol, tez aytish, ertak) va bolalar adabiyoti namunalaridan olingan hikoya, she‘rlarni o‘qib tushunadi va mazmunini so‘zlab bera oladi, mavzu yuzasidan yoshiga mos tarzda qisqa taqdimot qila oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (2 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A1+: 2 soat)**

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari** **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

#### **A1**

axborot manbalaridan (televizor, telefon, kompyuter) foydalana oladi; media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajara oladi.

#### **A1+**

telefon orqali yuborilgan xabarni o‘qiy oladi va xabar jo‘nata oladi; media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa oladi va foydalana oladi.

### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A1**

to‘garakda, kutubxonada, uyda rasmlı kitoblar, jurnallar yordamida mustaqil o‘rganish orqali bilimını oshira oladi;

sportning yoshiga mos turi bilan shug‘ullana oladi;

#### **A1+**

mustaqil o‘rganish orqali bilimını oshirib bora oladi;

o‘zini tuta oladi, o‘zining xatosini tushuna oladi.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A1**

davlat ramzlarining ma‘nosini tushuna oladi;

sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini avaylab-asray oladi.

#### **A1+**

davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘la oladi;

farzandlik va o‘quvchilik burchini bilib, unga rioya qila oladi.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A1**

o‘zi yashaydigan hududning tarixiy obidalari haqida tushunchaga ega bo‘ladi; uyi, maktabi, turar joyini qadrlay oladi;

do‘stlari, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘la oladi.

**A1+**

o'zi yashaydigan hududning tarixiy obidalarini qadrlay oladi;  
odob-axloq qoidalariga rioya qila oladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A1**

mamlakatimizdagi bayram kunlarini biladi;  
isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushuna oladi;  
o'z ehtiyoji uchun kerak bo'lgan narsalardan (kiyimi, o'quv qurollari) tejab foydalana oladi;

**A1+**

isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushuna oladi, unga amal qila oladi;  
bir kunlik xarajatlarini hisoblay oladi.

**Mavzularni o'rganish uchun – 46 soat (A1+: 68 soat)**

**Nazorat ishlari uchun – 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun – 4 soat**

**Takrorlash uchun – 6 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun – 4 soat (A1+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A1+: 102 soat)**

**Sinfdan tashqari o'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar**

O'zbek xalq ertaklari 1,2,3- tom

Po'lat Mo'min "Bolajon, bolajonim"

T. G'oyipov Oltin shoxli kiyik

A. Obidjon O'g'irlangan pahlavon

Z. Ibrohimova Gulbahorning do'stlari

Abdurahmon Akbar "Ertaklar karvoni" (Jahon xalqlari ertaklari to'plami)

Z. Husainova O'zbek xalq topishmoqlari

Nabijon Ermatov "99 topishmoq va tez aytish"

**5-SINF**

**(haftasiga 2 soat, jami 68 soat, A2+: 102 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

axborot manbalaridan (televizor, radio, telefon, kompyuter) foydalana olish;  
kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.

**A2+**

axborot manbalaridan (televizor, radio, telefon, kompyuter) kerakli ma'lumotlarni qidirib topa olish.

### **O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

#### **A2**

o‘qib-o‘rganish orqali bilimini mustaqil ravishda oshirib borish;  
kun tartibini to‘g‘ri tashkil qilish.

#### **A2+**

xatti-harakatini nazorat qilish, xatolarini tuzatishga harakat qilish;  
yaxshilik va yomonlikni farqlash, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A2**

san‘at turlarini bilish, ularni bir-biridan farqlay olish;  
maktabning ichki tartib-qoidalariga amal qilish;

#### **A2+**

milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an‘analar, bayramlar) bilish, sog‘lom  
turmush tarziga ( sport, tibbiy gigiyena) amal qilish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

#### **A2**

o‘quvchilik burch va huquqlari, vazifalarini bilish;  
maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish.

#### **A2+**

o‘quvchilik burch va huquqlari, vazifalarini bilish, ularga rioya qilish;  
oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish (kattaga hurmat, kichikka izzatda  
bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish).

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A2**

hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;

#### **A2+**

turli vaziyatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish.

### **1-3-mavzu. Mening Vatanim. ( 3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** vatan, viloyatlar, tumanlar, maskan, ulug‘, buyuk, ulkan,  
qurilish, bunyod etilmoqda, qurilmoqda, qadriyatlar, sanoat korxonalari,  
bog‘lar, farovon hayot, obod turmush kabi tayanch so‘zlar.

**Grammatika:** So‘z turkumlari. Ot (1soat), atoqli va turdosh otlar (1soat),  
Narsa-buyum va shaxs otlari (1 soat).

**Muomala odobi:** Kundalik muomala odobi qoidalari.

**Adabiy o‘qish:** Vatan mavzusidagi matnlar, she‘rlar va maqollar.

### **4-6-mavzu. Oila a‘zolarining ish kuni. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** oila a'zolari, ish kuni, barvaqt, ertalab, ish vaqti, o'qish, ish, korxonalar, shifokor, shifoxona, bog'cha, o'qituvchi, maktab, boradi, ishlaydi kabi tayanch so'zlar.

**Grammatika:** Otlarda birlik va ko'plik sondagi egalik qo'shimchalari (1soat), ularning imlosi (1 soat). Egalik qo'shimchalari qo'shilganda yuz beradigan tovush o'zgarishlari (1 soat).

**Muomala odobi:** Kattalarga murojaat qilish shakllari.

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, she'rlar va maqollar.

### **7-9-mavzu. Yangi fanlarni o'rganamiz. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** beshinchi sinf, yangi fanlar, endi, o'simliklar dunyosi, tarix, o'rganamiz, bilib olamiz, tanishamiz, yaxshi ko'raman kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Kelishik qo'shimchalari (1 soat). Ot va olmoshlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi (2 soat).

**Muomala odobi:** Tengdoshlar bilan o'zaro so'zlashish odobi.

**Adabiy o'qish:** Ilm haqidagi maqollar, hikoyatlar, she'rlar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

### **10-12-mavzu. Ustozga rahmat. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** mehribon, g'amxo'r, talabchan, o'qish va yozishni o'rgatgan, ustozga murojaat qilmoq, topshiriqlarni bajarmoq, ustozlar ko'magida, ustozimga rahmat kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qaratqich kelishigi (1soat). Qaratqich kelishigidagi so'zlarning egalik qo'shimchalarini olgan so'z bilan birga qo'llanishi (2 soat).

**Muomala odobi:** Telefonda so'zlashish odobi.

**Adabiy o'qish:** Ustozlar haqidagi she'rlar, matnlar, kichik hikoyalar, hikmatlar.

### **13-14-mavzu. O'zbek tili xonasi. (2 soat, A2+5 soat)**

**Leksika:** o'zbek tili xonasi, xona devorlarida ilingan, taniqli o'zbek yozuvchilari, shoirlarning suratlari, lug'atlar, so'zlashgichlar, qiziqarli mashg'ulot kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Tushum kelishigi. Tushum kelishigining belgisi va belgisiz qo'llanishi (1soat). Tushum kelishigi va egalik qo'shimchalarining birga qo'llanishi (1 soat).

**Muomala odobi:** Murojaatlarga javob berish odobi.

**Adabiy o'qish:** Til haqidagi maqollar, rivoyatlar, matnlar, she'rlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 4 soat)**

**15-16-mavzu. Mening sinfdoshlarim. (2 soat, A2+: 3soat)**

**Leksika:** sinfdoshlar, sinf sardori, baland bo‘yli, aqlli, tirishqoq, juda quvnoq, yoqimtoy qiz, a’lo baholar, o‘qiydi, qiziqadi, yaxshi ko‘raman kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Kelishik qo‘shimchalarining ko‘makchilar bilan qo‘llanishi (1soat). Ayrim ko‘makchilarning kelishik qo‘shimchalariga ma’nodoshligi (1 soat).

**Muomala odobi:** Hol-ahvol so‘rash.

**Adabiy o‘qish:** do‘stlik mavzusidagi matnlar, kichik hikoyalardan parchalar, rivoyatlar, she’rlar, maqollar.

**17-19-mavzu. Oltin kuz. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** kuz, tabiat, oltin kuz, sariq barglar, oltindek mevalar, burkanadi, bog‘lar va polizlar, mo‘l hosil, yig‘im-terim vaqti, mevalar va sabzavotlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘rin-payt kelishigi (1 soat). -da qo‘shimchasining talaffuzi va imlosi (2 soat).

**Muomala odobi:** Iltimos qilish.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid suhbatlar, maqol va hikmatlar, hikoyalardan parchalar, she’rlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**20-21-mavzu. To‘garak mashg‘ulotlari. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** to‘garaklar, mashg‘ulotlar, o‘zbek tili to‘garagi, she’rlarni ifodali o‘qish, matematika to‘garagi, masala yechish, bir oyda, masalaning yarmi, chorakam to‘rt, ikki yarim kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi bilan qo‘llanadigan ot ko‘makchilar (2 soat).

**Muomala odobi:** Ruxsat so‘rash.

**Adabiy o‘qish:** Ilm olish, hunar egallash mavzusidagi maqol va hikmatlar, hikoyat va rivoyatlardan parchalar, she’rlar.

**22-23-mavzu. Qishki ta’til. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** qish fasli, qishki ta’til, qorbo‘ron o‘ynash, tepalikdan sirpanish, muz ustida, konki uchmoq, chana uchmoq, qorbobo yasash kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Jo‘nalish kelishigi (1 soat). -ga, -ka, -qa qo‘shimchalarining talaffuzi va imlosi (1 soat).

**Muomala odobi:** Ruxsat berish.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid hikoyalar, suhbatlar, she’r va ertaklar.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**



**Nutqiy va lingvistik kompetensiya** (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish):

**A2**

oʻqilgan, tinglangan matnlar tarkibidagi yangi soʻzlar maʼnosini lugʻat yordamida tushuna oladi;

Vatan, oila, ustozlar, kuz, qishki taʼtilga oid matnlar, suhbatlar mazmunini savol-javob shaklida qisqa soʻzlab bera oladi;

oʻrganilgan mavzular boʻyicha sheʼrlarni oʻqib, yoddan ayta oladi;

muomala odobi (kattalarga murojaat qilish, telefonda soʻzlashish, hol-ahvol soʻrash, iltimos qilish, ruxsat soʻrash va ruxsat berishga oid) elementlarini nutqda qoʻllay oladi;

atoqli va turdosh otlar, narsa-buyum va shaxs otlari, egalik va kelishik qoʻshimchalari, otlar va olmoshlar tarkibida birgalikda kelgan egalik va qaratqich kelishigi, oʻrin-payt kelishigi qoʻshimchalarini toʻgʻri yoza oladi;

mavzuga oid savollarga javob yoza oladi;

oʻrganilgan mavzular boʻyicha 31-40 ta soʻzdan iborat diktant yoza oladi.

berilgan tayanch soʻzlar, mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bogʻlanishli matn yoza oladi.

**A2+**

oʻrganilgan mavzularga oid matnlar, suhbatlar mazmunini soʻzlab bera oladi;

berilgan rasm, oʻquv filmi haqida suhbatlasha oladi;

oʻrganilgan muomala odobi elementlarini nutqda qoʻllay oladi;

berilgan mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bogʻlanishli matn yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A2+: 2soat)**

**24-26-mavzu. Ertaklar olamida. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ertaklar, oʻzbek xalq ertaklari, bir bor ekan, bir yoʻq ekan, juda qadim zamonda, mard va jasur, bahodir, pahlavon, yaxshilik, yomonlik, toʻgʻrilik, dovyurak, qoʻrqmas, saxiy, xasis, mehnatkash kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Joʻnalish kelishigi bilan qoʻllanadigan ot koʻmakchilar (2 soat).

**Muomala odobi:** Kechirim soʻrash.

**Adabiy oʻqish:** mavzuga oid suhbatlar, ertaklar. Yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollar.

**27-29-mavzu. Sport. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** sport turlari, jismoniy tarbiya, chiniqish, muntazam shugʻullanish, baquvvat, sogʻlom boʻlish, sport musobaqalari, sport zali, yugurish maydoni, bolalar sporti kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Chiqish kelishigi. **-dan** qo‘shimchasining talaffuzi va imlosi (2 soat). Chiqish kelishigi qo‘shimchasi bilan qo‘llanadigan ot ko‘makchilar (1 soat).

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga javob.

**Adabiy o‘qish:** Sport mavzusidagi hikoyalar, suhbatlar, sport va salomatlik haqidagi hikmatlar.

**30-32-mavzu. Shahrimiz (qishlog‘imiz) bo‘ylab sayohat. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** bahorgi ta‘til, ta‘til kunlari, shahar bo‘ylab sayohat, bayramga tayyorgarlik, Navro‘z sayillari, zamonaviy binolar, muzeylar, qadimiy obidalar, katta taassurot kabi tayanch so‘zlar va birikmalar;

**Grammatika:** Olmosh. Kishilik olmoshlari (2soat). Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi (1soat).

**Muomala odobi:** Minnatdorchilik bildirishga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Milliy bayramlar va sayillari bilan bog‘liq ma‘lumotlar, rivoyatlar, hikoyalardan parchalar, she‘rlar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**33-35-mavzu. Onajonlar bayrami. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** onajonlar, buvijonim, qadrlil, singlim, guldasta, tabrikلامoq, uzoq umr, tilamoq, sovg‘a tayyorلامoq, o‘z qo‘li bilan yasamoq, xursand qilmoq kabi tayanch so‘z va birikmalar;

**Grammatika:** O‘zlik olmoshi (1soat). O‘zlik olmoshining egalik va kelishik bilan turlanishi (2 soat).

**Muomala odobi:** Tabrikلامashga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Onalar haqidagi suhbatlar, matnlar, she‘rlar, maqollar, hikoyalardan parchalar.

**36-38-mavzu. Assalom, Navro‘z! (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** qadimdan, yil boshi, qariyalar, ziyorat, mehr-muruvvat, hashar, sayil, tozalamoq, sumalak pishirmoq kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Sifat haqida ma‘lumot. Sifatning turlari (1soat). Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar (1soat). Rang-tus bildiruvchi sifatlar (1soat).

**Muomala odobi:** Tabrikلامa javob berishga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** Navro‘z bayramiga oid suhbatlar, matnlar, she‘rlar, maqollar, hikoyalardan parchalar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**39-41-mavzu. Qadimiy shaharlar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** qadimiy shaharlar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, ko‘p ming yillik tarixga ega, qadimiy obidalar, muzey-shaharlar, sayyohlar, turli mamlakatlar kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Hajm-o‘lchovni bildiruvchi sifatlar (1soat). Bir-biriga ma‘nodosh va qarama-qarshi belgi-xususiyatni ifodalovchi sifatlar (1soat). Ularning nutqda qo‘llanishi (1soat).

**Muomala odobi:** Minnatdorchilik bildirish.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid adabiy matnlar (qissalar va hikoyalardan parchalar), she‘rlar, maqollar.

#### **42-44-mavzu. Ko‘cha qoidalari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** yo‘lovchilar, haydovchilar, ko‘chadan o‘tish qoidalari, piyoda yurish, yo‘l belgilari, qoidani buzish, man etilgan, svetofor chiroqlari, kesib kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar (1soat). Bir-biriga ma‘nodosh va qarama-qarshi belgi-xususiyatni ifodalovchi sifatlar. Ularning nutqda qo‘llanishi (2 soat).

**Muomala odobi:** Minnatdorchilikka javob berish.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid suhbatlar, kichik hikoyalar, she‘rlar.

**Nazorat ishi: Diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

#### **45-47-mavzu. Kim bo‘lsam ekan? (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** kasblar, kasb egasi, kasb ustasi, kasb tanlash, hunar o‘rganmoq, sohaga o‘qimoq, bilim olish, kasbni egallash, shug‘ullanadi, qiziqtiradi kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Sifat darajalari. Orttirma va qiyosiy darajalarni ifodalovchi vositalar (2soat). Belgini o‘zaro qiyoslashda **-roq, -ga qaraganda, -ga nisbatan, -dan** kabi vositalarining qo‘llanishi (1 soat).

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga oid so‘z va jumlar.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid adabiy matnlar, rivoyat va hikoyatlar, maqollar va she‘rlar.

#### **48-50-mavzu. Dam olish kuni. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** dam olish kuni, oilamiz bilan, nonushta qilamiz, pishirib keladilar, uylarni yig‘ishtiraman, hovli-ko‘chalarni supuradi, birga o‘ynaymiz, kitob o‘qiyamiz kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Sifatning ozaytirma darajasi (1soat), ularning imlosi va talaffuzi (2 soat).

**Muomala odobi:** Kechirim so‘rashga javob qaytarish.

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid suhbatlar, adabiy matnlar (qissalar va hikoyalar), she‘rlar, maqollar.

## **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish va yozish) kompetensiyalar:**

### **A2**

audiovizual vositalar orqali o'rtacha tezlikda berilgan xabarlar, kundalik muloqot yuritishga oid matnlarni tinglab tushuna oladi;

o'rganilgan mavzular bo'yicha matnlar mazmunini savol-javob shaklida, qisqa yoki to'liq so'zlab bera oladi;

o'zaro suhbatda kundalik muloqotda ishlatiladigan (murojaat etish va murojaatga javob berish, hol-ahvol so'rash va hol-ahvol so'rashga javob berish, rozilik yoki rad javobini berish, ruxsat so'rash va ruxsat berish, tabriklash va tabrikka javob berish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so'rash oid) muomala odobi elementlarini qo'llay oladi;

jo'nalish va chiqish kelishi qo'shimchalarini, kishilik, o'zlik olmoshi, maza-ta'm, rang-tus, hajm-o'lchov hamda xarakter-xususiyatni bildiruvchi sifatlar, sifatning ozaytirma va orttirma darajalarini og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;

o'rganilgan mavzular bo'yicha 31-40 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi;

matnni topshiriqlar asosida to'ldirib yoki davom ettirib yoza oladi;

berilgan tayanch so'zlar, mavzu yoki rasm asosida 6-8 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yoza oladi.

### **A2+**

ushbu mavzular bo'yicha suhbatga qo'shila oladi va munosabat bildira oladi; berilgan rasm, o'quv filmi haqida suhbatlasha oladi;

o'zaro suhbatda kundalik muloqotda ishlatiladigan muomala odobi elementlarini qo'llay oladi;

mavzuga oid savollarga javob yoza oladi, javoblarga mos savollar tuza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: ( 1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2soat)**

**Mavzularni o'rganish uchun - 50 soat (A2+: 74 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun - 4 soat**

**Takrorlash - 2 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun - (4 soat, A2+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A2+: 102 soat)**

## **6-SINF**

**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A2+: 102 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish; kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish).

**A2+**

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni topa olish, saralash; kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (o'zi haqidagi ma'lumotlarni yoza olish).

**O'zini-o'zi shakllantirish kompetensiyasi:****A2**

o'qib-o'rganish, turli to'garaklarga qatnashish; shaxsiy gigiyena, texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish; qiziqishlariga ko'ra qobiliyatini ko'rsata olish (bilimlar bellashuvi, turli ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish).

**A2+**

o'qib-o'rganganlari asosida sinfda, maktabda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:****A2**

oilasi, maktabi, mahallasi oldidagi burchini bilish; maktabi, sinfidagi jihozlarni asrab-avaylash.

**A2+**

turli tadbirlar, hasharlarda ishtirok etish va muomala madaniyatiga amal qilish;

oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo'lish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:****A2**

Vatan tuyg'usi muqaddas ekanligini his qilish; turli yo'nalishdagi san'at asarlarini tushuna olish;

**A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:****A2**

turli vaziyatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish.

**A2+**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;

**1-3-mavzu. Obod o'lkam. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** Vatanimiz, o'lka, diyor, shahar va qishloqlarimizda, turli millatlar, ahil va inoq, tinch va farovon, bunyodkorlik ishlari, turar joy binolari, litsey va kollejlari, keng ko'chalar, ko'priklar, sport majmualari, yashaydilar, yanada, qurilmoqda, obod bo'lmoqda kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Aniq va mavhum otlar (1 soat). O'rin-joy otlarining yasalihi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Vatan haqidagi matnlar, rivoyatlar, hikoyalardan parchalar, maqollar va she'rlar.

#### **4-5-mavzu. Kasblar. (2 soat, A2+:4 soat)**

**Leksika:** kasblar, o'qituvchi, tikuvchi, sotuvchi, shifokor, oshpaz, quruvchi, zardo'zlik, me'morchilik, mohir, gilamdo'zlik, hunar, bo'lib ishlaydi, kasbini tanlagan, o'rgatmoq, tushuntirmoq, tasviriy san'at kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Kasb-hunar otlarining yasalihi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** kasb-hunar haqidagi matnlar, she'rlar, maqollar.

#### **6-8-mavzu. Kutubxonada. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** maktabimiz kutubxonasi, kutubxonachi, darsdan keyin, sinfdoshlarimiz bilan, qiziqtirgan kitoblar, sarguzasht asarlar, she'riy kitoblar, har qaysimiz, ko'proq, hammamiz, xursand bo'ldik, olib o'qidik, yaxshi ko'radi, topib berdi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Shaxs otlari (1soat). Narsa-buyum otlari. Ularning yasalihi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

#### **9-11-mavzu. Bilim – xazina. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** bilim, tuganmas boylik, kitob - bilimlar kaliti, kitobni sevish, mutolaa qilish, o'qigan – o'zar, hech kim, allaqancha, hech qachon, kimdir, allakim, nimadir, qaysidir, qanchadir, hech qancha kabi tayanch birikmalar.

**Grammatika:** Belgilash olmoshlari (1soat). Jamlash olmoshlari (1soat). Ularning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** Ilm, ustozlar haqidagi adabiy matnlardan parchalar, rivoyat va maqollar, she'rlar.

#### **12-13-mavzu. Tabiat va iqlim. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** O'zbekiston tabiati, mintaq, baland tog'lar, keng sahrolar, jazirama issiq, quruq havo, ikki daryo oralig'i, so'lim vodiylar, mo'tadil

**iqlim, yog‘ingarchilik, quyoshli kunlar, bulutli kunlar** kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Bo‘lishsizlik olmoshlari. Ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi (2 soat)

**Adabiy o‘qish:** O‘zbekiston tabiati, tog‘lar va sahrolar iqlimi haqida adabiy matnlardan parchalar, maqollar, she‘rlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sinfдан tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**14-15-mavzu. Tabiatni asrang. (2 soat, A2+:3 soat)**

**Leksika:** tabiat, go‘zallik, tozalik, toza havo, atrof-muhit tozaligi, tabiatni asrash, tabiatga zarar yetkazmaslik, loqayd bo‘lmaslik, suvni ifloslantirmaslik, moddiy ne‘matlarni asrash kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Gumon olmoshlari. Ularning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** Tabiat va uning boyliklarini asrash haqidagi matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar, she‘rlar.

**16-17-mavzu. Qish manzarasi. (2 soat, A2+:4 soat)**

**Leksika:** Chimyon, Chortoq, Boysun, Zarafshon, Chotqol tog‘ tizmalari, dam olish maskanlari, qulay sharoitlar, so‘lim oromgohlar, toza havo, shaharliklar, chana uchish, chang‘i uchish kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Son. Sanoq sonlar va tartib sonlar. Ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid adabiy matnlar, kichik hikoyalar, she‘rlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash (1 soat)**

**18-19-mavzu. Chimyon tog‘larida. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** tog‘ tizmalari, qorli cho‘qqilar, eng baland cho‘qqi, tog‘ havosi, ko‘m-ko‘k archalar, dam olish maskani, dam oluvchilar, minglab, yuzlab, dam olish kuni, sayohat, tomosha qilmoq kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Chama va taqsim sonlar. Ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** Mavzuga oid adabiy matnlar, suhbatlar, she‘rlar.

**20-22-mavzu. Muzeyda. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** muzeylar, tarix muzeyi, tabiat muzeyi, adabiyot muzeyi, qadimgi eksponatlar, eski qo‘lyozmalar, tanishib chiqmoq, o‘z ko‘zi bilan ko‘rmoq, ma‘lumot olmoq, hamma, barcha, bari kabi tayanch so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Jamlovchi sonlar (1 soat), ularning yasalishi, talaffuzi va imlosi (2 soat). Sonlarning turlanishi va ot o‘rnida qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** muzeylar haqidagi matnlardan parchalar, she’rlar.

### **O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) kompetensiyalar:**

#### **A2**

o‘rganilgan mavzuga oid matnlar, ular yuzasidan topshiriqlar, muloqotda suhbatdoshining nutqini tinglab tushuna oladi;

mavzuga oid matnning mazmunini so‘zlab bera oladi, savollarga javob bera oladi;

mavzuga oid dialoglarda so‘zlovchining fikriga munosabat bildiradi;

mavzular bo‘yicha matnlarni to‘g‘ri o‘qiy oladi;

berilgan topshiriqlar asosida savollarga javoblar yoza oladi;

grammatik bilimlardan aniq va mavhum otlar, o‘rin-joy otlari, kasb-hunar otlari, narsa-buyum otlari, belgilash, jamlash, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari, sanoq, tartib, chama, taqsim, butun va kasr sonlarni nutqda qo‘llay oladi;

nuqtalar yoki savollar o‘rniga mos so‘zlar va grammatik shakllarni qo‘yib yozish orqali matnni to‘ldiradi;

o‘rganilgan mavzular bo‘yicha 41-50 so‘zdan iborat diktant yoza oladi;

berilgan mavzular bo‘yicha 10-14 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi.

#### **A2+**

o‘rganilgan mavzuga oid matnlar, ular yuzasidan topshiriqlar, audiovizual vositalar orqali berilgan xabarlar, muloqotda suhbatdoshining nutqini tinglab tushuna oladi;

berilgan topshiriqlar asosida javoblarga savollar tuza oladi;

berilgan mavzu yoki rasm bo‘yicha 10-14 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: (1 soat)**

**Sindan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**23-25-mavzu. Ona yurt posbonlari. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika: ona yurt posbonlari, chegarachi, baquvvat, chaqqon va epchil, bo‘linma, 10 ta askar, askarlarning ikkidan biri–yarmi, uchdan biri – choragi kabi tayanch so‘z va birikmalar.**

**Grammatika:** Vaqtni ifodalash (1soat). Butun va kasr sonlar (1soat). Sonlarda hisob so‘zlarining qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** Posbonlar, chegarachilarga oid adabiy matnlardan parcha, rivoyatlar, maqollar, she’rlar.

**26-28-mavzu. Mashhur kishilar. (3 soat, A2+: 5 soat)**



**Leksika:** uygʻonish davri, eng zabardast, kuchli namoyandalar, ulugʻ ajdodlarimiz, dunyoga mashhur insonlar kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ravish, uning maʼno turlari (1soat). Maqsad ravishlari, ularning qoʻllanishi (1 soat), sabab ravishlari, ularning qoʻllanishi (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** Buyuk ajdodlarimiz haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqol va hikmatlar, sheʼrlar.

**29-31-mavzu. Bahorgi ishlar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** bahorgi ishlar, uy yumushlari, dalada, bogʻda, tomorqada, hovli va koʻchamizda, har kuni, ertalab, tushda, kechki payt, oʻz vaqtida, oʻtgan yil, yildan-yilga, kelasi yil, bu yil kabi tayanch soʻz va birikmalar;

**Grammatika:** Payt ravishi (1soat). Oʻrin ravishlari (1soat). Ularning qoʻllanishi (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** Bahorgi ishlar, hashar bilan bogʻliq matnlar, maqollar, sheʼrlar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**32-34-mavzu. Milliy taomlar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** Milliy taomlar, Navroʻz taomlari, koʻk somsa, koʻk chuchvara, sumalak, halim, varaqi, qatlama, boʻgʻirsoq, palov, palov tayyorlash, mohir oshpaz, oshpazlik sirlari kabi tayanch soʻz va birikmalar.

**Grammatika:** Holat ravishlari (1soat). Miqdor-daraja ravishlari, ularning qoʻllanishi ( 2 soat).

**Adabiy oʻqish:** Milliy taomlarga oid adabiy matnlar, rivoyatlar, sheʼrlar.

**35-37-mavzu. Navroʻz udumlari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** Navroʻz, udumlar, atrof orastalanadi, koʻchalar, maydonlar, hovlilar, ariqlar, umumxalq hasharlari, navroʻz sayli kabi tayanch soʻz va birikmalar.

**Grammatika:** Yaqin va uzoq oʻtgan zamon feʼllari (1 soat). Ularning tuslanishi (1 soat). Yaqin va uzoq oʻtgan zamon feʼllarining boʻlishsiz shakllari (1soat).

**Adabiy oʻqish:** Navroʻz bayrami bilan bogʻliq adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar, sheʼrlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash: ( 1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**38-40-mavzu. Buyuk astronom. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** Mirzo Ulugʻbek, Ali Qushchi, salobatli, odil, aqlli, oʻtkir zehqli, buyuk olim, koinot, yulduzlar, kuzatmoq, qiziqmoq, qurdirmoq, rasadxona,

**abadiylashtirish, madrasa, astronom, ilm markazi, Samarqand** kabi tayanch soʻz va birikmalar.

**Grammatika:** Oʻtgan zamon davom feʼli (1soat). Oʻtgan zamon davom feʼlining tuslanishi (1 soat). Ularning boʻlishsiz shakli (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** Mirzo Ulugʻbek hayoti va faoliyati bilan bogʻliq adabiy matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar, sheʼrlar.

**41-43-mavzu. Bobom xotiralari. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** xotira, xotirlash, qadr, qadriyat, qadrlash, yaxshilik, mardlik, jasorat, fidoyi insonlar, bobom xotiralari, xotira va qadrlash maydoni, mangu olov, abadiy qoladi kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Oʻtgan zamon hikoya feʼli (1soat). Oʻtgan zamon hikoya feʼlining tuslanishi (1 soat). Ularning boʻlishsiz shakli (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** Xotira kuni, xotira va qadrlashga oid adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar, sheʼrlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**44-46-mavzu. Ona shahrim. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** zamonaviy binolar, keng koʻchalar, chiroyli bekatlar, koʻpriklar, bozorlar, qadimiy obidalar, turar-joy komplekslari, qurilmoqda, barpo etilmoqda kabi tayanch soʻz va birikmalar.

**Grammatika:** Hozirgi zamon feʼllari (1soat). Hozirgi zamon feʼllarining tuslanishi (1 soat). Ularning boʻlishsiz shakllari (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** Shahrimiz bilan bogʻliq maʼlumotlar, adabiy matnlardan parchalar, maqollar va sheʼrlar.

**47-49-mavzu. Dam olish rejasi. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** yozgi taʼtil, taʼtil rejasi, dam olish oromgohlari, sayohat, togʻlar bagʻri, bolalar oromgohida, dala hovlida, dam olmoqchiman, chiqmoqchiman, bormoqchiman, rejalashtiryapman kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Kelasi zamon feʼllari (1soat). Kelasi zamon feʼllarining tuslanishi (1 soat). Ularning boʻlishsiz shakllari (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, suhbatlar, sheʼrlar.

**Oʻquvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, oʻqish, yozish) kompetensiyalar:**

**A2**

mavzuga oid matnlar, topshiriqlar, audiovizual vositalar orqali berilgan xabarlar mazmunini, suhbatdoshining nutqini tinglab tushuna oladi;

mavzuga oid matnning mazmunini soʻzlab, savollarga javob bera oladi;

suhbatda muomala odobiga oid soʻz va jummalarni qoʻllay oladi;

mavzular bo'yicha matnlarni to'g'ri o'qiy oladi;  
berilgan topshiriqlar asosida savollarga javoblar yoza oladi;  
grammatik bilimlardan aniq va mavhum, o'rin-joy, kasb-hunar, narsa-buyum otlari, belgilash, jamlash, bo'lishsizlik olmoshlari, chama, taqsim, butun va kasr, jamlovchi son, maqsad, sabab, o'rin, payt, holat, miqdor daraja ravishlari, yaqin va uzoq o'tgan zamon fe'llarining qo'llanishiga oid topshiriqlarni bajara oladi;

nuqtalar yoki savollar o'rniga mos so'zlar va grammatik shakllarni qo'yib yozish orqali matnni to'ldira oladi yoki davom ettira oladi.

o'rganilgan mavzular bo'yicha 41-50 so'zdan iborat diktant yoza oladi. berilgan rasm yoki mavzular bo'yicha 10-14 ta gapdan iborat matn tuzib yoza oladi.

**A2+**

mavzuga oid dialoglarda so'zlovchining fikriga munosabat bildira oladi;  
berilgan rasm, o'quv filmi yoki kuzatilgan voqea-hodisani og'zaki tasvirlay oladi;

o'zlashtirilgan so'zlar, grammatik shakllar ishtirokida bog'lanishli matn tuza oladi;

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**Mavzularni o'rganish uchun - 49 soat (A2+ 74 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun - 4 soat**

**Takrorlash uchun -3 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun - 4 soat (A2+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A2+:102 soat)**

**7-SINF**

**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A2+: 102 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

**A2+**

kundalik faoliyatida uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (ish qog'ozlaridan e'lon, tabriknoma, xat yoza olish, referat tayyorlash).

**O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

bilimini mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish;

**A2+**

halol va to'g'ri so'z bo'lish, o'z xatti-harakatini nazorat qilish, do'stona tanqidni to'g'ri qabul qilish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish; qiziqishi va qobiliyatiga tayangan holda kasb turlari bilan tanishish.

**A2+**

turli tadbirlar, hasharlarda ishtirok etish va muomala madaniyatiga amal qilish;

oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga sahovatli bo'lish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

badiiy va san'at asarlarini tushunish;

odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

o'zgalarning milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish.

**A2+**

badiiy va san'at asarlaridan ta'sirlana olish;

xalqining tarixiy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxsiy rejalarini tuza olish, hisob-kitob bilan ish yuritish;

fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**A2+**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;

### **1-3-mavzu. Poytaxtim – faxrim. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** poytaxtimiz, muhtasham binolar, favvoralar, yangi turar-joylar, keng ko'chalar, mustahkam ko'priklar, obodonlashtirish, go'zal xiyobonlar, metro bekatlari, milliylik va zamonaviylik kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari (1 soat). Sodda yasama so'zlar (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Vatanimiz, poytaxtimizni obodonlashtirish bilan bog'liq adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.

**4-5-mavzu. Mahallam. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** mahalla, qo'shnilar, mehr-oqibat tufayli, orasta ko'chalar, ariqlar, oqar suvlar, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, hasharlar, mahallamiz oqsoqoli, mahalla faollari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** So'z yasovchi qo'shimchalar (1soat), ularning so'zga qo'shilish tartibi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar, suhbatlar va she'rlar.

**6-8-mavzu. Ustozlar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ustoz muallim, ta'lim bergan ustozim, birinchi ustozim, ilk saboq bergan, to'g'ri yo'lga boshlagan, ustoz - otangdan ulug', ustozimga rahmat kabi so'z birikmalari.

**Grammatika:** Qo'shma so'zlar (1 soat), ularning yasalishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Ustozlar mavzusiga oid adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**9-11-mavzu. Til bilgan – el biladi. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** til o'rganish, ona tili, o'zbek tili, xorijiy tillar, o'zaro muloqot vositasi, fanlarni o'rganish vositasi, til bilgan – el biladi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Juft va takror so'zlar (2 soat), ularning yasalishi va imlosi (1soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**12-14-mavzu. Insoniy fazilatlar. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** insoniy fazilatlar, kamtarlik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, to'g'riso'z, rostgo'y kabi tayanch so'zlar.

**Grammatika:** Sifatlarning yasalishi (1soat). Sifat yasovchi qo'shimchalarning qo'llanishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Kamtarlik, mehnatsevarlik, ijobiy fazilatlar haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**Nazorat ishi: Test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**15-17-mavzu. O'zbekiston tog'lari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** O‘zbekiston tog‘lari, tog‘ tizmalari, tog‘oldi mintaqalar, tog‘lar bag‘rida yashiringan xazinalar, archazorlar, shifobaxsh giyohlar, oromgohlar kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘rin va payt ma‘nosini bildiruvchi sifatlar (1 soat), ularning yasalishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** O‘zbekistonning tog‘lari haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she‘rlar.

**18-20-mavzu. Shifobaxsh o‘simliklar. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** O‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari, lola, ravoch, boychechak, yovvoyi piyoz, na‘matak, archa, bodom, pista, yong‘oq, tog‘olcha, yovvoyi olma daraxtlari kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qo‘shma sifatlar (1soat), juft sifatlar (1soat), takroriy sifatlar, ularning imlosi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** Shifobaxsh o‘simliklar haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar, she‘rlar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**21-22-mavzu. Vatanga sadoqat. (2 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** Vatanga sadoqat, vatanparvarlik, Vatanni sevish, asrab-avaylash, Vatanni himoya qilish, Vatanga xizmat qilish, fidoyilik unutilmaydi kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ravishlarning yasalishi. Ravish yasovchi qo‘shimchalar imlosi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid adabiy matnlardan parchalar, rivoyatlar, maqollar, she‘rlar.

**23-24-mavzu. Vatan sarhadlari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** Vatanimiz sarhadlari, chegarachilik kasbi, tinchlik posbonlari, ogohlik va xushyorlik, xalqimiz tinchligini saqlash, mas‘uliyat bilan qarash kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Qo‘shma ravishlar, juft ravishlar, ularning imlosi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** Vatan sarhadlari, chegarachilar haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she‘rlar.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar:**

**Nutqiy va lingvistik** (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)  
**kompetensiyalar:**

**A2**

matndagi notanish so‘zlarni lug‘at yordamida tushuna oladi;  
mavzuga oid matnlar va suhbatlar mazmunini so‘zlab bera oladi;  
berilgan kichik hikoya, rivoyatlarni ovoz chiqarib o‘qiy oladi;

mavzuga oid she'rlarni ifodali o'qib, yoddan ayta oladi;  
grammatik bilimlardan qo'shma, juft, takror so'zlar, sifatlar, ravish, qo'shma va juft ravishlarning qo'llanishiga oid og'zaki va yozma topshiriqlarni bajara oladi.  
matndan grammatik mavzuga doir birikmalar va jummalarni ajratib yoza oladi;  
berilgan savollar, tayanch so'zlar yoki rasm asosida 15-20 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuza oladi.

o'rganilgan mavzular bo'yicha 51-60 ta gapdan iborat diktant yoza oladi;  
**A2+**

matndagi notanish so'zlarni matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib tushuna oladi;

matnlar mazmuni bo'yicha savollar tuza oladi va o'zaro suhbatlasha oladi;

ko'rsatilgan o'quv filmi mazmunini so'zlab bera oladi;

berilgan tayanch so'zlardan foydalanib, rasm asosida og'zaki va yozma matn tuza oladi;

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**25-27-mavzu. Alisher Navoiy. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** buyuk mutafakkir, o'zbek adabiy tilining asoschisi, jahon adabiyotining tengsiz namoyandasi, besh doston muallifi, shoirlarning sultoni kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari (1 soat). Sodda va yasama fe'llar (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Alisher Navoiy haqidagi adabiy matnlar, rivoyatlar, Alisher Navoiyning ruboiylari va hikmatlaridan namunalar.

**28-29-mavzu. Adabiyot muzeyida. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** adabiyot muzeyi, ko'rgazmalar, o'quvchilar, chet ellik mehmonlar, tashrif buyurmoq, nodir eksponatlar, qo'lyozma nusxalar, illustrasiyalar, tasvirlangan kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'l yasovchi qo'shimchalar, ularning imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid suhbatlar, adabiy matnlar, she'rlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**30-32-mavzu. Ona – ulug' zot. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ulug' zot, xonadon chirog'i, dunyoga keltirib, katta qilib, o'stirib, voyaga yetkazgan kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Yordamchi fe'llar (1 soat), ularning fe'l yasashdagi ishtiroki (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Onalar haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**33-35-mavzu. Milliy urf-odatlarimiz. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** milliy, qadriyatlar, odob-axloq, mehmondo'stligi bilan, mehnatkashligi tufayli, urf-odatlariga ko'ra kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** To'liqsiz fe'llar (1 soat), ularning shakllari (2 soat).

**Adabiy o'qish:** milliy an'analar, urf-odatlar haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**36-38-mavzu. Amir Temur. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** Buyuk sohibqiron, dovyurak, mustahkam irodali, otda yurish, yaxshi ko'rgan, o'sdi, ulg'aydi, yurtga bosh bo'ldi, barpo etdi, ulkan binolar qurdirdi, himoya qildi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'l mayllari. Buyruq-istak maylidagi fe'llar (1soat), ularning tuslanishi va qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Amir Temur hayoti bilan bog'liq adabiy matnlar, rivoyatlar, she'rlar. Temur tuzuklari.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**40-41-mavzu. Suv – hayot manbai. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** zilol suvlar, suv zarralari, muzdek, suv – hayot manbai, suvning ahamiyati kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Shart maylidagi fe'llar, ularning qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**42-43-mavzu. O'zbekistonning suv havzalari. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** O'zbekiston suv havzalari, daryolar va ko'llar, Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Orolning qurishi, suv manbalarini asrash, buloqlar, turli kasalliklarga shifo kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** kerak, zarur, shart so'zlari, ularning qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Respublikamizning suv havzalari haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**44-46-mavzu. Sport – salomatlik garovi. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** sport mashg'ulotlari, sport turi bilan shug'ullanmoq, muntazam, salomatlik garovi, sog'lom turmush, musobaqada qatnashmoq, "Barkamol avlod" musobaqalari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ko'makchilar (1 soat), ularning qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** salomatlik va sportga oid matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.



**47-49-mavzu. Mening orzularim. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** yozgi ta'til, yozgi yumushlar, ta'til rejasi, turli sayohatlar, zilol suvlar, bepoyon qirlar, so'lim oromgohlar, kuch-quvvat yig'ib qaytish, dam olish kerak, uy yumushlariga yordam berish, bajarish lozim kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Yuklamalar (1soat), ularning qo'llanishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, suhbatlar, she'rlar.

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyalar:**

**A2**

mavzu bo'yicha suhbatlar, qoidalar va ular bilan bog'liq topshiriqlarni tinglab tushuna oladi;

grammatik bilimlarni mustahkamlashga doir savollarga javob bera oladi;

mavzuga oid dialoglarda so'zlovchining fikriga munosabat bildira oladi;

matnlar mazmuni bo'yicha savollar tuza oladi va o'zaro suhbatlasha oladi;

ko'rsatilgan o'quv filmi mazmunini so'zlab bera oladi;

matndan grammatik mavzuga doir birikmalar va jummalarni ajratib yoza oladi;

mavzu bo'yicha berilgan matnlarni to'g'ri o'qiy oladi, she'rlarni o'qib, yoddan ayta oladi;

grammatik bilimlardan qo'shma, juft, takror so'zlar va sifatlar, to'liqsiz fe'llar, buyruq istak maylidagi va shart maylidagi fe'llar; kerak, zarur, shart so'zlari; ko'makchilar va yuklamalarning qo'llanishiga oid og'zaki va yozma topshiriqlarni bajara oladi.

e'lon, tabrik, taklifnoma matnlarini yoza oladi.

berilgan savollar, tayanch so'zlar yoki rasm asosida 15-20 ta gapdan iborat bog'lanishli matn tuza oladi.

o'rganilgan mavzular bo'yicha 51-60 ta gapdan iborat diktant yoza oladi;

**A2+**

mavzu bo'yicha monologik matnlar yoki dialogik muloqotlar mazmunini tinglab tushuna oladi;

audiovideo vositalar yordamida eshittirilgan matnni yoki namoyish etilgan filmning mazmunini tinglab tushuna oladi;

tavsiya etilgan hikoya, rivoyatlarning mazmunini so'zlab bera oladi;

mavzu bo'yicha berilgan matnlarni to'g'ri, ravon o'qiy oladi, she'rlarni ifodali o'qib, yoddan ayta oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (2 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2soat)**

**Mavzularni o'rganish uchun - 49 soat (A2+: 74 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun - 4 soat**

**Takrorlash uchun 3 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun - 4 soat (A2+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A2+: 102 soat)**

## **8-SINF**

**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A2+: 102 soat)**

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefor, kompyuter), ma’lumot almashish, foydalanishda media madaniyatga rioya qilish.

**A2+**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tabrik xati yoza olish, anketalarni to‘ldirish).

**O‘zini-o‘zirivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

bilimini mustaqil oshirib borish, o‘zining qobiliyatini namoyon qila olish; sport bilan muntazam shug‘ullanish.

**A2+**

o‘z xatti-harakatini nazorat qilish, do‘stona tanqiddan xulosa chiqarish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

**A2**

badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish; tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**A2+**

Vatani, oilasi, mahallasining tarixini bilish va bugungi kun bilan taqqoslay olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish.

**A2+**

inson hayotiga xavf soladigan favqulodda vaziyatlarda ehtiyotkorlikka amal qilish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

**A2**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;  
fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**A2+**

kundalik faoliyatda turli formula va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish.

**1-3-mavzu. Mustaqil O'zbekiston. (3 soat, A2+4soat)**

**Leksika:** O'zbekiston Respublikasi, jahon xaritasi, muqaddas zamin, teng huquqli mamlakat, suveren respublika, bir yoqadan bosh chiqarib, iqtisodiy aloqalar, qo'shma korxonalar kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'l nisbatlari (1 soat). Fe'lning aniq va o'zlik nisbati. O'zlik nisbatning yasalishi va qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** Respublikamiz bilan bog'liq matnlar, ma'lumotlar, she'rlar.

**4-6-mavzu. Ona yurt manzaralari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** oltin kuz, kuz manzaralari, tabiat o'zgarishlari, xazonrezgi vaqt, kuz ne'matlari, sahovatli fasl, mayin shabada, keng vodiylar kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'lning majhul nisbati (1 soat), uning qo'llanishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid suhbatlar, matnlar, she'rlar.

**7-8-mavzu. Hosil bayrami. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** hosil bayrami, savdo rastalarida, mevalar va poliz ekinlari, narxlarda, mo'l, arzon sotiladi, tashkil etiladi, sotiladi kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'lning birgalik nisbati, uning yasalishi va qo'llanishi (2 soat), -lar qo'shimchasi bilan ma'nodoshligi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid suhbatlar, matnlar, maqollar.

**Nazorat ishi: diktant. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**9-11-mavzu. Bug'doy – rizq-ro'zimiz. (3 soat, A2+:4 soat)**

**Leksika:** dehqonchilik, eng kerakli kasb, non - aziz ne'mat, non hidi, me'daga tegmaydigan taom, nonning ushog'i ham non, yetishtirilgan hosil, non mahsulotlari kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fe'lning orttirma nisbati (1soat), ularning imlosi va qo'llanishi (2 soat) .

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, rivoyatlar, maqollar, she'rlar.

**12-14-mavzu. Buyuk allomalar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** buyuk olimlar maktabi, Ma'mun akademiyasi, buyuk astronom, matematik, geograf olim, algebra faniga asos solgan olim, Abu

**Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino** kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Nisbat qoʻshimchalarining talaffuzi (1soat), ularning birdan ortiq qoʻllanishi (2 soat).

**Adabiy oʻqish:** buyuk allomalar haqidagi matnlar, maʼlumotlar, sheʼrlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy oʻqish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**15-16-mavzu. Oʻzbek yozuvchilari. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** birinchi romannavis yozuvchi, badiiy ijod, tarixiy asar, asar qahramonlari, tashqi goʻzallik, axloq-odob, insoniy fazilatlar kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Feʼning vazifaviy shakllari (1soat). Harakat nomi, uning yasalishi (1 soat).

**Adabiy oʻqish:** oʻzbek yozuvchilari haqidagi maʼlumotlar, ularning ijodidan namunalar.

**17-19-mavzu. Men sevgan asar. (3 soat, A2+: 4soat)**

**Leksika:** kitobxonlik, men sevgan asar, kitob oʻqish usullari, sevimli qahramonlar, ijobiy, salbiy, obraz, tarixiy asarlar, sarguzasht asarlar kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ravishdosh (1 soat), uning yasalishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy oʻqish:** mavzuga oid matnlar, suhbatlar, sheʼrlar.

**Nazorat ishi: bayon. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**20-21-mavzu. Milliy hunarmandchilik. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** milliy hunarmandchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardoʻzlik, zargarlik, gilamdoʻzlik, chinnisozlik, kulolchilik, Sharq meʼmorchiligi, qadimiy anʼanalar kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Sifatdosh (1soat), uning yasalishi va imlosi (1soat).

**Adabiy oʻqish:** milliy hunarmandchilik haqidagi matnlar, maʼlumotlar, sheʼrlar.

**22-23-mavzu. Hunarmand maktabi. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** hunarmand maktabi, ustoz va shogir anʼanasi, hunar sirlari, ajdodlarimizdan meros, milliylik va zamonaviylik, qiziqish, astoydil oʻrganmoq, hunardan unar kabi tayanch soʻzlar va birikmalar.

**Grammatika:** Sifatdoshlarning turlanishi (1 soat), ot oʻrnida qoʻllanishi

**Adabiy oʻqish:** hunar sirlari, hunarmandlar haqidagi matnlar, maqollar, sheʼrlar.

## **O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyalar:**

### **A2**

o'rtacha tezlikda o'qilgan yoki eshittirilgan sport, madaniyat va yoshlar hayotiga oid xabarlar, yangiliklarni tinglab tushuna oladi;

mavzular bo'yicha savollarga javob bera oladi, savollar bilan murojaat eta oladi;

mavzuga oid she'r va she'riy parchalarni ifodali o'qib, yoddan ayta oladi; grammatik bilimlardan fe'lning aniq, o'zlik, birgalik va majhul nisbati, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi va bog'lovchilarning qo'llanishiga oid topshiriqlarni bajara oladi;

o'rganilgan mavzular bo'yicha 61-70 ta so'zdan iborat diktant yoza oladi; berilgan tayanch so'zlar yoki rasm asosida 21-25 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yoza oladi.

### **A2+**

namoyish qilingan yoki eshittirilgan xabar, ko'rsatuv, filmlarning mazmunini tushuna oladi;

suhbatga kirisha oladi va suhbatdoshining fikriga munosabat bildira oladi; berilgan mavzu yoki rasm asosida 21-25 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2soat)**

**24-26-mavzu. Do'stlik – qudratli kuch. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik, eng yaxshi fazilat, do'st va o'rtoqlar orttirish, do'stlikni qadrlash, do'stlik qudrati kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Bog'lovchilar (1soat). Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar (1soat), ularning qo'llanishi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** do'stlik haqidagi adabiy matnlar, rivoyat va maqollar, she'rlar.

**27-29-mavzu. Sog'lik - tuman boyluk. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** sog'ligimiz - boyligimiz, sog' tanda sog'lom aql, salomatlik sirlari, sog'lom turmush tarzi, uzoq umr ko'rish, badantarbiya mashqlari, piyoda yurish, to'g'ri ovqatlanish, orastalik qoidalari; va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq kabi faol so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Biriktiruv va zidlov bog'lovchilari (2 soat), ularning qo'llanishi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** salomatlik haqidagi matnlar, rivoyat va maqollar, she'rlar.

**30-32-mavzu. Dunyo mo‘jizalari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** dunyoning mo‘jizalari, sirli olam, Misr ehromlari, Bobil osma bog‘lari, Zevs haykali, Foros orolidagi mayoq, Tojmahal, Registon majmuasi; yo, yoki, ba‘zan, goh, goho, na kabi faol so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ayiruv va inkor bog‘lovchilari (1 soat), ularning imlosi va talaffuzi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** dunyo mo‘jizalari bilan bog‘liq ma’lumotlar, matnlar, suhbatlar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**33-35-mavzu. O‘zbek olimlari. (3 soat, A2+ 5 soat)**

**Leksika:** o‘zbek olimlari, turli ixtirolar, ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajriba, yetuk mutaxassislar, ulkan hissa qo‘shmoq kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Modal so‘zlar (1 soat), kerak, zarur, shart, mumkin modal so‘zlari (1 soat), ha va yo‘q so‘zlarining qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** o‘zbek olimlari, ularning tadqiqotlari haqidagi matnlar, maqollar va she’rlar.

**36-38-mavzu. Hashar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** hashar, mehnat bayrami, qadimda, Navro‘z udumlari, urf-odatlar, an’analar, yordam berish, ko‘chat ekish, bog‘-rog‘lar yaratish, milliy qadriyatlarimiz; albatta, haqiqatan ham, shubhasiz, ha, yo‘q, ma’qul, rostdan ham kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Ishonch va tasdiqni bildiruvchi modal so‘zlar (1soat), inkorni bildiruvchi modal so‘zlar (1 soat), ularning qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** o‘zbek udumlari, urf-odatlariga oid matnlar, ma’lumotlar, she’rlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**39-41-mavzu. Tejamkor bo‘laylik. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** suv, gaz, elektr energiyasi, tejamoq, sarflamoq, iqtisod va isrofgarchilik, isrof qilmaslik, tejamkorlik, loqaydlik; dastlab, avvalo, oxiri, keyin; baxtimizga, baxtga qarshi, afsuski kabi tayanch so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fikrning tartibini bildiruvchi modal so‘zlar (1 soat), achinish, afsuslanishni bildiruvchi modal so‘zlar, ularning qo‘llanishi va imlosi (1soat).

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid matnlar, maqollar va she’rlar.

**42-44-mavzu. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** tabiiy boyliklar, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, yonuvchi gaz va boshqa foydali qazilmalar zaxirasi, tuz, aluminiy, pardozlash toshlari va qimmatbaho toshlar, paxta, pilla kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fikrning kimga qarashlilikini bildiruvchi modal so'zlar (1soat), gumon va taxmini bildiruvchi modal so'zlar, ularning qo'llanishi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid publitsistik matnlarni o'qish, mazmunini tushuntirish.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**45-47-mavzu. Mardlik – manguilik. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** mardlik, muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik, milliy iftixor, Vatanni himoya qilish, fidokorlik kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Fikrni xulosalashda ishlatiladigan so'z va birikmalar (1 soat) ularning qo'llanishi va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mardlik haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

**48-49-mavzu. Kelgusi rejalarim. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** o'qishlar tugadi, yozgi ta'til, yozgi ishlar, reja tuzmoq, uyni ta'mirlash, yordamlashmoq, qishloqqa bormoq, bobomnikida turmoq kabi tayanch so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Undov so'zlar (1soat), ularning qo'llanishi (1soat), ulardan fe'l yasalishi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, suhbatlar, she'rlar.

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyalar:**

**A2**

o'rganilgan mavzularga oid matnlar mazmunini, mashqlar bo'yicha berilgan savol va topshiriqlarni tushuna oladi;

tavsiya etilgan nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlasha oladi;

matn mazmuni asosida savollar tuza oladi, berilgan savollarga grammatik shakllarni qo'llab, javoblar yoza oladi;

grammatik bilimlardan fe'l nisbatlari, harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh, bog'lovchilar, modal so'zlar va undov so'zlarning qo'llanishiga oid topshiriqlarni bajara oladi.

mavzuga oid she'r va she'riy parchalarni ifodali o'qib, yoddan ayta oladi;

berilgan tayanch so'zlar yoki rasm asosida 21-25 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yoza oladi;

**A2+**

mavzuga oid dialogik suhbatlarga qo'shila oladi va suhbatdoshining fikriga munosabat bildira oladi;

kuzatilgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildira oladi;

o'zlashtirilgan so'zlar, so'z birikmalari yordamida va yangi grammatik shakllarni qo'llagan holda berilgan matnni davom ettira oladi;

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**Mavzularni o'rganish uchun -49 soat (A2+: 74 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun - 4 soat**

**Takrorlash uchun - 3 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun - 4 soat (A2+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A2+: 102 soat)**

## **9-SINF**

**(haftasiga 2 soatdan, jami 68 soat, A2+: 102 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari**  
**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta), ma'lumot almashish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tabrik xati yoza olish, anketalarni to'ldirish, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni yoza olish).

**A2+**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (tavsifnoma, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma yoza olish).

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy kamolotga intilish; o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

**A2+**

o'qib-o'rganish, bilimni mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash;

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish;

kasblarning mohiyatini tushunish;

mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala madaniyatiga ega bo'lish.

**A2+**

o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

kasbni ongli ravishda tanlash;



yordamga muhtojlarga saxovatli bo'lish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

#### **A2**

badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;  
milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay olish;  
xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash.

#### **A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish;  
o'zgalarning dunyoqarashi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish.

### **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

#### **A2**

kundalik faoliyatda turli formula, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;  
inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

#### **A2+**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish;  
inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

### **1-3-mavzu. O'zbekiston – umumiy uyimiz. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ko'p millatli, baynalminal markazlar, bir oila farzandlaridek, ahil va inoq, xalqlar do'stligi, umumiy uyimiz, yagona Vatan, oila muqaddas kabi tayanch so'zlar va so'z birikmalari.

**Grammatika:** So'z birikmasi, uning turlari (1 soat), otli birikmalar va fe'lli birikmalar (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, rivoyatlar, maqollar va she'rlar.

### **4-6-mavzu. Mening tengdoshlarim. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** mening tengdoshlarim, maktabimiz faxri, yutuqlarga erishmoq, yaratilgan imkoniyatlar, iqtidorli yoshlar, iste'dodini namoyon qilish, barkamol avlod, do'stlikni qadrlamoq kabi tayanch so'zlar va so'z birikmalari.

**Grammatika:** Moslashuv, boshqaruv, bitishuv (3 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, suhbatlar, she'rlar.

### **7-9-mavzu. Ilm – taraqqiyot negizi. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ilm-fan, kitob mutolaasi, kitob - sir-asrorlar kaliti, ilm – taraqqiyot negizi, qomusiy olimlar, donishmandlar, buyuk alloma, kashfiyot, bebaho boylik, kelajak uchun poydevor kabi so'zlar va so'z birikmalari.

**Grammatika:** Gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (2 soat), tuzilishiga ko‘ra turlari (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** ilm haqidagi matnlar, rivoyatlar, maqollar, she’rlar.

**Nazorat ishi: bayon. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**10-11-mavzu. O‘zbek tilshunoslari. (2 soat, A2+: 3 soat)**

**Leksika:** tilshunoslar, qomusiy tilshunos olim, o‘zbek adabiy tili asoschisi, o‘zbek tilining rivojlanish bosqichlari, o‘zlashgan so‘zlar, atamalar, imlo qoidalari, lug‘at boyligi kabi so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Ega, uning ifodalanishi (1 soat). Otlashgan ega (1 soat).

**Ish qog‘ozi:** Tarjimai hol.

**Adabiy o‘qish:** tilshunos olimlar haqidagi ma’lumotlar, matnlar, hikmatli so‘zlar, she’rlar.

**12-14-mavzu. San’at olamida. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** san’at, san’atkor, milliy cholg‘u asboblari, sharq taronalari, mumtoz kuy va qo‘shiqlar, kuy sehri, betakror ovoz sohibi, raqs jozibas, berilib kuylash, diqqat bilan tinglash kabi so‘zlar va so‘z birikmalari.

**Grammatika:** Kesim, uning ifodalanishi va gapdagi o‘rni (1soat). Ot kesim va fe’l kesim (1 soat). Ega va kesimning gapda moslashuvi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** san’atga oid matnlar, ma’lumotlar, she’rlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**15-17-mavzu. Mehnat baxt keltirar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** mehnatni qadrlash, mehnat qilish, mehnatsevarlik, mehnatda tanilgan, mehnatning rohati, ulug‘lanadi, qadrlanadi kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** To‘ldiruvchi, uning turlari, gapdagi o‘rni (2 soat). Vositasiz to‘ldiruvchining qo‘shimchasiz qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** Mehnat haqidagi matnlar, maqollar va she’rlar.

**18-20-mavzu. Burch va huquqlarimiz. (2 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** baxtimiz qomusi, qonun moddalari, qonunchilikka amal qilish, odob-ahloq qoidalari, jamiyat oldidagi burch, farzandlik burchi, burchga sadoqat kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Vositali to‘ldiruvchilar (1 soat), uning kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi (1 soat) ko‘makchilar bilan qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** huquq va burch haqidagi matnlar, she’rlar, maqollar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**21-22-mavzu. Axborot resurs markazida. (2 soat, A2+ 3 soat)**

**Leksika:** ma'rifat markazi, axborot-resurs markazi, ma'lumotlar bazasi, elektron ma'lumotlar, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona, foydalanuvchilar ro'yxati, adabiyotlar ro'yxati kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Aniqlovchi, uning turlari (1soat). Sifatlovchi aniqlovchilar, ularning ifodalanishi (1 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, ma'lumotlar, suhbatlar.

**23-25-mavzu. Me'morchilik obidalari. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** me'morchilik, qadimiy obidalar, osmono'par minoralar, moviy gumbaz, Registon maydoni, naqshinkor madrasalar, zamonaviy inshootlar, ganchkorlik, sharqona usul, me'morchilik an'anasi kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Izohlovchi aniqlovchilar (1soat), ularning gapdagi o'zni va imlosi (2 soat).

**Adabiy o'qish:** mavzuga oid matnlar, ma'lumotlar, she'rlar.

**O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy va lingvistik (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish) kompetensiyalar:**

**A2**

audiovideo vositalari orqali eshittirilgan xabarlar, ommabop va kundalik hayot mavzusidagi yangiliklarni tushuna oladi;

namoyish qilingan ko'rsatuv, filmlarning umumiy mazmunini tushuna oladi;

berilgan tayanch so'zlar yoki rasm asosida 26-30 ta gapdan iborat bog'lanishli matn yoza oladi;

muomala odobiga doir nutqiy qoliplarni qo'llab, mavzu doirasidagi suhbatlarga qo'shila oladi;

grammatik bilimlardan moslashuv, boshqaruv, bitishuv, ega va kesim hamda aniqlovchining qo'llanishiga oid topshiriqlarni bajara oladi.

**A2+**

berilgan matn mazmunini ijodiy o'zgartirgan holda so'zlab bera oladi;

o'rganilgan nutq namunalarini qo'llagan holda berilgan matnni kengaytirib yoza oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**26-27-mavzu. Vatan himoyachilari. (3 soat, A2+ 4 soat)**

**Leksika:** Vatanni sevmoq, Vatan himoyachilari, sarhadlarimiz, vatanparvarlik, chegarachi, askar bo'lmoqchiman, tinchlik uchun xizmat qilmoq, chegaralarimizni qo'riqlaymiz, Vatanga sadoqat kabi so'zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Hol, uning turlari (1 soat). Tarz holi, uning ifodalanishi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** vatanparvarlik, Vatanga sadoqat haqidagi matnlar, maqollar, rivoyatlar, she’rlar.

**28-30-mavzu. Ekologiya va biz. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ekologiya, tabiat va biz, ekologik muammolar, tozalik - salomatlik asosi, toza havо – tanga davо, atrof-muhitni toza saqlash, sog‘lom turmush tarzi, suvni ifloslantirmaslik kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** O‘rin holi, uning gapdagi o‘rni (1 soat). Uning o‘rin ravishlari va kelishik qo‘shimchali otlar bilan ifodalanishi (2 soat).

**Ishqog‘ozi:** E‘lon matni.

**Adabiy o‘qish:** Ekologiya haqidagi matnlar, she’rlar.

**31-33-mavzu. Ma‘rifat fidoyilari. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** o‘zbek ma‘rifatparvarlari, fidoyi insonlar, o‘zbek ziyolilari, mangu barhayot siymolar, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla, Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Payt holi, uning gapdagi o‘rni (1 soat), payt holining payt ravishlari va kelishik qo‘shimchali otlar bilan ifodalanishi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** ma‘rifatparvar olimlar, yozuvchilar haqidagi matnlar, ularning ijodidan namunalar, she’rlar.

**Nazorat ishi: Matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**34-36-mavzu. Ayol – oila ko‘rki. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** ona muqaddas, ayol - oila ko‘rki, ayol - xonadon farishtasi, ayolni e‘zozlamoq, onalik mehri, ayol va jamiyat, ayolga ta‘zim kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Sabab holi, uning ifodalanishi (1 soat). Maqsad holi, uning ifodalanishi (2 soat).

**Ish qog‘ozi:** Tushuntirish xati.

**Adabiy o‘qish:** Ayollar, onalar haqidagi adabiy matnlar, rivoyatlar, maqollar va she’rlar.

**37-39-mavzu. Milliy an‘analar. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** milliy, an‘ana va udumlar, milliy bayramlar, milliy qadriyatlar, to‘y marosimlari, muqaddas qadamjolar, qo‘ni-qo‘shnichilik, salomlashish va so‘zlashish odobi kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Miqdor-daraja holi (1 soat), uning ifodalanishi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** milliy an‘ana va udumlar haqidagi matnlar, ma‘lumotlar, she’rlar.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**39-41-mavzu. O‘zbekiston sporti. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** O‘zbekiston sportchilari, sport ustalari, o‘zbek kurashi, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, o‘zbek shaxmatchilari, boks chempionlari kabi so‘zlar va birikmalar.

**Grammatika:** Shart holi (1 soat), ularning ifodalanishi va gapda qo‘llanishi (2 soat).

**Adabiy o‘qish:** O‘zbekiston sporti, sport ustalari haqidagi matnlar, suhbatlar, she’rlar.

**42-44-mavzu. Men yoqtirgan kasb. (3 soat, A2+: 4 soat)**

**Leksika:** kasblar, hunar egallash, hunarmandlik, kasbga qiziqish, san’atkorlik, shifokorlik, o‘qituvchilik, kasbim–faxrim, ustoz va shogir an’anasi kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Gap bo‘laklarining uyushib kelishi (2 soat). Umumlashtiruvchi so‘zlar va ularning imlosi (1 soat).

**Ish qog‘ozi:** Ariza.

**Adabiy o‘qish:** kasblar, kasb tanlash haqidagi matnlar, suhbatlar, maqollar.

**Nazorat ishi: matn yaratish. (1 soat)**

**Xatolar ustida ishlash. (1 soat)**

**45-47-mavzu. Yaxshilik unutilmaydi. (3 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** yaxshilik, yaxshi ish, yaxshi nom, yordam bermoq, ezgu ishlar, Xotira va qadrlash kuni, xotirlamoq kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Kirish so‘zlar va kiritmalar (2 soat), ularning gapda qo‘llanishi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** Xotira va qadrlash, yaxshilik haqidagi matnlar, maqollar va she’rlar.

**48-49-mavzu. Orzular qanotida. (2 soat, A2+: 5 soat)**

**Leksika:** orzular, orzuga yetishish, ezgu maqsad sari, imtihonlar, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabasi kabi so‘z va birikmalar.

**Grammatika:** Undalmalar (1 soat), ularning qo‘llanishi va imlosi (1 soat).

**Adabiy o‘qish:** mavzuga oid matnlar, suhbatlar, maqollar va she’rlar.

**O‘quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiyalar**

**Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish):**

**A2**

audio-video vositalar orqali eshittirilgan xabarlar, ommabop va kundalik hayot mavzusidagi yangiliklarni tushuna oladi;

o'rganilgan mavzularda o'zaro suhbatlasha oladi va bahslarda ishtirok eta oladi;

suhbat jarayonida murojaat etish shakllarini, muomala odobi (etiket) elementlarini to'g'ri qo'llay oladi va fikrga munosabat bildira oladi;

suhbatdoshining gapini bo'lish, suhbatga qo'shilish va unga aniqlik kiritish, nutqini sekinlashtirishga undash vositalaridan foydalana oladi;

ommabop materiallarni (gazeta, shaxsiy va elektron xatlar) o'qib tushunadi va mazmunini so'zlay oladi;

o'rganilgan matnlar asosida 1300 ta so'zni nutqida qo'llay oladi;

matnni (badiiy asardan parcha, hikoya, xabar) bir daqiqada 70-75 so'z tezligida o'qiy oladi;

70-80 so'zdan iborat matn asosida diktant; 90-100 so'zli matn asosida bayon yoza oladi; 11-15 gap hajmida matn tuza oladi;

ayrim ish qog'ozlarini (ariza, tarjimai hol, e'lon, tushuntirish xatini) yoza oladi.

**A2+**

ko'rgan yoki eshitgan voqea-hodisani, hikoya, ertak, matn mazmunini gapirib bera oladi, unga munosabat bildira oladi;

o'zbek tiliga xos nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi.

**Nazorat ishi: test. (1 soat)**

**Takrorlash. (1 soat)**

**Sinfdan tashqari adabiy o'qish uchun. (1 soat, A2+: 2 soat)**

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

**A2**

mavjud axborot manbalaridan foydalanib (internet, telefon, kompyuter, elektron pochta), ma'lumot almasha oladi;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi (tabrik xati yoza oladi, anketalarni to'ldira oladi, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta oladi).

**A2+**

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay oladi (tavsifnoma, ariza, shaxsiy ma'lumotnoma yoza oladi).

**O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

**A2**

shaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantira oladi;

o'z xatti-harakatini baholay oladi, o'zini nazorat qila oladi;

**A2+**

o'qib-o'rganib, bilimini mustaqil ravishda muntazam oshirib bora oladi;

o'z xatti-harakatini holis baholay oladi;

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

**A2**

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini tushuna oladi;  
kasblarning mohiyatini tushuna oladi;  
mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala madaniyatiga amal qila oladi.

**A2+**

o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilib, unga rioya qila oladi;  
kasbni ongli ravishda tanlay oladi;

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:****A2**

badiiy va san’at asarlarini tushunib, undan ta’sirlana oladi;  
milliy va umuminsoniy qadriyatlarni farqlay oladi;  
xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asray oladi.

**A2+**

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va.h.k.) bilib, unga hurmat bilan munosabatda bo‘la oladi;

o‘zgalarning dunyoqarashi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qila oladi.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:****A2**

kundalik faoliyatda turli formula, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qib, undan foydalana oladi;

**A2+**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza oladi;  
inson mehnatini yengillashtiradigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lib, undan foydalana oladi.

**Mavzularni o‘rganish uchun - 49 soat (A2+: 74 soat)**

**Nazorat ishlari uchun - 8 soat**

**Xatolar ustida ishlash uchun - 4 soat**

**Takrorlash uchun - 3 soat**

**Sinfdan tashqari adabiy o‘qish uchun - 4 soat (A2+: 8 soat)**

**Jami: 68 soat (A2+: 102 soat)**

**Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar**

Shuhrat “Oqqushning kenja bolasi”

Erkin Vohidov “Tanlangan asarlar”

Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar”

Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sariq devni minib”

Chingiz Aytmatov “Oq kema”, “Qiyomat”

Jonatan Svift “Guliverning sayohatlari”

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16 avgustdagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 390-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi PF-3431.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 1 iyuldagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitiladigan umumta'lim fanlari hamda oliy ta'limda davom ettiriladigan fanlar dasturlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash to'g'risida"gi 6/2/4/1-sonli qo'shma hay'at majlisi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarori.
10. [www.fgosvo.ru](http://www.fgosvo.ru) ; [ru.wikipedia.org](http://ru.wikipedia.org) (Rossiya tajribasi), [online.zakon.kz](http://online.zakon.kz) [www.kaznu.kz](http://www.kaznu.kz) [mel.fm](http://mel.fm) (Kazaxstan tajribasi).



**Umumiy o‘rta ta’limning O‘zbek tili fanidan o‘quvchilarda  
kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab  
chiqish bo‘yicha ijodiy guruhi**

<b>T/r</b>	<b>Ismi va familiyasi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1	Muxitdinova Xadicha Sobirovna	O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.
2	Lafasov O‘roqboy Pozilovich	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
3	Muxamedjanova Gulnora Ziyatovna	Toshkent shahar XTXQTMOI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.
4	Nuriddinova Dildora Abrarovna	Respublika ta’lim markazi bo‘lim boshlig‘i.
5	Tolipova Fotima Sa’dullaevna	Respublika ta’lim markazi bosh metodisti.
6	Aydarova Fotima Raxmatovna	Toshkent shahar Sirg‘ali tumanidagi 6-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi.
7	Mahmudova Xolida Maxmudovna	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi o‘qituvchisi.
<b>EKSPERT GURUHI</b>		
1	Niyozmetova Roza Xasanovna	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.
2	Akromova Mapura Djalolitdinovna	Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi 61-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi.
3	Sagdiyeva Sayyora Sagdievna	1-Toshkent pedagogika kolleji o‘qituvchisi.